

REAL SEKTOR IQTISODIYOTI VA UNI PROGNOZLASH



338.24
X-11


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**R. Xasanov, X. Asatullayev,
A. Suvonqulov, X. Xakimov**

REAL SEKTOR IQTISODIYOTI VA UNI PROGNOZLASH

O'quv qo'llanma



**Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2013**

UO'K: 338.2(575.1)

KBK: 65.23(50')

H-11

***Taqrizchilar:* i.f.d., prof. Sh.Shodmonov
i.f.n., prof. B.Rustamov**

R. Xasanov, X. Asatullayev, A. Suvonqulov, X. Xakimov. Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. TMI. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2013, – 192 b.

O'quv qo'llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash masalalari hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayoni va tarmoqlar rivojlanish qonuniyatlari hamda tamoyillariga asoslangan holda kelajakni oldindan ilmiy bashoratlash va istiqbolli taraqqiyot dastur maqsadlari va vazifalarini aniqlash talablarini hisobga olib bayon qilinadi.

O'quv qo'llanma iqtisodiy fanlarning ilg'or prognozlash yutuqlaridan foydalangan va jahon amaliyotida qo'llaniladigan ilmiy bilish, tahlil qilish hamda bashoratlash usullari talabiga asoslangan holda yozilgan.

O'quv qo'llanmaning VII bobi mustaqil tadqiqotchi N. Turdimurodov hammuallifligida tayyorlangan.

O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishdagi magistrlar, professor-o'qituvchilar va bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, ular istiqbolini belgilash kabi muammolar tahlili bilan qiziqadiganlar uchun mo'ljallangan.

UO'K 338.2(575.1)

KBK 65.23(50')

ISBN 978-9943-13-398-3

© «Iqtisod-Moliya», 2013
© R. Xasanov, X. Asatullayev,
A. Suvonqulov, X. Xakimov, 2013

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni real sektor rivojini prognozlash, bu jamiyat va iqtisodiyotni rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holda istiqbolni ilmiy asosda oldindan bilish, bashoratlash hamda ushbu jarayonlarni jamiyatning umumiy taraqqiyoti maqsadlari va vazifalarini mujassamlashtiruvchi dastur amallarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Milliy real sektor iqtisodiyotini prognozlash soha rivojini jahon iqtisodiyoti rivoji tendensiyalari, mamlakatning ustuvor yo'nalishini tartibga solishda istiqbolli dasturlarni tuzishda va boshqarish nazariyasi hamda amaliyotida katta ahamiyatga ega. Mazkur fan milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy barqaror rivojlantirishni boshqaruv mexanizmlarini yechimlarini tanlash imkoniyatini beradi va istiqbolda rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish yo'llarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, «2012-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, e'tiborga molik» – dedi.¹ Shuningdek, «Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning eng muhim sharti va manbai bo'lmog'i kerak. O'zbekistonda so'nggi besh yil mobaynida investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati 9 foizdan ziyodni tashkil etmoqda va bu dunyodagi yuqori, barqaror ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bugungi murakkab sharoitda biz erishgan bu natijaning ahamiyati va mohiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Keyingi 10-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3,2 barobar oshgan bo'lsa, shu davrda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 20 barobardan ziyod o'sgani e'tiborga sazovordir», – dedi.

Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy

¹ «Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiiy-iqtisodiy rivojlantirish yekunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzası Toshkent, 2013, 18-vanvar

islohotlar va muhim strategik ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi natijasida iqtisodiyotning real sektori jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. So'nggi o'n yilda Respublika banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash 7 barobar oshdi. Shu bilan birga iqtisodiy nochor korxonalarni banklar balansiga o'tkazib, ularni sog'lomlashtirish borasida qo'llanilgan noan'anaviy yondashuv o'zini oqladi va o'z samaradorligini ko'rsatdi.

Real sektorda «prognozlash» – bu, milliy iqtisodiyotdagi real tarmoqlar istiqbolini belgilash, tarmoqlarni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat real sektor rivojlanish istiqbol dasturini ishlab chiqishning bir qismidir. Shu bilan birga bu nisbatan mustaqil fan bo'lib, o'ziga xos bir qancha belgilari bilan farqlanadi: prognozlar direktiv xarakterga ega emas, ularning miqdor baholari asosan ehtimollik xususiyatiga ega, ular ko'p jihatdan sodir bo'lgan rivojlanish va inqiroz muammolarini aniqlashga va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga qaratilgan.

Real sektor va uni prognozlash fanining predmeti – prognozlash obyektining rivojlanish qonuniyatlariga asosan, iqtisodiy majmua va uning real sektor tarkibiy qismlarini obyektiv shart-sharoitlarga asoslangan holda rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va ushbu jarayonni vaqt va fazodagi miqdor hamda sifat darajalarini aniqlashdir.

Real sektor va uni prognozlashning asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotning ushbu sohasini rivojlanish yo'llarini xolisona baholash, bu jarayonni maqbul boshqaruv yechimlarini ilmiy asoslash uchun optimal variantlarni topish hamda uni istiqbol rejalarini tuzishdan iborat. Bundan tashqari, u iqtisodiyotning real sektor rivojlanish yo'nalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, mavjud va paydo bo'lishi ehtimoli bor muammolarni, yangi jarayon va holatlarni o'rganadi. Real sektordagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning kelajak yo'nalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa chora-tadbirlarni real hayotga tatbiq etadi, samarasini aniqlaydi, ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy-texnik bosh yo'nalishlarni asoslaydi.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda dialektik, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, tarixiylik va mantiqiylikning birligi va boshqa ilmiy metodlardan foydalanilgan. Har bir iqtisodiy prognozlash voqea, hodisa, jarayon va tushunchalar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tomon birligidan iborat deb qaralib, ikki tomonlama tahlil usuli kengroq qo'llanilgan va shu yo'l bilan yoritilayotgan masalaning asl mohiyatini

tushunish soddalashtirilgan. Asosiy iqtisodiy jarayonlarni prognozlash-tirish va istiqbolini belgilash misollar, jadvallar, grafiklar asosida amaliy tahlillar asosida tushuntirilgan.

Shuningdek, unda dasturdagi barcha mavzular qamrab olingan, ko'pgina materiallar imkon darajasida qisqartirib berilgan.

O'quv qo'llanmada iqtisodiy jarayonlar, voqea-hodisalar obyektiv tahlil qilinib, yetarli ilmiy-uslubiy asosda yoritilgan. Mazkur qo'llanma talaba va o'quvchilarni nazariy va uslubiy bilim bilan qurollantirib, real sektorda kechadigan iqtisodiy jarayonlarni bilishga, tafakkur qilishga va mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilishga hamda prognozlash jarayonlarini o'rgatadi, degan umiddamiz.

Real sektor iqtisodiyoti bo'yicha mazkur qo'llanma asosan iqtisodiyot yo'nalishidagi magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, talabalari, aspirantlar va iqtisodiy prognozlash sohasidagi bilimlarga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham unumli foydalanishi mumkin.

Mualliflar o'quv qo'llanmaning tarkibiy tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinish tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar va keyingi o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hisobga oladilar.

I BOB. IQTISODIYOTNING REAL SEKTORI VA UNI PROGNOZLASHNING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Real sektor iqtisodiyoti tushunchasi va uning mohiyati

Jahonda integratsiya va globallashuv jarayonlarini chuqurlashib borishi milliy iqtisodiyot oldida bir qator yangi vazifalarni qo'ymoqda. Milliy iqtisodiyotni dunyo bozorida o'z o'rnini topishi, ya'ni ma'lum «darchani» egallashi uchun uning raqobatdoshlik darajasi doimiy ravishda o'sib borishi lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun milliy iqtisodiyotni barcha sohalarida texnik va texnologik yangilanish amalga oshirilishi kerak. Bu borada fan va texnika yutuqlari, ishlab chiqarishni boshqaruvining (menejment) yangi usullarini doimiy ravishda joriy etish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keyingi yillarda fan va texnika yutuqlarini va ishlab chiqarish boshqaruvini yangi usullarini joriy etish bilan birga, inson kapitali rivojiga juda katta e'tibor berilmoqda. Informatsion texnologiya, robotlar, bio-, nanotexnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etilishi munosabati bilan mehnat resurslarining kasbiy malakasini oshirish katta ahamiyat kasb etib, ularning sifati mamlakatni raqobatdoshligini va keyingi yillarda o'sishini ta'minlaydi.

Mamlakatni jahon hamdo'stligidagi o'rnini real sektorning rivojlantirish darajasi va raqobatdoshligi belgilaydi.

Iqtisodiy atamalarda iqtisodiyotni real sektoriga turlicha ta'rif beriladi va quyida biz ularni bir nechta bilan tanishamiz:

1. Iqtisodiyotni real sektori (IRS) (inglizcha – Real sector of economy) – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma'lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik, o'rta va yirik (industrial) korxonalarni birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir.

2. Iqtisodiyot sektori – bu iqtisodiyotni yirik tarkibiy qismi bo'lib, u turli ishlab chiqarish sohalarini o'xshash tavsiflar, iqtisodiy maqsadlar,

funksiyalari orqali birlashtiradi va nazariy hamda amaliy jihatdan iqtisodiyotni boshqa qismlaridan farq qiladi.

3. Iqtisodiyotni real sektori – bu iqtisodiyotni material-buyum mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, nomaterial boylikni yaratuvchi va xizmat ko'rsatish sohalarini o'z ichiga oladigan soha. Real sektorga moliya-kredit, birja faoliyati kirmaydi.¹

4. Iqtisodiyotni real sektori kapitalni spekulativ harakati istisno qilgan holda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish va iqtisodiy o'sish jarayonlarini birlashtiradigan soha.

5. Iqtisodiyotni real sektori – bu iqtisodiyotni muhim sektori bo'lib, to'g'ridan to'g'ri mahsulot ishlab chiqarish, daromad olish va budjet daromadlari tushumini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish sohasi uning iqtisodiy atama sinonimlari hisoblanadi.

7. Iqtisodiyotni real sektori – kommertsiyaga asoslangan seriyali va yirik miqdorda mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi, jumladan, bino va inshootlarni qurish, aloqa, telekommunikatsiya, transport xizmatini amalga oshiruvchi kichik, o'rta va yirik korxonalar yig'indisidir.

Iqtisodiyotda real sektorni samarali faoliyat yuritishida moliyaviy sektor muhim o'rin egallaydi.

Moliyaviy sektor – bu qarz olish va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan amaliyotni ijro qiladigan vositalar va institutlar to'plamidir. Moliyaviy tizim mulk egaligini kapitaldan ajratish imkoniyatini beradi.

Moliyaviy sektorga banklar, sug'urta kompaniyalari, fond birjalari, moliyaviy investitsion kompaniyalar, lombardlar va boshqa moliyaviy institutlar kiritiladi.

Real sektorda YaIMni asosiy qismi yaratiladi va uning moddiy ishlab chiqaruvchi eng muhim tarkibiy qismi sanoat va qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida iqtisodiy resurslar qayta ishlanilib, moddiy ne'matlar va iste'mol tovarlari yaratiladi. Ularning rivojlanishi aholi daromadlarini oshishi, turmush farovonligini o'sishi uchun imkoniyat yaratib, ta'lim, tibbiyot, madaniyat sohalari rivoji uchun moliyaviy-moddiy asos yaratadi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi mamlakatda moddiy ishlab chiqarish sohalari uchun yaratilgan huquqiy-me'riy sharoit bilan uzviy bog'liqdir. Chet el va ichki investitsiyalarni jalb etish uchun investorlarga huquqiy kafolat berilishi va uni ijrosi davlat tomonidan kafolanlanishi lozim.

¹ Комов А. Анализ системы кредитования реального сектора экономики России в 1 полугодии 2004 г. // Русское Экономическое Общество 2004 №141 С 7-8

Real sektor rivojiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, pul-kredit tizimi holati, soliq-budjet tizimi, davlatning investitsion siyosati, mamlakatning to'lov qobiliyati holati ta'sir qiladi.

Real sektor rivojini, natijada iqtisodiy o'sishni moddiy ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilashga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri kapital qo'yilmalar miqdori hamda innovatsiyalar ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti sharoitida real sektorga mamlakatning moliyaviy sektori holati ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, foiz stavkalari darajasi, fond birjalari, sug'urta tizimi va boshqalar.

Iqtisodiyotni real sektoriga mahsulot ishlab chiqarish bilan, nomaterial boylik yaratish va xizmat ko'rsatish sohalari ham kiritiladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab real sektor infratuzilmasida katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Iqtisodiyotni real sektoriga moddiy va nomoddiy boyliklar yaratish sohalari hamda xizmat ko'rsatish sektorlari kiradi. Iqtisodiy rivojlanish natijasida ishlab chiqarish sohalarida tuzilmaviy va tarkibiy o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, XX asrning 2-yarmidan boshlab fan va texnika rivojlanishi, mehnat unumdorligini keskin oshishi natijasida real sektorni tuzilmaviy tarkibida moddiy ishlab chiqarish sohalari bilan xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi nisbat o'zgardi. Iqtisodiy rivojlangan, hozirda «informatsion, postindustrial» deb nomlanuvchi davlatlarda xizmat ko'rsatish sektorida ish o'rinlari soni keskin ko'payib, moddiy ishlab chiqarish sohasiga nisbatan deyarli 2 marta ko'pdir. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi, qazib olish sohalaridagi ish o'rinlari mutlaq va nisbiy kamaydi. Qayta ishlash sohalaridagi bandlik ham qisqarmoqda.

Fan va texnika sohalarini rivojlanishi, iqtisodiyotni informatsiyalashtirish, bio-, nonatexnologiyalarni tezkor rivojlanishi natijasida real sektorda yangi sohalar yaratildi. Jumladan, kompyuterlar uchun dasturlar yaratish real sektorning muhim sohasiga aylanib bormoqda. Hatto, AQSH, Hindiston, Rossiyada ushbu soha korxonalarini yaratish uchun alohida shaharlar barpo etilmoqda (AQSHda «Kremniy vahosi». Hindistonda – Bangalor, Rossiyada – Skolkovo).

1.2. Real sektor iqtisodiyotini o'rganishning ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Bugungi kunda real sektor iqtisodiyotini prognozlash masalasi davlatning milliy iqtisodiyotni boshqarish siyosatini takomillashtirish va uni tartibga solishda muhim bir omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatda iqtisodiyot, ayniqsa real sektor rivojining 20–50-yilga mo'ljallangan prognozlash rejaları ishlab chiqilgan. Bu borada informatsion texnologiyalarning rivojlanishi va dasturlarni ishlab chiqarilishi muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Real sektor tarmoqlarini mutanosib rivojlantirishni uzoq muddatli prognozlash, ularni faoliyatidagi muammo va kamchiliklarni belgilashda, shuningdek, ularni samarali boshqarish tizimini yaratish imkoniyatini beradi.

Umumiy tasavvurda prognozlash o'rganilayotgan obyektning kelajakda kutilishi mo'ljallangan jarayonlarni oldindan bilish ehtimolligidagi tasavvurdir. Har bir iqtisodiy munosabatlar jarayonini rivojlanish jarayonini oldindan bilish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni oldini olish, yoki uning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkoniyatini beradi. Chunki, prognozlash jarayoni o'rganilayotgan obyektning turli jihat va xususiyatlarini mantiqan ochib bera oladigan faoliyat ko'rsatkichlarini hisobga olish hamda tahlil qilish zaruriyatini tug'diradi. Aynan to'g'ri qilingan hisob-kitob tahlillar kelajakda kutiladigan zararlarning olidini oladi.

Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash jarayonining mohiyatini, milliy iqtisodiyotning tarmoqlari rivoji istiqbolini belgilashni o'rganish va uni hayotga tatbiq qilish kelajakda mamlakatni barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlashning asosiy maqsadi – iqtisodiyotning real sektorining istiqbolli ko'rsatkichlari va ma'lumotlarining haqqoniyligini ta'minlash, milliy iqtisodiyotimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish hamda uning istiqbolini belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalar berish kabilarni qamrab oladi.

Uning vazifasi esa milliy iqtisodiyotning real sektoridagi tarmoq va sohalar faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy hamda nazariy asoslari; real sektor iqtisodiyotining xo'jalik yurituvchi subyektlari bo'yicha tarkibiy tuzilmasi, milliy iqtisodiyotdagi tarmoq va sohalar faoliyatining istiqbolini belgilash bo'yicha ko'rsatkichlardan foydalanishning ahamiyati haqidagi nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Real sektor iqtisodiyotida prognozlash – bu ishlab chiqarish sohalari va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining hamda iqtisodiyot subyektlarining iqtisodiy holati va faoliyat natijalarini qay yo'sinda davom ettirish, istiqbolli strategiyasini belgilash to'g'risida malakaviy xulosa berishdan iboratdir.

Shu boisdan ham real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash

respublikamiz iqtisodiyoti subyektlari, tarmoq va sohalar faoliyati xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning tarkibiy tuzilmasi, o'zgarishi va qonuniyatlarini prognozlash hamda uni istiqbolini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

1.3. Makroiqtisodiy jarayonlarni rejalashtirish va prognozlashning nazariy-metodologik asoslari. Prognozlash va rejalashtirish usullari

Prognozlash – bu rivojlanishning kelajakdagi istiqbolli prognozini ishlab chiqish jarayoni bo'lib, u o'rganilayotgan obyektning ma'lum bir vaqtdan keyingi holati, uni alternativ rivojlanish yo'llari va muddati to'g'risidagi ilmiy asoslangan fikrlar majmuasidir. Prognoz ehtimollik, ko'p variantlik va alternativ xususiyatlarga ega.

Rejalashtirish – bu rivojlanishni maqsadi, ustuvor yo'nalishlarini belgilash va ularga erishish yo'llari hamda vositalarini ilmiy asoslash jarayonidir. Amaliyotda u rejalarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Reja – bu iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni yechimini ko'rsatuvchi ko'rsatgichlar tizimi va turli tadbirlarni majmuasini umumlashtiradigan hujjatdir. Unda rejaning maqsadi, ustuvor yo'nalishlari, ta'minot manbalari, ijro tartibi va muddati ko'rsatiladi. Prognozlash va rejalashtirish jarayonlari o'zaro bir-birini to'ldiradi.

Iqtisodiyot fanida va amaliyotida rejalashtirishni turli usullari ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Jumladan, ularni direktiv, indikativ, strategik, taktik rejalashtirish usullaridan ko'p foydalaniladi.

Direktiv rejalashtirish (majburiy, qattiq nazorat qilinadigan, ijro etilishi shart) – markazdan iqtisodiyotni barcha tarkibiy qismiga ijro etilishi majburiy bo'lgan reja topshiriqlarni yetkazishni nazarda tutadi. Rejalar, birinchi navbatda umumdavlat ehtiyojlarini hisobga olgan holda tasdiqlanadi va qonun kuchiga egadir. Bu rejalashtirish markazlashtirilgan – rejali iqtisodiyotga xos bo'lib, aralash iqtisodiy boshqaruv tizimida faqat favqulodda vaziyatlar va urush davrida iqtisodiyotda tezkor tuzilmaviy qayta qurish uchun foydalaniladi.

Indikativ rejalashtirishda davlat va tadbirkorlarni ehtiyojlari hisobga olinadi, u taklif berish asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, davlatning qo'lida bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadigan boshqaruv tizimi mavjud. Bular: turli imtiyozlar tizimi, litsenziyalash, kvota, subsidiya, dotatsiya va boshqalar. Indikativ rejalashtirishda iqtisodiyot boshqaruvida makroiqtisodiy ko'rsatgichlar indikatorlaridan foydala-

niladi. Bular, YaIM, chakana savdo aylanmasi, aholi bandligi, ish haqini real miqdori. Indikativ rejalashtirishni tarkibiy qismi iqtisodiy rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlarini yirik moliyaviy va sanoat guruhlari, kasaba uyushmalari, tadbirkorlar ittifoqi va boshqa jamoa tashkilotlari bilan konsensus (o'zaro kelishish) mexanizmi orqali amalga oshirishdir.

Strategik rejalashtirish – uzoq muddatga rejalashtirilgan maqsadlarni aniqlash, uning ustuvorligini isbot qilish va uni ijrosini ta'minlash mexanizmini shakllantirishdan iborat. Uning asosiy maqsadi mamlakatni kelajakda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun yetarli miqdorda shart-sharoit yaratishdir. Uni ishlab chiqishda texnologik, iqtisodiy, raqobatlik, ijtimoiy, xalqaro, bozor va siyosiy omillar hisobga olinadi.

Strategik rejalashtirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda direktiv, indikativ va taktik rejalashtirish usullaridan foydalaniladi.

Taktik rejalashtirish – bu 1–2-yilga mo'ljallangan rejalashtirish turi bo'lib, unda ishlab chiqarish dasturlarini asosiy funksional yo'nalishlari, moddiy-texnik ta'minoti, ish haqi to'lovi, mahsulotni sotish hajmi, xarajatlar, moliya, ijtimoiy rejalashtirish amalga oshiriladi. Taktik reja – bu mavjud resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish orqali korxonani strategik rejasi topshiriqlarini bajarishga qaratilgan ishlab chiqarish, xo'jalik va ijtimoiy faoliyatini ko'rsatadigan ko'rsatgichlar majmuasidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashning asosiy obyektlari sifatida demografik, iqtisodiy, ijtimoiy soha, ekologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot ko'rsatgichlari namoyon bo'ladi. Iqtisodiyot rivojini, tarixan, aholi soni (N), resurslarni mavjudligi (R) va texnologiya darajasi (T) belgilaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy makroprognozlash jarayonining asosiy ko'rsatgichlariga:

- ◇ YaIM (Y), kishi jon boshiga YaIM, eng muhim mahsulotlar, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish;

- ◇ aholi soni (N) va mehnat resurslari (L);

- ◇ investitsiya (I) asosiy kapitalga (K), ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarga;

- ◇ tovar va xizmatlar eksport (EX) va importi (IM), savdo balansi saldosi (NX);

- ◇ mehnat unumdorligi (T);

- ◇ insoniyat taraqqiyoti indeksi (HDI) ta'sir ko'rsatadi.

Rejalashtirish, uni tuzish va rejali hisoblar muddatiga qarab uzoq muddatli (5-yil va undan ko'p), o'rta muddatli (1-yildan 5-yilgacha) va qisqa muddatli (1-yilgacha) turlariga bo'linadi.

1.4. Real sektor iqtisodiyotini o'rganish metodologiyasi

Prognozlash va rejalashtirish metodologiyasi keyns va monetar nazariyalarga asosan amalga oshiriladi. Keyns nazariyasida asosiy e'tibor jami xarajatlar va uning tarkibiy qismlariga qaratiladi. Ushbu nazariy tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$C+G+I+(E-M)=Y,$$

bunda: C – xususiy sektorda ichki iste'mol, G – davlat xarajatlari; I – investitsiya; E – tovar va xizmatlar eksporti; M – tovar va xizmatlar importi; Y – oraliq iste'mol chegirib tashlangan tovar va xizmatlarni hajmi. Iqtisodiy barqarorlik sharoitida tenglamani chap qismi (yalpi xarajat) o'ng qismiga teng bo'ladi (mamlakat ishlab chiqarish hajmi). Ushbu modelda YaIMning hajmini, eksport va import nisbati orqali «toza eksport»ni aniqlash imkoniyati tug'iladi

Monetar nazariyada, iqtisodiyotni barqarorlashtirishda asosiy e'tibor pulning miqdoriga qaratiladi. Ushbu modelning asosini M.Fridmenning almashish tenglamasi tashkil qiladi.

$$Md \cdot V = P \cdot Q,$$

bunda: Md – pul taklifi; V – pulni aylanish tezligi; P – narx-navo darajasi; Q – tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning hajmi.

Monetar siyosat liberal iqtisodiyotning muhim makroiqtisodiy vositasi hisoblanadi, u pul-kredit tizimini pulga bo'lgan talabga va tegishli ravishda foiz stavkalariga ta'sirini tariflaydi.

Monetar siyosat tegishli ravishda real sektor rivojiga ta'sir ko'rsatadi, chunki pul miqdorini inflatsiya darajasi va YaIMning o'sish darajasi bilan bog'liq holda emissiya qilish iqtisodiyotni pulga (investitsiyaga) bo'lgan talabini to'liq qondirmasligi mumkin. Ammo, monetaristlar bu vosita orqali inflatsiyani kamaytirish va real sektorda noraqobatdosh ishlab chiqarishni bartaraf etish mumkin deb e'tirof etadilar.

Iqtisodiyotning real sektori va uni prognozlash fani o'zining metodologiyasi va tahlil usullariga ega. Iqtisodiyotning real sektori va uni prognozlash fanini o'rganishda qanday ilmiy tamoyillar asosida yondashilishi ushbu fanning metodologiyasini anglatadi. Metodologiyaning asosini **tizimli yondashuv** tashkil etadi. Iqtisodiyotning real sektori sohalari real-xo'jalik faoliyatini o'rganish orqali ularga baho beriladi va rivojlanish istiqbollari prognoz qilinadi. Natijada, iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari belgilab beriladi.

Metodologik nuqtayi nazardan qaranganda, **real sektorning yaxlitligi tamoyili** alohida ahamiyat kasb etadi. Real sektorning turli jihatlar alohida tahlil qilinadi va ular birgalikda bir majmua sifatida yaxlitlikda qaraladi. Real sektor subyektlari yagona bozor ishtirokchilari sifatida qanday vazifalarni bajarayotganligi, bundagi yondashuvlarning metodologiyasi ishlab chiqiladi.

Iqtisodiyotning real sektorini o'rganishda yana bir metodologik tamoyil – bu **sohalarining birligi va qarama-qarshiligi muammosini** hisobga olinishidir. Boshqa sohalaridagi o'zgarishlar real sektoriga ta'sir etishi va bunday sharoitda qanday qarorlar qabul qilinishi borasida tezkor choralar ishlab chiqilishining ilmiy asoslari yaratiladi.

Iqtisodiyotning real sektorini o'rganishning yana bir metodologik tamoyili – bu **real sektor va ijtimoiy masalalarning o'zaro bog'liqligini** hisobga olinishidir. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida real sektorni ijtimoiy masalalar bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi, chunki ijtimoiy muammolarning hal etilishi real mablag'lar mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Real mablag'larsiz ijtimoiy sohani rivojlantirib bo'lmaydi. Masalan, mamlakatdagi ekologik vaziyat, uning normal holatda bo'lishi yoki yaxshilanishiga bo'lgan sa'yi-harakatlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari. shu jumladan, real sektor manfaatlariga aloqador hisoblanadi.

Iqtisodiyotning real sektorini va uni prognozlash fanini o'rganishning yana bir metodologik tamoyili – bu **real sektorni dinamik rivojlantirishda** olib o'rganishdir. Bu bilan real voqeylikning kelib chiqish sabablari, undagi o'zgarishlar qanday kechayotganligi bilib olinadi. Shunga asoslanib, rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi va bular nimaga olib kelishi va shunga ko'ra istiqboldagi yo'nalishlar prognoz qilib boriladi.

Iqtisodiyotning real sektori va uni prognozlash fanini o'rganishda **dastlabki kuzatish usuli** qo'llaniladi. Chunki real holatni qay yo'sinda ekanligi aniqlash vaziyatga to'g'ri baho berish imkoniyatini beradi. Bunda real sektoriga oid ma'lumotlar to'plab, ular xususiyatiga qarab ajratib olinadi. Ma'lumotlar tahlil etilishi natijasida ma'lum bir g'oyalar olg'a suriladi. Bu g'oyalar to'plangan ma'lumotlar asosida sinab ko'riladi. Agar ilgari surilgan g'oyalar asosli bo'lsa, ular tasdiqlansa, qabul qilinadi, aks holda boshqacha yondashuvlar asosida yangi g'oyalar yaratiladi va nazariy xulosalar amaliyot bilan solishtirib ko'riladi.

Iqtisodiyotning real sektorini va uni prognozlash fanining o'rganishda **idrok etish usuli** ham qo'llaniladi. Bu usul yordamida real

hodisalarga ma'lum omillarning ta'siri idrok etiladi. Idrok etish usulining asosida mantiqiylik yotadi. Mantiqiy yondashuv orqali ma'lumotlar taqqoslanadi, ularning o'zaro bog'liqligi, farqlanishi va oqibatlari aniqlab olinadi.

Idrok etish va mantiqiylik asosida analiz va sintez usuli qo'llaniladi. Bu usul orqali real mablag'lar harakati bo'laklarga ajratilib tahlil qilinadi va alohida xulosalarga kelinadi. Olingan xulosalar jamlanadi va bu sintez usulini anglatadi. Natijada oraliq natijalar taqqoslanadi va umumiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Ma'lumki, real sektorga moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar singari boylik va xizmatlarning nomoddiy shakllarini ishlab chiqaruvchi sohalari kiradi. Shunga ko'ra real sektor iqtisodiyoti mamlakat miqyosida, uning alohida moddiy va nomoddiy shakllarini ishlab chiqaruvchi sektorlari va jahon xo'jaligi darajasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini bir butun qilib birlashtirgan iqtisodiy tuzilmasidir.

II BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

2.1. Real sektor iqtisodiyotining makroiqtisodiy o'lchamlari

Ma'lumki, o'tmishda O'zbekiston iqtisodiyoti XX asming 90-yillariga qadar rejali – markazlashtirilgan iqtisodiyotga asoslangan bo'lib sobiq Ittifoqning tarkibiy qismi hisoblanib, mustaqil milliy iqtisodiyot tizimiga ega emas edi. Milliy iqtisodiyot asosan markazlashtirilgan xalq xo'jaligi uchun lozim bo'lgan xomashyo yetishtirishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, unda qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta, pilla, meva, poliz mahsulotlari) yetishtirar, sanoat korxonalari esa to'liq siklli ishlab chiqarishga ega emas edi. Mamlakatdagi mavjud tabiiy boyliklar, boy mineral – xomashyo resurslari esa xomashyo sifatida olib ketilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov qayd qilib o'tganlaridek, «O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan «mamlakat»¹ – edi.

O'tgan asming 90-yillarida sobiq Ittifoq tarqab ketishi natijasida yagona iqtisodiy hududni parchalanishi aksariyat sanoat korxonalari faoliyatining to'xtab qolishi va ularni inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida tegishli huquqiy-me'yoriy asos, infratuzilmalar yaratildi. Ya'ni «1991-yil sentabridan buyon o'tgan qisqa davr mobaynida iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritib, mamlakatimiz hududidagi barcha tabiiy, mineral – xomashyo boyliklaridan mamlakatimizdagi butun iqtisodiy resurslar va quvvatlardan o'z xalqimiz va uning kelajagi manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik».²

Yangi energetika, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi, ko'plab yirik inshootlar, korxonalar, zavod va fabrikalar qurilganligi, yonilg'i va g'alla mustaqilligiga erishilganligi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari milliy mustaqil iqtisodiyotni mustahkamlash sari qilingan harakat natijalaridir.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston», 1999-y. 6-bet.


² Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. «O'zbekiston», 1999-y. 8-bet.

Iqtisodiyot tarmoqlarining sanoat asosida tashkil etish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda sanoatning avtomobilsozlik, neft va gaz-kimyoye, temiryo'l mashinasozligi kabi yangi tarmoqlarning yaratilishi natijasida mamlakatimizda barqaror makroiqtisodiy o'sish ta'minlanmoqda.


O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan yangi, mustaqil rivojlanayotgan, o'z xalqi, millati manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllanib, shunga mos ravishda real sektor tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda.

Ma'lumki, real sektorga moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar singari bo'ylik va xizmatlarning nomoddiy shakllarini ishlab chiqaruvchi sohalar kiradi. Shunga ko'ra real sektor iqtisodiyoti mamlakat miqyosida, uning alohida moddiy va nomoddiy shakllarini ishlab chiqaruvchi sektorlari va jahon xo'jaligi darajasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bir butun qilib birlashtirgan iqtisodiy tuzilmasidir.

Real sektorning tarkibiy tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.



2.1.1-chizma. Iqtisodiyotning real sektori ta'rifi



2.1.2-chizma. Iqtisodiyotni real sektorini prognozlash ta'rifi

Milliy iqtisodiyot real sektorining iqtisodiy o'lchamlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi. Albatta, bu ko'rsatkich-

larsiz prognozlash jarayonini olib borib bo'lmaydi. Barchaga ma'lumki, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar real sektor iqtisodiyotining holatini, faoliyat qilishi va uning natijalarini ifodalaydi. Lekin, oldindan bilish imkoniyatini yuzaga chiqarmaydi. Shunday bo'lsada mazkur ko'rsatkichlarning amalda to'g'ri hisoblanishi bevosita prognozlash jarayoni bosqichlarini tahlil qilishda, muammo yechimini topishda va istiqbolli qarorlar chiqarishda asqotadi.


Real sektor iqtisodiyoti me'yorida faoliyat qilishi va o'sishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro bog'liqligi hamda muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi. Real sektor iqtisodiyotida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi hamda shunga mos ravishda prognozlash olib borilib, kelajak yoki istiqbolli dasturlar tuziladi. Ko'pgina mikro ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho berilib va ular iqtisodiyotning real sektoridagi rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun real sektor iqtisodiyotining holati uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini va istiqbol dasturlarini belgilaydi. Bu tizimga kiruvchi turli xil ko'rsatkichlar, birinchidan, bizga ma'lum vaqt oralig'idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyot real sektorining faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, real sektordagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, YaMMni uning harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va pirovard natijalaridan foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

Butun real sektor iqtisodiyotining umumiy holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi milliy mahsulot (YaMM), ichki milliy mahsulot (IMM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD) kabilar hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

Shu sababli, real sektordagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni milliy



iqtisodiyot holatiga bog'liq ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar Bular mamlakatning iqtisodiy resurs salohiyatini, yerosti va yerusti boyliklari zaxiralari hamda tabiiy resurslari hajmini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

2. Milliy iqtisodiyot faoliyat qilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Bular bandlik, ishsizlik, inflatsiya, iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar darajasi, narxlar darajasi va uning o'zgarishi, savdo aylanmasi, to'lov balansi holati va boshqalar.

3. Milliy iqtisodiyot faoliyatining natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Ishlab chiqarishning yillik hajmi (YaMM va uning harakat shakllari).

4. Milliy iqtisodiyot natijalaridan foydalanish holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Bular YaIMda iste'mol va jamg'arma nisbati, ish haqi va boshqa omilli daromadlar darajasi, YaIMda investitsiyalar ulushi va boshqalar.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotni tahlil qilish va prognozlashda iqtisodiy modellardan ham foydalaniladi. Makroiqtisodiy modellar iqtisodiyot va unda ro'y beradigan real voqeylikning mantiqiy (nazariy), miqdoriy (matematik) va grafik o'lchamlarda abstrakt tasvirlanishidir.

Asosiy makroiqtisodiy modellar quyidagilar:

- ◇ doiraviy oqimlar (aylanishlar) modeli;
- ◇ yalpi talab va yalpi taklif (AD-AS) modeli;
- ◇ tovarlar miqdori va pul massasi (IS-NM) modeli;
- ◇ Fillips, Laffer egri chiziqlari.

2.2. Makroiqtisodiy prognoz – tahliliy ko'rsatkichlar tizimi

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va prognozlashga imkon beruvchi amaliy vositalar ichida statistik (ekonometrik) modellarga ajratiladi. Respublikamizda o'tgan o'n yilliklarda tahlil va modellashtirishning statistik uslublari sohasida jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganiga qaramay, to'liq rejalashtirilgan iqtisodiyotning balans metodi afzal ko'rilgan. Lekin, zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida ekonometrik modellarni qo'llash dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki tahlilda qo'llanuvchi vosita obyektiga – bozor iqtisodiyotiga to'g'ri keladi.

XX asrning 30-40-yillarda iqtisodiyotni tartibga solish, YaIM

darajasini oshirishga bo'lgan urinishlar bo'yicha ishlab chiqilgan makroiqtisodiy prognozlash modellari o'sha davrda o'z samarasini berdi. Ekonometrik tipdagi iqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlaridagi oqsoqlik holati va imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi model dastlab Ya.Tinbergen tomonidan 1936-yilda ishlab chiqilgan.¹ O'tgan yillar oralig'ida milliy iqtisodiyot sohasini prognozlash ko'pgina mutaxassislarning iqtisodiy tadqiqot faoliyatini kengaytira boshladi. 1970-yillarga kelib sanoati rivojlangan mamlakatlar prognozlash sohasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga turli nodavlat tashkilotlari ham faol qatnasha boshladi.

O'tgan asrning 70-yillarda Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya va boshqa bir qator davlatlarda indikatorlarning o'z milliy tizimlari shakllantirildi. Lekin, zamonaviy iqtisodiy tizimning baynalminallashuvi jarayoni har bir milliy iqtisodiyotning prognozini hisobga olish zaruriyatini kuchaytirdi va (70-yillarning boshida boshlangan) iqtisodiy indikatorlarning xalqaro tizimini (IIXT) yaratish bo'yicha maxsus tadqiqotlarni talab qildi.

IIXT qo'llashda 4 ta asosiy yo'nalish ajratiladi:

- chuqur xarakterga ega jahon iqtisodiy inqirozlarini prognozlash;
- ayrim alohida davlatlarda inqirozlar o'tishining xususiyatlarini hisobga olish;
- mamlakatlar orasida tovarlar oqimi matritsasini tuzish orqali jahon savdosini prognozlash;
- xalqaro tusga ega inflatsiyani prognozlash.

IIXT ishlab chiqishga asos qilib iqtisodiy indikatorlarning amerika tizimi olingan. IIXT usuli yetarli darajada barqaror rivojlanuvchi iqtisodiy sikllarni hamda «o'sish sikllari» deb ataluvchi iqtisodning tezlashgan va sekinlashgan tahlillar hamda prognozlarni amalga oshirishga moslashgan.

Ushbu usul yordamida ishlab chiqarish sur'ati keskin pasaymagan mamlakatlar (rivojlanayotgan davlatlar) va ishlab chiqarishning barqaror pasayishini boshdan kechirayotgan davlatlarda iqtisodiyot rivojini pronoshlash uchun qo'llash mumkin.

IIXT usuli jahon savdo jarayonini prognozlashda keng qo'llaniladi, chunki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti birinchi navbatda tashqi iqtisodiy savdo aloqalari bilan bog'liq. Mamlakatning eksport salohiyati

¹ Национальная экономика Учебник 3-е изд., перераб и доп / Под ред П В Савченко – М «ИНФРА-М», 2011 С 832 (Высшее образование)

mamlakat rivojini ta'minlaydi, milliy real sektorni barqaror ishlashini ta'minlab, ish o'rinlarini saqlash va ko'paytirish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida aholini daromadlarini oshirib, farovonligini ta'minlaydi.

Bunda A mamlakatdan B mamlakatga eksport – B mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunktura holatiga bog'liqligi uchun A mamlakatdan B mamlakatga eksport tendensiyalarini prognoz qiluvchi B mamlakat (importyor) ning ilgarilab ketuvchi (lider) iqtisodiy rivojlanish indikatorlaridan foydalaniladi. Ilmiy tadqiqotlar ushbu usulning samaradorligini isbotladi.

Shu bilan birga ushbu usulning chegaralanganligini ham ko'rsatish kerak. Bu usulda eksportning dinamikasi faqat bir omil – import qiluvchi mamlakatning iqtisodiy kon'yunkturasiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda valuta kurslarining harakati, ichki baholar va ikki mamlakat orasidagi savdoga ta'sir etuvchi boshqa omillar hisobga olinmaydi. XX asrning 70-yillaridan IIXTdan narxlar dinamikasini prognozlashda ham keng foydalanila boshlandi. Narx indekslarning tahlili ularning «o'sish sikllari» bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Odatda, o'sishning sur'atlari jadallashganda narxlar o'sishi tezlashadi va aksincha, o'sish sur'atlarining pasayishi narxlar darajasini pasayishiga olib keladi.

Iqtisodiy prognozlash usullarining barcha modellari zahirida o'tgan davrda milliy iqtisodiyotning real iqtisodiy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning matematik bog'lanishlari (mutanosib yoki nomutanosiblik; tenglik yoki notenglik) prinsipi yotadi. Real sektor iqtisodiyotini prognozlash jarayoni o'z obyektiv tavsifiga ko'ra omilli va tarkibiy prognozlash modellaridan tashkil topadi.

Prognozlashning omilli modelida asosan iqtisodiyotning real sektorini joriy yilda olingan pirovard natijasi qaysi omilga muvofiq pasaygan yoki oshganligi aniqlanadi. Albatta bunda joriy yil iqtisodiy ko'rsatkichlarining barcha parametrlariga muvofiq hisob-kitob qilinadi va tahlillar olib boriladi. Aynan izlangan va asosiy ta'sir kuchiga ega omil aniqlanadi.

Prognozlashning tarkibiy modelida esa real sektor tarmoqlari mutanosib rivojlanishi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning bog'lanish xususiyatlari, jarayonlari va faoliyati tahlil qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur modelda asosan real sektor tarmoqlarining hududiy jihatlarini, shart-sharoitlari ham tahlil qilinadi.

2.3. Real sektor makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining milliy hisoblar tizimi (MXT)da aks etishi

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida makroiqtisodiy prognozlash MXT nomini olgan statistik axborot asosida shakllangan milliy iqtisodiyotdagi o'zaro aloqalar sxemasiga tayanadi.

MXT balans uslubiga asoslangan va makrodarajada iqtisodiy faoliyat natijalarini, iqtisodiyotning tuzilmasini, mamlakatdagi mavjud resurslar va boshqalar ko'rsatkichlari yig'indisidan iborat milliy hisoblar majmuasidir.

MXT milliy iqtisodiyot unsur (pog'ona)lari faoliyat olib borishining mavqeyini ko'rsatuvchi balans jadvallar shaklida tuziladi.

Xo'jalik operatsiyasi bir xo'jalik yurituvchi subyekt boshqasiga moddiy boyliklar yoki moliyaviy boyliklar yoxud xizmatlarni sotishi yoki berishi, boshqasi esa ularni xarid qilishi yoki qabul qilishi jarayonidir.

Iqtisodiy operatsiyalar ikki tomonlama yozuv tamoyili asosida tuzilgan schotlarda qayd etiladi, shunga asosan har bir operatsiya 2 marta – «resurslar» va «ishlatilish» bo'limlarida aks ettiriladi. Har bir schot bo'yicha saldo chiqariladi, u – resurslar va ulardan foydalanish o'rtasidagi farq. Resurslar ortib qolganda saldo «Ishlatilish» bo'limiga, kamomadida «Resurslar» bo'limiga yozib qo'yiladi.

Ma'lumotlardan tahlil qilish va prognozlash maqsadida foydalanish uchun schotlar faoliyat turi va milliy iqtisodiyot sektorlari bo'yicha guruhlariga birlashadi. Shunday qilib, MXTni har bir iqtisodiy jarayonning turli tomonini va iqtisodiy jarayonning umumiy tasvirini ko'rsatuvchi o'zaro bog'liq schotlar tizimi sifatida ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonning MXTi ichki iqtisodiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun schotlarga ega. Prognozlash ko'rsatkichlari tizimi o'z ichiga ham andozaviy asosiy ma'lumotlar, ham tadqiqot maqsadlariga erishish uchun lozim bo'lgan milliy hisoblar tizimiga kirmaydigan noandozaviy ko'rsatkichlar ro'yxatini qamrab oladi.

Jahonda Xalqaro valuta fondi tomonidan tavsiya qilingan barcha mamlakatlar uchun iqtisodiyotni umumiy ko'rsatkichlar tizimi qabul qilinganiga qaramay har bir mamlakatda milliy ko'rsatkichlar tizimi mavjud. Bunda andozaviy va noandozaviy ko'rsatkichlar tizimida mamlakatlar orasida farq bor. Ko'rsatkichlar tizimi iqtisodiy shart-sharoitlarga qarab o'zgarishi mumkin. Bu milliy iqtisodiy tizimda yangi

muammolar kelib chiqishi, ayrimlarini esa dolzarbligi yo'qolishi bilan bog'liq.

Hozirgi kunda tahlilchilar va prognozchilarning asosiy e'tibori iqtisodiyotning real sektori va investitsion jarayonlar rivojlanishini baholash, iqtisodiyotning moliyaviy, mintaqaviy va ijtimoiy muammolarini yechishga qaratilgan.

Mavjud ko'rsatkichlar tizimi mukammal emas va ulardan prognoz – tahliliy hisoblarda foydalanishda esda tutish lozim. Chunki, prognozlash va rejalashtirish jarayonlarida yo'l qo'yilgan xatolar milliy iqtisodiyotni kelajak rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Buni MXTda markaziy o'rin egallagan ko'rsatkich – YaIMni hajmini aniqlash misolida tahlil qilamiz. YaIMni qo'shilgan qiymat uslubi bilan hisoblanganda mahsulot va xizmatlar barcha ishlab chiqaruvchilarning yalpi qo'shilgan qiymatlari yig'indisi sifatida hisoblanadi; daromadlar taqsimlanishi uslubi bilan hisoblanganda esa, barcha turdagi iqtisodiy faoliyatdagi hamma xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromdlari va amortizatsiya ajratmalari umumiy yig'indisi; yakuniy foydalanish uslubida – ne'matlar va xizmatlar, kapital qo'yilmalarning yakuniy iste'moli, moddiy aylanma mablag'larning o'sishi va tashqi iqtisodiy operatsiyalar saldosing yig'indisi sifatida hisoblanadi. Ushbu uslublarni barchasi to'liq takomillashgan emas va ko'rsatkichlar mosligi ta'minlanmaydi.

2.4. Makroiqtisodiy darajada real sektorni prognozlash modellari

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy prognozlarni tuzishda iqtisodiy – matematik modellar keng qo'llaniladi. Bularga bir va ko'p omilli iqtisodiy o'sish modellari, milliy daromadni (MD) taqsimlash modellari, tarkibiy tarmoq va asosiy fondlarni qayta tiklash modellari, investitsion oqim xarajati modeli, turmush darajasi va iste'mol tarkibi modellari, kengayib borayotgan eko- siyosat modeli, ish haqi va daromdlarni taqsimlash modellari kiradi.

Xalq xo'jaligi balansini prognozlashni mukammallashtirishning muhim yo'nalishi iqtisodiy o'sishning asosiy parametrlarini prognozlashni verifikatsion-statistik yondashish asosida dinamik vaqt qatori ma'lumotlaridan maksimal foydalanishga asoslangan holda ularning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan mosligini va baholanayotgan sharoitlar holatini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy

prognozlashning makroiqtisodiy modellar tizimida ushbu usuldan foydalanish xalq xo'jaligining balanslashtirilganligi, tarkibiy va omilli jihatlari o'rganish va ularning optimallik prinsipi asosida sintezlash bilan bog'liq.

Xalq xo'jaligi balanslashtirilgan omili jihatidan mahsulotni chiqaruvchi obyekt hamda ishlab chiqarish omillari xarajatlari (asosiy fondlar va mehnat resurslari) orasidagi bog'liqlikka asoslanadi. U ishlab chiqarish omillari orasida ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlab turuvchi tenglikni aniqlashga borib taqaladi.

Balanslashtirilganlik (vaqt oralig'ida) jihati ishlab chiqarish omillari sarflarini vaqt bo'yicha taqsimlash va ular o'zaro bog'liqligida erishiladigan samaraga asoslanadi. Asosiy vaqt oralig'i xususiyatlari asosiy fondlarni qayta tiklash bilan bog'liq. Vaqt oralig'ida balanslashishga erishish uslubi xarajatlar va ular keltiradigan samaraning kechikib kelishini hisobga oladigan tenglamalardan foydalanishga asoslangan hamda asosiy fondlarni, takror ishlab chiqarish jarayonini aniqlovchi vaqt oralig'iga bog'liq ko'rsatkichlarning o'sish suratini hisobga olish bilan bog'liq. Ushbu usul asosiy fondlarning qayta ishlab chiqarish jarayonini, vaqt oralig'i xususiyatlarini ifodalovchi, narx indekslarini, kapital qo'yilmalar va asosiy fondlarning tushish va chiqib ketish manbalari va miqdorini hisoblash va kechikish usullari bilan farqlanuvchi modellar guruhini tuzish imkonini beradi.

Balanslashtirilganlikning tarkibiy jihatidan ijtimoiy qayta ishlab chiqarishni birinchi va ikkinchi bo'limlari orasidagi proportsiyalar hamda tarmoqlararo tarkibiy modellar ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish qo'yilmalari va mehnat resurslarining tarmoq strukturasini prognozlash tizimidan keng foydalaniladi.

III BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINI PROGNOZLASH XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI


3.1. Real sektor iqtisodiyotini prognozlash usullari va uning turkumlanishi

Real sektor iqtisodiyoti va uni iqtisodiy prognozlashning fan sifatida rivojlanishida uning usuli katta rol o'ynaydi. Usul – bu, o'rganish yo'l-lari va uslublarini tanlash hamda shu tarmoqdagi haqiqat ko'rinishlarini umumiy lashtirishdir. Iqtisodiy prognozlashning usuli izlanayotgan obyektlarga qarashli, o'rganilayotgan omil va ko'rinishlar asosiga kelajakdagi natijalarni ko'rish mumkin bo'lgan dialektik usuldir. U umumiy ilmiy usullar va izlanishiga yondashuv hamda iqtisodiy ko'rinishlarni ilmiy prognozlashga asoslangan o'ziga xos usullar asosida amalga oshiriladi.

Umumiy yondashuvlardan quyidagilarni ajratish mumkin (3.1.1-chizma):

- ◇ tarixiy yondashuv;
- ◇ kompleks yondashuv;
- ◇ tizimli yondashuv;
- ◇ tuzilmaviy yondashuv;
- ◇ tizimli-tarkibiy yondashuv.

Tarixiy yondashuv – har bir hodisaning tarixiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqishdan iborat. O'tmish hozirgi kun va kelajakning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadi, kelajak hozirgidek mavjuddir. Shuning uchun prognozlash hozirda mavjud bo'lgan qonun va tendensiyalarni undan tashqariga o'tkazadi va uning asosida kelajakning mavjud bo'lmagan modelini ishlab chiqish bilan bog'liq. Bir xil ko'rinishdagi har xil tarixiy shakllarning mavjudligi orasidagi bog'liqlik izlanayotgan obyektning hozirgi ko'rinishi uning oldingi rivojlanish natijasi ekanligini bildiradi. Bunday yondashuv mantiqiy izlanish ijtimoiy rivojlanish tarixiy xarakterining aksi hisoblanadi.



3.1.1-chizma. Iqtisodiy prognozlash usullarining yondashuv turlari

Kompleks yondashuv – hodisalar va ularning bog'liqligi va qaramligini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Buning uchun shu hodisalarni o'rganuvchi nafaqat bu fan, balki boshqa fanlarning ham usullaridan foydalaniladi. Ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarning kelajakdagi rivojlanishi haqidagi ilmiy tasavvurlarni ishlab chiqishning nazariy asosi siyosiy iqtisod hisoblanadi.

Iqtisodiy prognozlashning amaliyoti va nazariyasida boshqa ijtimoiy fanlarning ilmiy apparati keng qo'llaniladi.

Tizimli yondashuv murakkab iqtisodiy tizimlardagi hajmli va sifatli bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar o'tishini o'rganishni nazarda tutadi. Ular iqtisodiy prognozlashda katta rol o'ynaydi. Hodisaning har bir ko'rinishi tizim sifatida olinishi mumkin. Bu degani ular o'zaro bog'liq qator funksiyalar, afzalliklarni ta'minlovchi bir-biri bilan bog'liq qismlardan iborat. Bu afzallik va funksiyalarni bilgan holda o'rganilayotgan obyektning harakatini oldindan bilish mumkin.

Tizimli yondashuv tizimning umumiy maqsadini aniqlashdan va

hamma sistemalar osti faoliyatini maqsadga erishishdan chetlashtiruvchi har bir yechimning ishlab chiqilishi va asoslanishiga asoslanuvchi siyosiy fikrlash ko'rinishini anglatadi. Bunda berilgan tizim boshqa bir katta tizimning bir qismi sifatida qaraladi, uning rivojlanish maqsadi bu tizimning rivojlanish maqsadlari bilan bog'lanadi.

Tuzilmaviy yondashuv – prognozlash obyektlarida izlanish katta rol o'ynaydi. Tuzilmaviy yondashuvda izlanish obyekti o'zi tarkibidagi elementlar va ularning o'zaro harakatida ko'rib chiqiladi. Bu esa o'rganilayotgan obyekt haqidagi tasavvurni kengaytirishga imkon beradi.

Tizimli – **tarkibiy** yondashuvi bir tomondan, tizimni dinamik rivojlanayotgan bir butunlik sifatida qarashni ko'zda tutsa, ikkinchi tomondan, tizimning o'zaro harakatdagi tuzilmaviy elementlarga bo'linishidir, chunki haqiqatda har bir tarkibiy element boshqa hamma elementlarga qanday ta'sir etsa, butun tizimga ham shunday ta'sir etadi. Bu bilan tizim elementlari aloqasining qonuniyligini ochish imkoni paydo bo'ladi.

3.2. Tarmoqlararo dinamik balans modeli

Tarmoqlararo balans (TAB) – iqtisodiyotdagi asosiy model bo'lib, unda xalq xo'jaligidagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko'rsatiladi. U sanoat, kapital qo'yilmalar, mehnat resurslari va tarmoqlar bo'yicha mahsulot hajmining o'zaro bog'langanligini hisobga olgan holda reja davri qator yillari uchun xalq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilish va taqsimlanish ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Yaqin-yaqingacha TAB ikki ko'rinishda – qiymat va natural shaklda shakllantiriladi. Mamlakat bo'yicha qiymat ko'rinishidagi TAB nomenklaturasi 120 ta tarmoq nomenklaturasini o'z ichiga oladi va u barcha moddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab oladi. Natural ko'rinishdagi TAB shu bilan birga mahsulotlarni 80 %ni tashkil etuvchi asosiy mahsulotlarni qamrab oladi. Ushbu balansda 600 ga yaqin zaruriy mahsulot turlari aks ettiriladi.

Natural – qiymat balansi modeli xalq xo'jaligining kompleks tavsifini aks ettiradi. Moddiy qiymat TAB modeli balanslashtirilgan reja uchun boshlang'ich ma'lumotlar: MD hajmi, tarkibi ko'rsatkichlari, eksport, import va kapital ta'mirlash hajmi ma'lumotlaridir.

TAB modeli bo'yicha ikki tipdagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

Bunda berilgan yakuniy iste'mol darajasi bo'yicha mahsulotlarni

ishlab chiqarish va taqsimlanishining balanslashtirilgan rejasi hisoblab topiladi.

Aralash hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Bunda ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi to'g'risidaga ma'lumotlar va boshqa tarmoqlarga yakuniy iste'molga berilgan mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish va taqsimlash balansi tuziladi.

3.3. Prognozlashning ekspert usullari

Prognoz – ekspert obyekti perspektiv taraqqiyotiga qaraganda mutaxassislarning individual fikrlashini namoyon qiladi hamda mutaxassis tajribasi mobilizatsiya va intuitsiyaga asoslangan. Ekspert baholash usuli obyektlar va muammolarni tahlil qilishda, ularning taraqqiyoti to'liq yoki qisman matematik shakllantirishga to'g'ri kelmaydigan, ya'ni adekvang (o'xshash, to'g'rilangan) modelni ishlab chiqish qiyin bo'lgan hollarda ishlatiladi. Prognozlashda qo'llaniladigan ekspert baholash usuli individual va kollektivga bo'linadi.

Individual ekspert usuli, sohalari bir-biriga bog'lanmagan ekspert mutaxassis fikrlaridan foydalanishga asoslangan. Ko'pincha prognozni shakllantirishda quyidagi ikki usul qo'llaniladi:

1. Intervyu.
2. Analitik-ekspert baholash.

Intervyu usuli – prognoz qiluvchining ekspert bilan bo'ladigan suhbatini taxmin qiladi. Shundan kelib chiqqan holda suhbat davomida prognoz qiluvchi oldindan ishlab chiqilgan dasturlar asosida ekspert oldiga obyektning perspektiv taraqqiyotiga nisbatan savollar qo'yadi. Bunday baholashning muvaffaqiyati muhim darajada intervyu olinayotgan ekspert mahoratiga, uning eng fundamental savollarga tez va turli – tuman xulosalar berishiga bog'liq.

Analitik-ekspert – baholash tahlil qilishga intilish ustidan uzoq va sinchiklab mustaqil ishlashni, prognozlanayotgan obyektning taraqqiyot yo'li va holatini baholashni taxmin qiladi. Bu usul ekspertga prognozlanayotgan obyekt bo'yicha lozim bo'lgan barcha axborotlardan foydalanish imkonini beradi. Ekspert o'zining fikrlarini himoya qog'ozi ko'rinishida tayyorlaydi.

Ko'rilayotgan usullarning asosiy yutug'i ekspertning individual mahorati hamda alohida ishchiga ko'rsatilgan, e'tiborga olinmagan psixologik ta'sirni maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Lekin bu usullar bir ekspert – mutaxassis bilimi bir qancha fan sohalari bo'yicha cheklanganligi tufayli ko'pincha umumiy strategiyani prognozlashda kam qo'llaniladi.

Ko'p hollarda umumiy strategiyani prognozlashda prognozlanayotgan obyektning perspektiv taraqqiyoti haqida, ekspertlarning jamoaviy fikrlarini aniqlash prinsipiga asoslangan jamoaviy-ekspert baholash usulidan foydalanish mumkin.

Bu usullarni qo'llash asosida ekspertning o'rganayotgan muammoni muhimligi va ahamiyatligini yetarli darajada baholash gepotezasi, ma'lum bir yo'nalishdagi perspektiv taraqqiyoti, u yoki bu voqeaning yuzaga kelishi, prognoz obykti taraqqiyotida maqsadli ma'lum bir muqobil yo'lni tanlash gepotezasi yotadi.

Hozirgi vaqtda maxsus hay'at a'zolarining ishlashiga asoslangan ekspert usullari keng tarqalgan bo'lib, ekspert guruhleri «dumaloq stol atrofida» u yoki bu muammoni hal qilishda bir qarorga kelish maqsadida munozara qilib, bir fikrga kelishadi.

Haqiqatdan ham ekspert jamoasi yordami bilan prognozlashni shakllantirishda asosiy masalalar quyidagilardir:

- malakali ekspert guruhlarini shakllantirish;
- ekspertizalarni tayyorlash va o'tkazish;
- olingan hujjatlar asosida statistik hisoblashlar o'tkazish.

Anketalarda saqlangan, ko'p sonli qiymatlar ko'rinishida berilgan, ekspert baholash natijasini statistik baholash va ularning ishonchlilik chegaralari, ekspertlar fikrlari kelishuvini statistik baholash aniqlanadi.

Prognozlanayotgan kattaliklarning o'rtacha ahamiyati quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$B = \sum_{i=1}^n B_i / n$$

Bu yerda: B_i – tarafidan berilgan prognozlanayotgan kattalikning ahamiyati,

n – guruhdagi ekspertlar soni.

Bundan tashqari, dispersiyani ham aniqlash mumkin:

$$D = \sum (B_i - B)^2 / (n - 1)$$

(Dispersiya, bu variant (B_i)dan o'rtacha arifmetik (V) ayirmasining o'rtacha kvadrati).

Bundan soʻngra J ishonchlilik intervalining yaqinlik ahamiyati hisoblanadi.

$$J = \sqrt{\frac{D}{n-1}}$$

Bu yerda: t – parametr, yaʼni student jadvalidan berilgan ishonchlilik ehtimoli darajasi va ozodlik darajasi soni orqali aniqlanadi. Soʻngra prognozlanayotgan kattalikning ahamiyatliligi uchun ishonchlilik intervali hisoblanadi.

3.4. Matematik modellashtirish usullari

U yoki bu hodisani taʼriflovchi modellashtirish eng koʻp tarqalgan usul hisoblanadi. Kelajakdagi hodisani prognozlashda yaxshi natija beradigan usul modellashtirishdir.

Birinci marotaba prognozlash maqsadida model tuzish iqtisodiyotda qoʻllanilgan Iqtisodiy izlanishda qoʻllaniladigan matematik apparat iqtisodiy matematik modellashtirish deb ataladi. Model izlanish subyekti tomonidan shunday tuzilishi kerakki, bunda operatsiyalar izlanilayotgan obyekt haqidagi maʼlumotni aks ettiradigan boʻladi (maʼlumotlar oʻzaro bogʻliqlik, tuzilmaviy va vazifasiga koʻra parametrlari). Shuning uchun modelni tasvirlash va modelning obyektga mosligi masalasi ayrim aniq maqsadlarda yechiladi.

Modelni tuzish obyektini oldindan oʻrganish asosida olib boriladi. Unga mos tavsif berish, tajribaviy va nazariy modelni tuzatish modellashtirish usulining tarkibi hisoblanadi.

Prognozlashga muvofiq ravishda izlanilayotgan obyektini modellashtirish usulida jiddiy qiyinchiliklar uchraydi va u oʻziga katta ahamiyat berishni talab etadi.

Modellashtirishni qoʻllanishidagi qiyinchiliklar prognozlash obyekti tuzilmasini qiyinlashtiradi. Shuning uchun koʻpchilik hollarda bitta model emas, balki modellar va usullar tizimini qoʻllash kerak.

Bunda har bir ish aniqlik va ketma-ketlik bilan amalga oshiriladi.

Prognozlash modellari tizimi deganda usullar va modellar yigʻindisi tushunilishi kerak. Bular obyektning kelajakdagi holati va rivoji, prognozning kelajakdagi va hozirgi tendensiyasi va qonuniyatlarni oʻrganish asosida kelishilgan va ziddiyatsizlik imkoniyatini beradi. Bunda, tizimda prognoz yigʻindisi model ketma-ketligi asosida tuziladi.

Prognozlash modelini tuzishning 3 ta bosqichi mavjud.

Birinchi bosqichda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan alohida model va modelning kichik tizimlari tuziladi va prognozlash maqsadida o‘zaro xarakterini ta’minlovchi yagona tuzilmalar holiga keltiriladi.

Ikkinchi bosqichda o‘zaro bog‘liqlikdagi prognozlash modeli tizimi tuziladi, ularning o‘zaro bog‘liqligi tekshiriladi

Uchinchi bosqichda prognozlash modeli tizimini tuzishdagi o‘ziga xos alohida tizimlar aniqlanadi va rivojlantiriladi. Prognozlar yig‘indisini tuzish maqsadida ularni qo‘llash usuli izlanadi.

IV BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTIDA ISHLAB CHIQUARISH SALOHİYATIDAN FOYDALANISH VA UNI PROGNOZLASH

4.1. Real sektorda ishlab chiqarish jarayoni va uni prognozlash

Real sektorda ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilarning iste'moli uchun zarur bo'lgan iqtisodiy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatidir. Iqtisodiy ne'matlar yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish jarayoni kishilar faoliyatining asosiy tomoni, chunki bu jarayonda kishilar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar boshqa hamma sohalarida – ayirboshlash, taqsimot va iste'mol sohalarida ro'y beradigan munosabatlarning xususiyatlarini va yo'nalishini belgilab beradi.

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko'rinishini o'zining iste'moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan faoliyatdan iboratdir. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan hamda bir-birlari bilan o'zaro ma'lum munosabatda bo'ladilar. Ishlab chiqarish jarayonida bo'ladigan bu munosabatlarning xarakterini, shakllarini va xususiyatlarini o'rganish va ularni bilgan holda ishlab chiqarishni ongli tashkil etish oliy maqsadga, ya'ni cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanilgan holda kishilarning o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishishning birdan-bir yo'lidir. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning ichki qonuniyatlari va uning rivojlanish xususiyatlari ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan ko'rsatib berilgan. Ular mehnat kishilar yashashining umumiy asosidir deb ta'riflaydilar. Demak, mehnat iste'mol qiymatlarini yaratuvchi sifatida, foydali mehnat sifatida kishilarning yashashi uchun hech qanday ijtimoiy shakllarga bog'liq bo'lmagan holda abadiy tabiiy zaruriyatdir. Mehnat bo'lmaganda kishi bilan tabiat o'rtasida modda almashinuvi ham mumkin bo'lmas edi.

Kishilar o'zlarining ongli maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan

tabiat moddalarining shakllarini o'zgartiradilar va iste'moli uchun zarur bo'lgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasida moddalar almashinuvi bilan birga insonning o'zi ham har tomonlama kamol topib boradi, ya'ni kishilar o'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qo'llashni kengaytirib boradi.

Shunday qilib, mehnat jarayoni iste'mol qiymatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir. tabiat yaratgan narsalarni kishi iste'moli uchun o'zlashtirib olishdir, kishi bilan tabiat o'rtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, kishi hayotining abadiy tabiiy sharoitidir.

Ishlab chiqarish jarayoni insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlariga, hamma mamlakatlarga, el-yurtlarga va xalqlarga xos bo'lib, umuminsoniy kategoriyadir (tushunchadir).

Shuning uchun bu jarayon uzoq tarixga ega bo'lib, oddiy tosh va yog'och qurollardan foydalanib, eng sodda ovchilik va dehqonchilik qilishdan tortib, to hozirgi zamon murakkab texnologiyasiga asoslangan robotsozlik, samolyotsozlik, kompyuter texnikalarini, zamonaviy radio va televideniye vositalarini ishlab chiqarishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan.

Ishlab chiqarishning eng yirik sohalari sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, qurilish, savdo, tayyorlov idoralari, moddiy-texnika ta'minot, kommunal va uy-joy xo'jaliklari, turli xil xizmat ko'rsatish sohalari va boshqalardan iborat. Har bir mamlakat o'z taraqqiyotining shu davrdagi bosqichi uchun zarur va qulay bo'lgan tarmoqlar tarkibini vujudga keltirishga harakat qiladi. Bunda resurslar cheklanganligi hisobga olinib ishlab chiqarishni o'stirish va xalqning talabini qondirish uchun o'ta zarur bo'lgan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga, chet ellar bilan bo'ladigan hamkorlikni yuksaltirishga imkon beradigan tarmoqlarga alohida e'tibor beriladi.

Turli mulk shakllarining teng huquqliligi qaror topayotgan hozirgi o'tish davrida aholiga turli xizmatlar ko'rsatish miqdori ham o'smoqda. O'zbekiston YaIMda xizmatlarning ulushi 2001-yilda 38.0 foizni tashkil qilib, uning 8,8 foizi transport va aloqaga, 9,6 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga, 19,6 foizi boshqa xizmatlar ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa 2012-yil yakunida mazkur ulush 54,2 foizni tashkil qilgan. Bu esa Respublikamiz hukumatining keyingi yillarda aholining turmush sharoitini yaxshilash uchun olib borayotgan kompleks tadbirlari indivi-

dual mehnat faoliyati, kooperatsiya, ijara pudrati, yer, mulk, tadbirkorlik, soliqlar to'g'risidagi qonunlar natijasidir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat faoliyatining muhim tomoni bo'lgan uy xo'jaligi imkoniyatlaridan foydalanish kasanachilik, hunarmandchilik, nonvoylik, uy bog'cha va yasilari ochish, repetitorlik, qo'shimcha dars o'tish ichki imkoniyatlardan foydalanishning munosib yo'llaridan biri hisoblanadi, chunki bu usul qo'shimcha binolar qurilishini talab qilmaydi va mablag'ni tejashga imkon beradi va shu bilan birga xizmatlar turini va miqdorini ko'paytiradi.

Ma'lumki, bizda ish vaqtining anchagina qismi uy-ro'zg'or ishlariga to'g'ri kelmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, mamlakat aholisi uy-ro'zg'or ishlariga yiliga sarflagan vaqt ijtimoiy ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqtiga qaraganda ko'proq ekan. Buning ustiga uy-ro'zg'or ishlari talaygina quvvatni talab qiladi. Ushbu va shunga o'xshash boshqa misollar maishiy xizmatlar ko'rsatish sohaslarini yanada rivojlantirish, uy-ro'zg'or ishlarini mexanizatsiyalash imkonini beradigan mashina va asbob-uskunalarni ko'plab ishlab chiqarishni talab etadi. Ehtiyojlar turi qancha ko'p bo'lsa shunga binoan ishlab chiqarishning tarmoq va sohalari ham kengayib boradi. Ularni o'rganish oson bo'lishi uchun ishlab chiqarish ikki katta sohaga: ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslariga bo'linadi.

Ishlab chiqarish sohasida zaruriy moddiy ne'matlar yaratiladi, xizmat sohaslarida esa turli xil ma'naviy boyliklar yaratiladi va xizmatlar ko'rsatiladi. Bu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Respublika milliy iqtisodiyotida tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarining YaIMdagi mutlaq miqdori va nisbiy ulushi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarishning cheklangan resurslardan foydalangan holda kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilishi va shunga zarur bo'lgan sifat va miqdorda iste'mol qiymati yaratishni bosh maqsad qilib qo'yishi uning ijtimoiy yo'nalishini ifoda etadi. Lekin bu umumiy ijtimoiy yo'nalish aniq kishilarning, tadbirkorlarning manfaati bilan bog'langandagina amalga oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoki unga o'tish davrida har bir mulk egasi yoki tadbirkor ma'lum miqdorda foyda olishni, sarflangan vositalariga, pul mablag'lariga nisbatan ko'proq qiymatga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yadi.

**Respublika YalMda tovarlar va xizmatlar ulushi (joriy bozor
narxlarida % hisobida)***

Ko'rsatkichlar / yillar	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2009	2010	2012
Yalpi ichki mahsulot	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati, ko'rsatilgan xizmatlar qiymati	50,1	49,8	49,1	48,6	50,6	51,3	49,8	45,4	43,2	38,7
	38,0	38,5	37,2	37,4	38,4	39,5	42,7	45,3	47,6	54,2

* Manba: Отчет статкомитета Республики Узбекистан за 2001-2012гг. Тошкент-2001-2012гг.

Shuning uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni bir tomondan, nafililikni vujudga keltirish, ikkinchi tomondan, qiymatning o'sish jarayoni hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonining bu ikki tomonini quyidagicha ifoda etishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish jarayoni ikki tomonlama tahlil qilib o'rganilganda uni to'g'ri tushunish mumkin bo'ladi. Bu yerda shuni hisobga olish lozimki, oldingi ishlab chiqarish jarayonidan chiqqan ishlab chiqarish vositalari qiymati ko'paymagan holda o'zi qancha bo'lsa, shu miqdorda aniq mehnat bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatiga o'tkaziladi. Bu ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan ayrim tabiiy kuchlar qiymatga ega emas, shuning uchun ular nafililikni hosil qilishda omil sifatida qatnashsa ham, lekin qiymatning tashkil topishida qatnashmaydi. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonlama tabiati uning natijalarining ham ikki tomoni borligini ko'rsatadi.

4.2. Real sektorda ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi

Har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning amalga oshishi, eng avvalo uning ro'y berishi uchun bu jarayonda qatnashadigan omillar mavjud bo'lmog'i lozim. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat'iy

nazar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning hamma sohaları uchun umumiy bo'lgan uchta omil: yer, ishchi kuchi, kapital (mehnat qurollari va mehnat predmetlari) bo'lishi shart.

Ishchi kuchi deb, insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o'zi emas yoki uning mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir.

Kapital inson tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish vositalari bo'lib, mehnat vositalari va predmetlarini o'z ichiga oladi.

Mehnat vositalari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalarga aytiladi (mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalar). Mehnat predmetlari esa bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir (yer-suv, xomashyo va boshqa turli materiallar). Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda uchrashi mumkin yoki oldingi davrdagi mehnat mahsuloti, ya'ni xomashyo bo'lishi mumkin. Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi. Bu esa mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiqadi; shuning uchun ham ishlab chiqarish vositalari hamma ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, insoniyat jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir.

Mehnat vositalarini mehnat predmetlariga ta'sir etish xususiyatiga ko'ra, bir nechta katta guruhlariga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga mashinalar, mexanizmlar, stanoklar, uskunalar va boshqalardan iborat mehnat qurollarini kiritish mumkin. Ularning yordamida ishchi tabiiy ashyolar va kuchlarga bevosita ta'sir qiladi va mehnat jarayonida bu ashyolarni iste'mol uchun zarur bo'lgan shaklga keltiradi.

Ikkinchi guruhga materiallarni saqlash uchun mo'ljallangan mehnat vositalari tsisternalar, turli xil bochkalar, quvurlar, omborlar va boshqalar kiritiladi.

Uchinchi guruhga ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan mehnat vositalari kiradi. Lekin bu vositalarsiz ishlab chiqarish jarayonini to'la va samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Bularga binolar, turli infratuzilmalar, yo'llar va boshqalar misol bo'la oladi.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti davrida ishlab chiqarishning rivojlanishida mehnat predmetlarining ahamiyati oshib bormoqda. Materiallarning tabiatda uchramaydigan yangi turlari yaratilmoqda. Ishlab chiqarish omillari insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari

uchun umumiy bo'lsada, bu omillarga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berishadi va ularni turlicha tushuntirishadi

Jumladan, «Siyosiy iqtisod» darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari mavjudligi tan olinadi. Bunda mehnat qurollari va mehnat predmetlari (yer-suv, yerosti boyliklari kabi tabiiy boyliklar ham) ishlab chiqarish vositalari deyiladi va ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi, ishchi kuchi esa uning shaxsiy omili deb yuritiladi. Hozirgi bozor iqtisodiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi

Bu yerda ishchi kuchi bilan mehnat o'rtasidagi farqni anglab olish juda muhimdir. Bizga ma'lumki, mehnat turli omillarning harakat jarayonidir. Ishchi kuchi, yuqorida aytganimizdek, insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyati, uning bilim, malaka darajasi bilan birgalikda ishlab chiqarishda qatnashishiga tayyor turgan omil bo'lib xizmat qiladi. Mehnat esa ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining qo'shilishi natijasida sodir bo'ladigan va ma'lum samara olishga qaratilgan faoliyatdir.

Shuning uchun mehnat emas, balki ishchi kuchi ishlab chiqarishning omilidir va ishlab chiqarish omillari ishchi kuchi, kapital, yer-suv va tadbirkorlik qobiliyati va informatsion ta'minotdan iboratdir.

Ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi sotiladi, uning bozori faoliyat yuritadi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o'miga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o'miga ishchi kuchi resurslari deyilsa to'g'ri bo'lar edi. Ishchi kuchi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchdir. Chunki u hamma moddiy vositalarni va pul mablag'larini harakatga keltiradi va ulardan unumli foydalanadi.

Kapital tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o'z-o'zidan ko'payuvchi, o'suvchi qiymat deb hisoblaydi. Hozirgi davrdagi ayrim g'arb iqtisodchilari ham, masalan, Dj. Klark, L. Valras, I. Fisherlar kapitalni daromad, foyda va foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar.

G'arbiy iqtisodiy adabiyotlarda («Economics») ishlab chiqarish va

xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalar hamma turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va boshqa shu kabilardan iborat deb ko'rsatiladi, unga pul va tovarlar kiritilmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tizimning sotsial mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama qarab, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni kuchaytirgan. G'arb iqtisodiy adabiyotlarida kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olgan bo'lsa, boshqalarida esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiyiligini e'tibordan chetda qoldirib, uning moddiy obyektini, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko'rsatadilar. Shuning uchun ular kapitalni doimiy, o'zgarmas tushuncha deb, ishlab chiqarish vositalarini kapital deb ataydilar. «Kapital» tushunchasiga har xil yondashuvlar, bu bir tomondan uning moddiy va ashyoviy ko'rinishi, ikkinchi tomondan esa uning qiymat ko'rinishi e'tiborga olingaligidir. Umumiy ma'noda kapital tushunchasi o'z egalriga daromad keltiradigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma sohalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'larini, ularning ashyoviy tomoni va qiymatining birligini anglatadi.

Bu yerda kapital turli shaklda: pul, ishlab chiqarish vositalari, tovar va boshqa moddiy vositalar shaklida bo'lishi mumkin

Iqtisodiy resurs sifatida jismoniy kapital deyilganda inson tomonidan vujudga keleirilgan barcha ishlab chiqarish vositalari tushiniladi.

Hamma adabiyotlarda yerga deyarli bir xil tushuncha beriladi, unga yer-suv, o'tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o'rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar kiritiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida o'ziga xos omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir.

Tadbirkor deb, iqtisodiy resurslar: ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi va tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan tashkilotchi, yangilikka intiluvchi tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavf-xatardan qo'rqmaydigan kishilarga aytiladi. Bu xislatlar esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi. Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Ishlab chiqarish jarayonida biz yuqorida sanab o'tgan omillarning hammasi qatnashadi, ular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi. Ulardan biri bo'lmasa ishlab chiqarish bo'lmaydi yoki

samarasiz bo'ladi, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ikki yoki bir nechta ishlab chiqarish omillarining bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelgan mahsulot (tovar yoki xizmat) hajmining o'zgarishi ishlab chiqarish funksiyasi deyiladi. Ishlab chiqarishning omillari doimo bir xil bo'lib turmaydi, ular sifat va miqdor jihatdan o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalari rivojlanib, borgan sari murakkab mashinalar, asbob-uskunalar, stanoklar vujudga keladi. Shuningdek ishchi kuchi ham ongi, malakasi oshgan, yangi mashinalarni yaratadigan, ulardan unumli foydalanadigan bo'lib boradi.

Ishlab chiqarish omillari bir-biriga bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'ladi, birining o'zgarishi ikkinchisiga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro ta'sir usuli texnologiyada o'z ifodasini topadi. Kishilar buyumlarning ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlarini anglab, tovar va xizmatlarning yangi turlarini tayyorlash sirlarini bilib oladilar, ilg'or texnologiyani qo'llaydilar, yangi materiallardan, energiya turlaridan foydalanadilar. Ishlab chiqarish omillarining va texnologiyaning o'zgarishi ishlab chiqarishni tashkil etishning mazmuni va shaklining o'zgarishiga, uning takomillashuviga sabab bo'ladi.

4.3. Real sektorda ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari

Har bir korxona yoki ishlab chiqarish bo'g'inida turli omillarning birgalikda ishlatilishi natijasida mahsulot, ya'ni tovar va xizmatlar vujudga keladi. Yuzaki qaraganda har bir korxonadagi individual ishlab chiqarish bir-biridan ajralgan holda mustaqilga o'xshab ko'rinadi. Ammo xilma-xil tovarlar va resurslarning uzluksiz oqimida individual mablag'larning harakatlari bir-biri bilan qo'shib, chatishib ketadi. Chunki ayrim olingan individual ishlab chiqaruvchilarning faoliyati va ayrim mablag'lar, mahsulotlarning harakati o'zaro bog'langandir. Shu sababli, individual mehnatlarning harakati qo'shib ketishi, butun ijtimoiy ishlab chiqarishning, jami yaratilgan tovar va xizmatlarning harakatini bildiradi. Demak, ijtimoiy ishlab chiqarish o'zaro bog'langan va aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning yig'indisidir. Har bir individual ishlab chiqarish, uning sarmoyasi va resurslari esa ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas bir bo'lagidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni turli omillarning harakati natijasida juda ko'p turdagi tovarlar va xizmatlar massasidan iborat bo'lgan milliy mahsulot vujudga keladi.

Yalpi milliy mahsulot – bu ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib etadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati. Milliy mahsulot moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari yillik faoliyatining umumiy natijasi hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot ham xuddi shu mazmunda tushuniladi.

Yalpi ichki milliy mahsulot bilan yalpi ichki mahsulotning farqi shundaki, yalpi milliy mahsulotga mamlakat ichidagi va boshqa mamlakatlardagi milliy ishlab chiqaruvchilar vujudga keltirgan mahsulotlar qiymati kiritiladi va norezidentlar tomonidan mamlakatda yaratilgan qiymatlar olinib tashlanadi.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar (boshqa mamlakatlar korxonalari, qo'shma korxonalarda yaratilgan hamma tovar va xizmatlar qo'shilib) hisobga olinadi. Hozirgi paytda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi hisobga olinmoqda.

Moddiy buyumlarning ishlatilishi, ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste'mol vositasi bo'lib xizmat qilishga muvofiq milliy mahsulot o'zining natural buyumlashgan shakli bo'yicha ikki qismdan: ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlaridan tashkil topadi. Keyingisi o'z navbatida iste'mol buyumlaridan va aholiga ko'rsatilgan turli xizmatlardan iborat bo'ladi.

Hozirgi davrdagi bozor iqtisodiyotiga doir adabiyotlarda ishlab chiqarish omillari bilan uning natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ishlab chiqarish funksiyasi deb atashadi. Masalan, ishlab chiqarish omillari yer /E/, kapital /K/ va ishchi kuchi /I/dan iborat deb faraz qilsak, olingan mahsulotni /M/ dan iborat deb olsak, ishlab chiqarish funksiyasi $M = F / E \cdot K \cdot I$ ko'rinishni oladi.

Bu formula ishlab chiqarishga jalb qilingan omillarining, ya'ni sarflarning har birligi evaziga olingan mahsulotni bildiradi va e'tiborni kam resurs sarflab, ko'proq mahsulot olish imkoniyatini qidirishga qaratadi. Undan tashqari, bu ko'rsatkich har bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga va ko'paytirishga mo'ljallangan mahsulot hajmini ishlab chiqarishga qancha resurs sarfi talab qilinishini aniqlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan turli xil omillar sarfini birdaniga yoki ularning ayrim turlarini ko'paytirish yo'li bilan mahsulot hajmini oshirish mumkin. Lekin boshqa omillar va sharoitlar teng

bo'lgani holda ayrim omillar sarfini oshirish yo'li bilan mahsulotni cheksiz ko'paytirib bo'lmaydi. Masalan, firma yoki korxonada ishlab chiqarish binolari, mashina, stanok va boshqa asbob-uskunalar soni va sifati o'zgarmagan holda ishchilar sonini va xomashyoni ko'paytirish yo'li bilan mahsulotni ma'lum miqdorda oshirib borish mumkin. Bunda bino va asbob-uskunalaridan foydalanish darajasi oshiriladi, ya'ni ular to'xtovsiz ishlatiladi, ilgari bir smenada ishlayotgan bo'lsa, endi ikki yoki uch smenada ishlatishga erishiladi. Ammo ma'lum darajaga borganidan keyin qo'shimcha jalb qilingan ishchi kuchi yoki xomashyolar samarasi kamayadi. Ikkinchidan, ishlab turgan ishchilar soni o'zgarmagan holda ularni yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, ya'ni har bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital miqdorini oshirish hisobiga ham mahsulotni ko'paytirishga erishish mumkin. Lekin bu jaryon ham cheksiz emas. Bunda omillardan foydalanish va ularning miqdorini oshirish evaziga olingan mahsulotni uch xil o'lchamda aniqlash mumkin: umumiy mahsulot, o'rtacha mahsulot va qo'shilgan mahsulot.

Umumiy mahsulot jalb qilingan asosiy kapital, ishchi kuchi, xomashyo va materiallardan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmidir.

O'rtacha mahsulot esa jalb qilingan har bir ishchi kuchi yoki kapitalning bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulotga aytiladi. Bu esa umumiy mahsulot miqdorini umumiy omil (ishchi kuchi yoki kapital) miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. $O'M = M/I$ (yoki K).

Qo'shilgan mahsulot deb eng so'nggi qo'shilgan omil kapital yoki ishchi kuchi evaziga olingan mahsulotga aytiladi.

Masalan, o'tgan yili 100 nafar ishchi kuchi yordamida 100 ming so'mlik mahsulot olingan bo'lsa, bu yil 120 ishchi kuchi ishlab 130 ming so'mma mahsulot olinsa, 20 nafar qo'shilgan ishchi, 30 ming so'm esa qo'shilgan mahsulot bo'ladi.

Bu oxirgi qo'shilgan mahsulot (o'sgan) miqdorini so'nggi qo'shilgan (o'sgan) ishchi kuchi yoki kapital miqdoriga bo'lish yo'li bilan qo'shilgan omil, ya'ni qo'shilgan kapital yoki qo'shilgan ishchi kuchi unumdorligi aniqlanadi.

Ya'ni, $QM = \Delta M / \Delta K$ yoki $QM = \Delta M / \Delta I$

Har bir qo'shilgan omil evaziga olingan qo'shilgan mahsulot esa qo'shilgan omil unumdorligi deb aytiladi.

G'arb iqtisodiy adabiyotlarida qo'shilgan mahsulotni aniqlash uchun hamma omillar olinmaydi, balki alohida olingan bir omil olib

ko'rsatiladi. Masalan, boshqa sharoitlar teng bo'lganda, xomashyo yoki ishchi kuchining o'sganligi nazarga olinib, uning evaziga olingan, ya'ni qo'shilgan mahsulot aniqlanadi.

Yuqorida aytganimizdek, alohida olingan omil evaziga qo'shilgan mahsulot ma'lum darajaga borgandan keyin kamaya boshlaydi. Bu kamayish ayniqsa uning har birligi evaziga qo'shilgan mahsulotda aniq seziladi. Mana shu qo'shilgan omil unumdorligining pasayishiga qarab, marjinalistlarning vakillari unumdorlikning kamayib borish qonuni degan qonunni kashf qilishgan.

Ularning g'oyasi bo'yicha har bir keyingi qilingan xarajat yoki omil oldingisiga qaraganda kam samara beradi va oqibatda umumiy o'rtacha mahsulot ham pasayib ketadi.

Bu qonunni ular iqtisodiyotning universal qonuni deb e'lon qiladilar va uni isbotlash uchun ko'pdan – ko'p yer bir birligiga (gektarga) sarflangan qo'shimcha kapital unumdorligining pasayib borishini ko'rsatadilar.

Shunday qilib, keyingi jalb qilingan omil yoki xarajat unumdorligining pasayib borish qonuni quyidagicha to'rt holatda amal qilishi mumkin:

- ishlab chiqarishning boshqa omillari o'zgarmay faqat bir omil to'xtovsiz oshirilganda;
- fan-texnika taraqqiy etmaganda yoki ishlab chiqarishga jalb qilinmaganda;
- omillar o'rtasidagi miqdoriy va sifatiy nisbatlar buzilganda;
- shart-sharoitni hisobga olmasdan xarajatlar ko'r-ko'rona amalga oshirilganda.

4.4. Real sektor ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi har doim iqtisodiyot nazariyasi fanining dolzarb muammosi sifatida, uning diqqat markazida bo'lib keladi. Ayniqsa hozirgi paytda bu masala yanada keskin qo'yilmoqda. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan turib mamlakatimiz oldida turgan muhim masala mustaqil iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi. Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi.

Lekin, turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida shu jamiyatning maqsadidan kelib chiqib, samaradorlik muammosining tub mohiyati o'zgaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli har bir iqtisodiy subyekt ko'proq foyda olishga intiladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishning samaradorligini olingan foydaning (F) ishlab chiqarishga sarflangan resurs xarajatlariga nisbati bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$R^1 = \frac{F}{MS + UX} \times 100\%.$$

Bu yerda, R^1 – foyda normasi, MS – moddiy sarflar, UX – ish haqining miqdori.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p qirrali masala bo'lib, bu aytilgan birgina asosiy ko'rsatkichda, uni to'la ravishda har tomonlama ifodalab bo'lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligini to'liq ifodalashda, unda qatnashgan omillarning unumdorligini, ulardan samarali foydalanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Bulardan biri mehnat unumdorligidir. Mehnat unumdorligi deb ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi va ishlab chiqarilgan mahsulotning /iste'mol qiymatining/ sarflangan mehnat miqdoriga nisbati bilan belgilanadi. Sarflangan mehnat miqdori esa ishlangan vaqt bilan, kishi kuni, kishi soati va h.k. bilan belgilanadi. Agar mehnat unumdorligini MU, mahsulotni M bilan, sarflangan ish vaqtini esa – V bilan belgilasak, mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$MU = M/V.$$

Mehnati unumdorligi sarflangan jonli mehnatning har bir birligi evaziga, ya'ni kishi kuni, kishi soati hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi.

Samaradorlikni aniqlashda kapital unumdorligi degan ko'rsatkichdan ham foydalaniladi va unda ishlab chiqarishda qatnashgan kapitalning har bir birligi evaziga olingan mahsulot, daromad yoki foyda bilan aniqlanadi. Agar kapital unumdorligini – KU deb, ishlab chiqarishda qatnashgan kapital miqdorini – K, mahsulotni – M, yalpi daromadni – YaD bilan, foydani – F bilan belgilasak quyidagi formulalar hosil bo'ladi:

$$KU = M/K ;$$

$$KU = YaD/K ;$$

$$KU = F/K ;$$

Ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri yer hisoblanishi sababli yerdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi ham aniqlanadi. Bu ko'rsatkich olingan mahsulot hajmining yer maydoniga (gektarga) nisbati bilan hisoblanadi.

Samaradorlikni aniqlashda bu ko'rsatkichlardan tashqari mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, energiya sig'imi degan ko'rsatkichlar ham qo'llanilib, ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir birligini yaratish uchun ketgan yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat, energiya va moddiy ashyolar miqdorini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkichlarning har biri ishlab chiqarishda qatnashgan turli omillar samaradorligini ifodalab, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun unga ta'sir qiladigan omillarni ham bilish zarurdir. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bir qancha omillar ta'sir qiladi:

- Fan-texnik taraqqiyotini tezlashtirish va uning natijalarini tezlik bilan ishlab chiqarishda qo'llash.

- Ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash.

- Iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini va uning tashkiliy bo'g'inlarini o'zgartirish.

- Ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va ularning faolligini oshirish.

- Mavjud tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanish, yangi, arzon, sifatli xomashyo va energiya turlarini, ekinlarning yangi hosildor navlarini, chorva mollarining mahsuldor zotlarini topib ishlab chiqarishga joriy qilish.

- Kishilarning bilim saviyasini, malakasini oshirish, yetuk ishchi va mutaxassislar tayyorlash.

Ushbu omillar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ta'sir qiladigan asosiy va butun iqtisodiyotning barcha sohaları uchun umumiy omillardir. Bulardan tashqari, aniq olingan xo'jaliklarda, tarmoqlarda va hududlarda samaradorlikni oshirishning shu joyning sharoitlari xususiyatidan kelib chiqadigan qanchadan-qancha omillari borki, ularni topib ishga solish va foydalanish samaradorlikni keskin oshirishning keng imkoniyatlari hisoblanadi. Biz bu yerda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hamma omillari to'g'risida batafsil to'xtala olmaymiz. Lekin uning muhim va hozirgi kunda respublikamiz uchun

dolzarb omillaridan biri bo'lgan fan-texnika taraqqiyoti to'g'risida qisqacha to'xtalamiz.

Fan-texnika taraqqiyoti fan sohasidagi ishlab chiqarish qurollari, texnologiya, boshqarish va boshqa ko'pgina o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi davrda fan-texnika tez sur'atlar bilan taraqqiy etmoqda va u ilgari texnika taraqqiyotiga qaraganda birmuncha afzalliklarga egadir.

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining afzalligi shundaki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan-texnika yutuqlari tezkor ishlab chiqarishga joriy qilinadi, binobarin fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanib boradi.

Hozirgi davrdagi ishlab chiqarishning texnik bazasini mustahkamlash elektronika, radioelektronika, telemexanika, atom energiyasi, kimyo va boshqa fanlarning erishgan yutuqlari bilan bevosita bog'liqdir.

Fan va texnikaning erishgan yutuqlari ishlab chiqarishning taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi uchun cheksiz imkoniyatlar ochib beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston fan-texnika taraqqiyotiga katta e'tibor berib, uni keskin jadallashtirishni, texnikaning eng yuqori unumdor va samaradorlikni ta'minlovchi yangi turkumlarini, prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarni keng joriy etish vazifasini qo'yimoqda. Fan taraqqiyotining natijasi va uning ishlab chiqarish bilan yaqinlashishining muhim belgisi takomillashgan, chidamli va unumli mehnat qurollari va predmetlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarishga joriy qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarishga yangi unumli mehnat qurollari va sifatli mehnat predmetlari qancha ko'p kirib kelsa jonli mehnat shuncha ko'p mehnat vositalarini harakatga keltiradi va ko'p iste'mol qiymati yaratadi. Davlatning investitsiya siyosati resurslarni fan-texnika taraqqiyotining ilg'or sohalarini bo'lgan aviatsiya, mashinasozlik sanoatini, informatika, elektronika, atom energetikasi, ishlab chiqarish sohalarini kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, yangi materiallarni yaratish va bularga ishlov berish texnologiyasi singari muhim yo'nalishlariga jalb qilishga qaratilgandir. Shuning uchun ham fan-texnika taraqqiyotining evolutsion va revolyutsion shakllarini farqlamoq lozim. Fan-texnika taraqqiyotining evolutsion shaklda rivojlanishi deganda, uning mavjud texnologiyasi asosida, mashinalar va uskunalarning qisman modernizatsiyalash asosida rivojlanishi tushuniladi.

Revolutsion shaklda rivojlanishi deganda esa texnikaning eng so'nggi avlodlarini qo'llash, prinsipial yangi texnologik tizimga o'tish

tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining keyingi shaklda rivojlanishi yuksak samara beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov o'zining asarlarida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini hozirgi zamon fan va texnikasining eng yangi yutuqlari bilan qayta qurollantirish lozimligini ta'kidlamogda. Buning uchun avvalambor texnika taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarishning hamma sohalarini yangi, unumdor, arzon texnika bilan qurollantiruvchi mashinasozlikni rivojlantirishga e'tiborni qaratmoq lozimdir.

4.5. Real sektorda ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini prognozlashning bosqichlari va ko'rsatkichlari

Ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini prognozlash jarayoni o'z ichiga bir nechta bosqichlarni oladi.

Birinci bosqich prognozlash tirilayotgan davrgacha shakllangan struktura tahlili, tuzilmaviy deformatsiyalar, ularning kelib chiqish sabablari, iqtisodiyotga bunday deformatsiyalarning ta'sirini, struktura dinamikasida ijobiy tendensiyalarni aniqlashni ko'zda tutadi.

Ikkinchi bosqichda tuzilmaviy o'zgarishlar yo'nalishlari, tuzilmaviy deformatsiyalarni yo'qotish imkoniyatlari aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda har bir proportsiyaga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi aniqlanadi, ularning har biri alohida va hammasining umumiy holda proportsiya xususiyatiga ta'sir etishi hisoblanadi. Shu asosda prognozlash tirilayotgan davrdagi har bir struktura holati haqida xulosa chiqarish mumkin.

To'rtinchi bosqichda tuzilmaviy prognoz ko'rsatkichlarining zarur bo'lgan korrektirovkasi amalga oshiriladi.

Prognozlash jarayonida ko'rsatkichlarning muvofiqlashgan tizimidan foydalaniladi: **xususi, kompleksli va nisbiy.**

Xususi ko'rsatkichlar alohida proportsiyalar va ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasi siljishlarining rivojlanishini aks ettiradi. Bu ko'rsatkichlar xususi prognozlar tuzishning natijasi hisoblanadi.

Kompleksli ko'rsatkichlar ishlab chiqarish tuzilmasi tarkibi rivojlanishining o'rtacha xarakteristikasini aniqlash imkonini beradi (masalan, alohida tarmoqlar, ishlab chiqarishlar, hududlarning rivojlanish ko'rsatkichlari).

Nisbiy ko'rsatkichlar ijtimoiy ishlab chiqarishning umumiy holdagi templari, siljishlari, tuzilmaviy rivojlanish samaradorligini xarakterlaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasi rivojlanishini prognozlash jara-yonida prognozlarning ko'p variantli ishlab chiqilishi amalga oshiriladi.

Prognozlash ijtimoiy ishlab chiqarishning samarali tuzilmasi, propo-portsiyalari va dinamikalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Ijtimoiy ishlab chiqarish dinamikasi va tuzilmasi ishlab chiqarish resurslarini maqsadga muvofiq tashkil etish orqali shakllantiriladi, shu jumladan, investitsiyalar, asosiy ishlab chiqarish fondlari, moddiy va mehnat resurslari.

Tuzilmaviy prognozlarni ishlab chiqish turli usullardan foydala-nishni ko'zda tutadi: modellashtirish, iqtisodiy-matematik, ekstrapol-yatsiya, ekspert baholash, balans.

Bunday usullarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasi rivojlanishining elementlari va omillarini hisobga olishdan tashkil topadi.

Qisqa muddatli va o'rta muddatli tuzilmaviy prognozlar iqtisodiy-matematik, ekstrapolyatsiya va modellashtirish usullaridan foydalangan holda ishlab chiqiladi. Uzoq muddatli tuzilmaviy prognozlar uchun ekspert baholash samaraliroq hisoblanadi.

4.6. Tejamkorlikka erishishning istiqbol dasturlarini tuzishda prognozlashning o'rni

O'zbekistonda milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini va iqtisodiy faoliyati samaradorligini ta'minlash, iqtisodiy resurslar unumdorligini oshirish va tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan me'yorlarga erishish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borish, barcha turdagi resurslardan unumli foydalanish- boshqacha aytganda qat'iy tejamkorlik tizimini joriy qilishni taqozo etadi.

Bugungi iqtisodiy resurslar taqchil sharoitda xo'jalikni samarali yuritishning muhim omillaridan biri tejamkorlikdir. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atda ta'minlash uchun ishlab chiqarishning moddiy-texnikaviy negizlarini modernizatsiyalash, ya'ni resurs tejovchi texnologiyalarni jalb qilish, mehnat resurslarining samarali bandligini ta'minlash kabi dolzarb muammolarning yechimi ham ko'p jihatdan tejamkorlik tamoyillariga amal qilishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, respublikamiz katta resurs salohiyatiga ega bo'lib, o'tish davrining dastlabki yillarida xomashyo va tabiiy resurslar eksporti

iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo'nalishi bo'lib keldi. Bu esa ko'plab resurslarning chetga chiqib ketishiga sabab bo'lish bilan birga iqtisodiyotimizning jahon bozori kon'yunkturaviy o'zgarishlariga bog'liqligini kuchaytirib yubordi.

Bu borada respublikamiz prezidenti I.A Karimov ta'kidlaganidek, «Biz, birinchi galda, tabiatning bebaho ne'mati – xalqimizning boyligi bo'lmish ekin ekiladigan yerdan, sug'orish va ichimlik suvidan, yoqilg'i-energetika, mineral-xomashyo va boshqa resurslardan to'g'ri, asrab-avaylab va tejamkorlik bilan foydalanishimiz lozim».¹

Yuqorida ta'kidlanganidek, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida yerga egalik qilish va undan foydalanish shuningdek, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning yangi shakli sifatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanurish, ishlab chiqaruvchilar manfaatini rag'batlantirish kabi masalalarga to'liq javob berish tejamkorlik muammosini nazariy va amaliy jihatdan chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Tejamkorlik keng qamrovli tushuncha bo'lib uning nafaqat nazariy balki amaliy va uslubiy jihatlari chuqur o'rganilmagan. Keyingi davrlarda faqat resurslar muhofazasiga, ulardan samarali foydalanishga yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Lekin ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan konsepsiyaning mavjud emasligi bu muammoning samarali hal etilmay qolishiga sabab bo'lmoqda.

Tejamkorlik bozor munosabatlariga ham xos unsur hisoblanib, ularning mamlakatimiz iqtisodiyotida keng taraqqiy etishi bilan o'zidan o'zi rivojlanib boradi. Biroq tejamkorlik rivojlanishining bunday yo'li uzoq vaqt, davrni taqozo etadi. Resurslarning cheklanganligi, ularning tobora kamayib borayotganligi keskin muammoga aylangan hozirgi sharoitda esa bu qadar uzoq kutib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, fikrimizcha, xo'jalik faoliyati ishtirokchilari – ishchi-xodimlar, fermerlar, korxonalar rahbarlari, mahalliy hokimiyat, idora va vazirliklar, boshqaruv organlari mutasaddilarida tejamkorlik hissini tarbiyalash, uni samarali xo'jalik yuritish omili sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun iqtisodiyotning turli darajalarida tejamkorlik bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqib, ularning yagona mexanizm ko'rinishida ishlashini ta'minlash zarurdir.

Tejamkorlikni ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmni yaratish va

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak – Toshkent O'zbekiston, 2002 T 10 – B 212-213

amalga oshirish uchun iqtisodiyotning turli darajalarida bajarilishi lozim bo'lgan aniq chora-tadbirlar tizimini ko'rib chiqamiz.

Tejamkorlik, eng avvalo, har bir jamiyat a'zosi – shaxsning hayot tarzida o'z ifodasini topishi lozim. Qolaversa, ishlab chiqarishda mazkur omilni shakllantirish va rivojlantirish qishloq xo'jaligi korxonalari – fermer va dehqon xo'jaliklari, agrofimlar va boshqalarda ta'minlanishi lozim. Bu borada eng muhim tadbirlar qatorida xo'jalik a'zolarida tejamkorlik xislatlarini rag'batlantirib borish, xo'jalik a'zolarining resurslardan tejamli foydalanishidan moddiy manfaatdorligini, aks holda, moddiy javobgarligini oshirish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, tejamkorlik tamoyillari korxonalarning boshqa xo'jalik subyektlari – ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, tayyorlov korxonalari va boshqalar bilan aloqalarida ham o'z ifodasini topishi lozim. Buning uchun shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishda tejamkorlikni rag'batlantiruvchi jihatlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Vazirlar Mahkamasining fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi turli qarorlarida tasdiqlangan qishloq xo'jaligi korxonalari, shu jumladan, fermer xo'jaliklari faoliyatida zarur bo'ladigan barcha turdagi shartnomalarning namunaviy shakllari shu nuqtayi nazardan yanada takomillashtirilishi lozim. Bunda fermer xo'jaligi tomonidan mahsulotlarni qayta ishlash yoki sotish uchun xarid qiluvchi korxona (tashkilot yoki shaxs)larga ularning kelishilgan muddatlar va narxlarda yetkazib berilishini ko'zda tutuvchi kontraktatsiya shartnomalarida mahsulotlarni yetkazib berish muddatlarini tabaqalashtirish va muddatdan oldin yetkazib berilgan mahsulotlarga tabaqalashtirilgan ustama haqlari to'lanishini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan shartnomalarda ham tegishli o'rinlarda tejamkorlikni rag'batlantiruvchi bandlarni kiritish lozim.

Zamonaviy texnologik liniyalar ta'minoti bilan shug'ullanuvchi firma yoki lizing kompaniyalari ham bir vaqtning o'zida barcha asbob-uskunalarni o'z qo'llari ostida ushlab turishga qodir emaslar. Shunga ko'ra, tejamli xorijiy texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini tashkil etish, uni turli axborot vositalari (masalan, matbuot, radio, televideniye, internet tarmog'i, maxsus nashr va b.) orqali xo'jalik rahbarlari diqqatiga yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash lozimki, tejamkorlik tamoyillari, uning nazariy va uslubiy asoslarining ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi ko'p jihatdan mazkur muammoga ilmiy yondashuvni taqozo etadi. Bozor munosabatlari o'tish davri sharoitida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish masalalari e'tibordan chetda qolmoqda. Ayniqsa, shirkat va boshqa xo'jaliklarning fermer va dehqon xo'jaliklariga aylantirilishi natijasida bu muammo yanada keskinlashmoqda. Bu muammoni hal etish uchun fermer xo'jaliklari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga e'tiborni ko'proq qaratish zarurligi kelib chiqadi.

Shunga ko'ra, bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim:

- turli ko'rinishdagi iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish hamda ularga amal qilish bo'yicha nazoratni kuchaytirish;

- xo'jalik subyektlari, ayniqsa, dehqon va fermer xo'jaligi rahbarlari uchun ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqish;

- korxonalar faoliyatini tejamkorlik nuqtayi nazaridan baholovchi ko'rsatkichlar tizimini yaratish va u bo'yicha xo'jaliklar reytingini aniqlab borish,

- tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari rahbarlari tender tanloviga tejamkorlik mezonlarini kiritish va hisobga olish;

- faoliyat yuritishdagi sarf-xarajatlarning minimal darajasini ta'minlovchi xo'jaliklarning optimal miqyoslarini aniqlash, ular asosida namunaviy tajriba xo'jaliklarini tashkil etish va boshqalar.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va uning joylardagi idoralari yer tuzish va uning nazoratini amalga oshiruvchi tegishli xizmatlar, suv xo'jaliklari, Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari bilan birgalikda qishloq xo'jaligidagi yer va suv resurslaridan tejamli foydalanish borasidagi qator chora-tadbirlarni yo'lga qo'yishlari lozim.

Xususan:

- qishloq xo'jaligidagi haqiqiy yer egalari – fermer va dehqon xo'jaligi boshliqlarini ular foydalanayotgan yer maydonining tabiiy-iqtisodiy xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'liq ta'minlash;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi yaroqsiz, holati yomon yerlarni o'zlashtirish, ularni xo'jalik oborotiga kiritib borish;

- yer maydonlaridan isrofgarchilik bilan foydalanish hisobiga yo'qotishlarning oldini olish;

- fermer xo'jaliklariga davlat buyurtmasi asosida yetishtiriladigan

mahsulotlar uchun shartnomaviy reja belgilashda yerlarning ahvoli, ularning bonitet ballari to'liq hisobga olinishini ta'minlash:

- Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari tomonidan suvdan tejamli foydalangan xo'jaliklarni rag'batlantirish,


- davlat buyurtmasi asosida yetishtiriladigan mahsulotlar uchun zarur bo'ladigan suv miqdorining aniq hisobini olib borish, shu asosda takroriy ekin ekish uchun ruxsat berish va boshqalar.

Tejamkorlikni muhim va ta'sirchan omil sifatida shakllantirishda milliy iqtisodiyot darajasidagi iqtisodiy va moliyaviy dastaklarning ishlab chiqilishi va yo'lga qo'yilishi ahamiyatlidir.

Bulardan biri – xo'jalik faoliyatida tejamkorlik natijasida olingan qo'shimcha daromadni soliqqa tortmaslikdir. Bugungi kunda mamlakatimizda yerdan foydalanuvchilar yagona yer solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar. Shunga qaramay, tabiiy va iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanish natijasida hosil qilingan qo'shimcha daromadni aniqlash va unga tegishli soliq miqdorini soliqqa tortish bazasidan chiqarib yuborish amaliyotining kiritilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarda tejamkorlikka nisbatan ta'sirchan rag'bat hosil qiladi. Buning uchun esa Davlat soliq qo'mitasi hamda boshqa vazirlik va idoralar tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish lozim bo'ladi.

Tejamkorlikni kuchaytirish korxonalar faoliyatini tashkil etishga oid barcha me'yoriy hujjatlarda yer va boshqa iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning aniq belgilab berilishini taqozo etadi.

Shuningdek, ishlab chiqarishdagi tejamkorlik darajasi ko'p jihatdan narx siyosatiga ham bog'liq. Shunga ko'ra, Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariluvchi mahsulotlarning xarid narxlarini belgilashda tejamkorlikni rag'batlantiruvchi asoslarni ishlab chiqishi va qo'llashi juda katta samara keltiradi.



4.6.1-chizma. Tejamkorlikni ta'minlash va yanada kuchaytirish bo'yicha yagona dasturni shakllantirish mexanizmi¹

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Tejamkorlik omilini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha turli darajalarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar¹

Umumiy iqtisodiyot	Tarmoq	Mahalliy hokimiyat	Korxona
- ishlab chiqarishda tejamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yagona umumiy iqtisodiy dasturni shakllantirish, - tejamkorlik natijasida olingan qo'shimcha daromad bo'yicha soliq imtiyozlari berish, - korxonalar faoliyatini tashkil etishga oid barcha me'yoriy hujjatlarda iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni aniq belgilab berish. - davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariluvchi mahsulotlarga xand narxlarini belgilashda tejamkorlikni rag'batlantiruvchi asoslash ishlab chiqish va qo'llash. - tejamkorlik borasida erishilgan natijalarni keng ommaga tanishtirib borish	- iqtisodiy resurslardan foydalanishning ilmiy asoslangan me'yorlarini ishlab chiqish; - shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishda tejamkorlikni rag'batlantiruvchi jihatlarini kuchaytirish. - moliya-hisob markazlarining ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, hisob va iqtisodiy tahlilni kundalik vazifa qilib belgilash, ular tomonidan tejamkorlik darajasining doimiy monitoringini o'rnatish, - ilg'or xo'jaliklarning tejamkorlik bo'yicha ish tajribalarini targ'ib etish va keng foydalanish, - ishlab chiqarishdagi yaroqsiz, holati yomon yerlarni o'zlashtirish, ularni xo'jalik oborotiga kiritib borish, - ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, - korxonalar faoliyatini tejamkorlik nuqtayi nazaridan baholovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va u bo'yicha xo'jaliklar reytingini aniqlab borish, - fermer xo'jaliklari rahbarlari tanloviga tejamkorlik mezonlarini kiritish va hisobga olish, - sarf-xarajatlarning minimal darajasini ta'minlovchi xo'jaliklarning optimal miqyoslarini aniqlash, ular asosida namunaviy tajriba xo'jaliklarini tashkil etish, - yer maydonlaridan isrofgarchilik bilan foydalanish hisobiga yo'qotishlarning oldini olish	- MTPlarning sog'lom raqobat asosida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash. - fermerlarda tejamkorlik ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan o'quv kurslari tashkil etish; - fermer xo'jaliklari o'rtasida tejamkorlik bo'yicha ko'rik-tanlovlari o'tkazish. - tejamkorlik borasida ilg'or fermer xo'jaliklarida o'quv-amaliy mashg'ulotlar tashkil etish. - rivojlangan xorijiy mamlakatlar fermer xo'jaliklaridagi tejamli ish yuritish sirlarini o'rganish bo'yicha xalqaro malaka oshirish, xizmat safarlarini yo'lga qo'yish	- xo'jalik a'zolarida tejamkorlik xislatlarini rag'batlantirib borish. - xo'jalik a'zolarining resurslardan tejamli foydalanishdan moddiy manfaat dorligini, aks holda, moddiy javobgarligini oshirish

¹ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan

Shunga ko'ra, fikrimizcha, ishlab chiqarishda tejamkorlikni ta'minlash va yanada kuchaytirish borasida yagona dastur ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir

Bulardan tashqari, tejamkorlik borasidagi erishilgan yutuq va ijobiy natijalarni keng ommaga tanishtirib borish, bu boradagi targ'ibot-tashviqot ishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tejamkor xo'jaliklarning ish tajribasini ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot va h.k.)da yoritib borish, ular tajribasidan foydalanish imkonini beruvchi tavsiya va ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan maxsus nashrlarning tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur omilni keng ko'lamda rivojlantirish faqat bir tarmoq, ya'ni qishloq xo'jaligi doirasidagina emas, balki umumiy iqtisodiy doirada – tutash tarmoqlar, xizmat ko'rsatish sohalari, moliya-kredit muassasalari, qonun chiqaruvchi idoralar va boshqa soha va bo'g'inlarda ham tegishli tadbirlarning amalga oshirilishi orqali ta'minlanadi.

V BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING TARKIBIY TUZILISHI

5.1. Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishining mazmun-mohiyati

Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining asosini tashkil etadi. Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarida iqtisodiy vaziyatni aniq tasavvur qilish, uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini hisobga olish muhim iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega.

Real sektor iqtisodiyoti tarkibi – bu milliy iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar ko'rsatuvchi turli tarmoq va sohalar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro aloqada va bog'liqlikda iqtisodiy faoliyatda bo'lal-dilar. Real sektor iqtisodiyoti ichki va tashqi bozorga ne'matlar ishlab chiqaruvchi, zamon va bozor talabidagi o'zgarishlarga nisbatan moslanuvchan iqtisodiy subyektlar faoliyati yig'indisidan iboratdir.

Ayni paytda iqtisodiyot sektorlarining investitsion jozibadorligi ko'plab omillarga bog'liq va u alohida xususiyatga ega. Iqtisodiyot sektorida yuzaga kelgan vaziyatni baholash birinchi galda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolarni, nomutanosibliklarni aniqlaydi. Tarmoq tuzilishidagi nomutanosibliklar iqtisodiy o'sishga, aholi turmush darajasini yuksaltirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablardan biri bo'ladi.

Shu sababli ham iqtisodiy islohotlarning dastlabki davridan boshlab O'zbekiston iqtisodiy mustaqilligining eng muhim sharti sifatida iqtisodiyot tarmoq tuzilishini tubdan o'zgartirish yo'li tanlab olindi, chunki bu zarurat edi va buning uchun respublikamiz yetarli moddiy, ilmiy-texnikaviy va insoniy salohiyatga ega edi.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish – bu milliy manfaatlarni ta'minlovchi, iqtisodiy o'sishga yo'l beruvchi va nihoyat, aholi farovonligini muttasil oshib borishini ta'minlovchi yangicha ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishdir. Chunki tarkibiy tuzilishda chuqur

o'zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini va aholi farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishning eng asosiy shartlaridan biridir.

Tarkibiy o'zgartirishlar uzluksiz yuz beradi, ularni rag'batlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi. Hozirgi davr yangi texnologiya asri sifatida yangi tarkibiy o'zgartirishlarni yuzaga keltiradi. Shu bois tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash islohotlarni chuqurlashtirishning muhim jihati deb baholash zarur.

Islohotlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashi zarur. Ammo, buning uchun butun iqtisod tayanchi bo'lgan o'zak tarmoqlarni qo'llab-quvvatlab, ularning inqiroziga yo'l bermaslik o'zbek modelining muhim talabidir. Islohotlarni chuqurlashtirish o'zak tarmoqlarni barqaror o'sishini ta'minlashni anglatadi. Iqtisodiyotning real sektorini yangilash tarmoqlarning yangi pog'onaga ko'tarishga va mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishiga katta hissa qo'shadi.

Iqtisodni isloh qilishning «o'zbek modeli» milliy iqtisodiyotga xos xususiyatlarni har tomonlama hisobga olishga asoslanadi. Ulardan biri sarmoyalarni jalb etish yo'li bilan iqtisodiyotning real sektoriga madad berishdir.

Iqtisodiyot tarkibini isloh etish – bu milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun eng zarur bo'lgan resurslarni yetkazib beruvchi tarmoqlar majmuyidir. Ularga neft, neft mahsulotlari va boshqa energiya resurslari, tabiiy gaz, ko'mir ishlab chiqaruvchi sohalar, tog'-metallurgiya kompleksi, kimyo, mashinasozlik, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari kiradi.

Iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish butun milliy iqtisodiyotga xizmat qiladi va texnik taraqqiyotni ta'minlaydi. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish davlatning ko'magida rivoj topadi. Chunki, bu tarmoqlarni yirik sarmoyalar hisobidagina rivojlantirish mumkin. Shuning uchun yirik tarmoqlarga investitsiyalarni davlat yo'naltiradi va shu boisdan tarmoqlar boshqalarga nisbatan jadal o'sib boradi. Muhim tomoni shundaki, iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartidir.

Iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish boshqa sohalarning ham o'sishiga olib keladi. Masalan, neft mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi neft-gaz sohasining rivojlanishi bilan birgalikda, kimyo sanoati tarmoqlarining ham rivojlanishiga zamin yaratiladi. Bu nafaqat energiya manbalarini

eksport qilish imkonini beradi, balki turli kimyoviy xomashyo moddalari va tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirishga imkon yaratadi.

Iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish mamlakat eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Tarmoqlar rivojida yangi davr boshlanadiki, bu soha korxonalari ham bozor mexanizmi asosida rivojlanadi. o'z-o'zini moliyalashtirish qoidasi amal qiladi, chunki iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'liga aytilgan tarmoqlar ham tortiladi.

Real sektordagi iqtisodiy vaziyatni baholash integrallashgan hisob-kitoblar asosida quyidagi 3ta yo'nalishni qamrab oladi:

- 1- rivojlanish istiqbollari;
- 2- faoliyat samaradorligi;
- 3- investitsion xatarlar.

Mazkur elementlarning har biri alohida indikatorlarni guruhlash yordamida tartibga solingan yaxlit ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi.

1. Rivojlanish istiqbollari quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

- *sektorning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni.* Ushbu ko'rsatkich asosini mamlakatda amalga

oshirilayotgan tarkibiy siyosatni hisobga olgan holda sektorning YaIMdagi joriy va kelajakdagi

ulushi va asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining respublika bo'yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining jami balans qiymatidagi ulushi tashkil etadi;

- *sektorning iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga chidamliligi.* Mazkur ko'rsatkich darajasi tarmoq ishlab chiqarish hajmining YaIMdagi o'sish sur'atlari dinamikasi, ishlab chiqarilgan va sotilgan

mahsulotlar dinamikasi asosida aniqlanadi;

- *sektorning ijtimoiy ahamiyati.* Mamlakatdagi jami ish bilan band bo'lgan aholiga nisbatan

tarmoqda band bo'lganlarning ulushi, tarmoqdagi o'rtacha yillik ish haqining mamlakat bo'yicha o'rtacha yillik ish haqiga nisbati olinadi;

- *sektor rivojlanishining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi.* Tahlillar uchun shaxsiy va banklarning moliyaviy resurslari hisobiga amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalarning salmog'i, sektorga kapital qo'yilmalarning mamlakat iqtisodiyotiga qo'yilayotgan kapital qo'yilmalarga nisbatan korrelyatsion dinamikasi ko'rsatkichlari olinadi;

- *iqtisodiyot sektorining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash*

darajasi. Mazkur ko'rsatkichni miqdoriy baholash uchun davlatning tarmoqqa kiritayotgan kapital qo'yilmalar miqdorining yalpi kapital qo'yilmalardagi ulushi olinadi.

2. Rentabellik darajasi quyidagi koeffitsiyentlar yordamida aniqlanadi.

- *sektor aktivlarining rentabelligi* – aktivlardan keladigan foyda darajasi haqida ma'lumot beradi;

- *mahsulotlarni sotish rentabelligi* – foydaning sotilgan mahsulotlar hajmiga nisbatan mosligini va uning iqtisodiyot sektoridagi tannarxini ko'rsatadi;

- *joriy xarajatlar rentabelligi* – mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga ketgan xarajatlar nuqtayi nazaridan mazkur mahsulotga belgilanadigan eng maqbul narx haqida ma'lumot beradi;

- *sektorga ajratilayotgan kapital qo'yilmalarning rentabelligi* – qo'shilgan qiymatning o'sishi va bir yil oldingi kapital qo'yilmalarning bir biriga bog'liqligini ko'rsatadi.

3. Investitsion xatarlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:

- *to'lovga qobiliyat darajasi* – Kuk koeffitsiyenti asosida baholanadi, bu koeffitsiyent bank kreditlari qay darajada shaxsiy mablag'lar hisobiga qoplanishini ko'rsatib beradi;

- *ytimoiy mavqeyi darajasi* – sektordagi ish haqining mamlakatdagi yashash minimumiga nisbatan muvofiqligi tushuniladi;

- *xususiy kapitalar rentabelligining o'rtacha tarmoq ko'rsatkichining variatsion koeffitsiyenti* – moliyaviy (investitsion) xatar darajasi dinamikasining an'anaviy o'lchov darajasi hisoblanadi.

Iqtisodiy holat elementlari ko'rsatkichlari o'lchovi turli miqdor va kenglikka ega bo'lgani hamda olinadigan natijalarni yagona masshtabga keltirish uchun ko'rsatkichlarni darajalash uslubiyotidan foydalanilgan. Mazkur uslubiyot investitsion jozibadorlikni baholashning har bir ko'rsatkichi bo'yicha $[0,1]$ intervalda teng taqsimlashga asoslangan. Baholash ko'rsatkichining eng past darajasiga 0, eng katta darajasiga 1 beriladi. Shunday qilib, qolgan ko'rsatkichlar interval ichida, ya'ni o'z darajasiga mos ravishda 0 va 1 orasida taqsimlanadi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlardan ko'zlangan aniq maqsadlar quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishdan iborat bir tomonlamaligiga chek qo'yish;

- iste'molga tayyor, ya'ni tugallangan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash;

- import o'rmini bosa oladigan tovarlarni mamlakatni o'zida ishlab chiqarib, importga qaramlikni cheklash;

- mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazib, mamlakat eksport salohiyatini oshirish;

- ishlab chiqarishning istiqbolli sohalariga ustuvorlik berib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga o'tish, xalqimizning milliy va tarixiy an'analariga mos keladigan yangi sohalami barpo etish;

- o'zimizda ishlab chiqariladigan tovarlar hisobidan milliy bozorni to'ldirish orqali xalq iste'moli mollarining muhim turlariga bo'lgan aholi talablarini to'la qondirish

Iqtisodiy islohotlar jarayonida tarkibiy o'zgarishlar respublikaning energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlovchi tarmoqlarni jadal rivojlantirishni, mineral va qishloq xo'jalik xomashyo resurslaridan tayyor raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq tarmoqlar va korxonalar imkoniyatini oshirishni talab etadi.

Respublikaning an'anaviy ixtisosdagi ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan qayta qurollantirish yo'li bilan ularni rivojlantirish nazarda tutildi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirilishi borasida quyidagilarga erishildi:

- respublikaning yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji o'zi hisobidan to'la ta'minlandi;

- ozuqabop g'alla importiga qaramlik barham topdi. Mamlakatning o'z g'alla resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi keskin ortib bordi, g'alla mustaqilligi qaror topdi;

- ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hissasi keskin oshdi;

- sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, chunonchi mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo va yengil sanoatning hissasi ortib bordi.

Hozirda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, ularni quyidagi yangi yo'nalishlarga o'tish dasturlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish mo'ljallanmoqda:

- respublika iqtisodiyotining yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;

- iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;

- yengil va qayta ishlash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish;

- yuqori texnologiyani va ilmtalab ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida hududiy tarkibiy tuzilishdagi chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

5.2. Iqtisodiyotning real sektorini diversifikatsiyalashning ilmiy asoslari

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda mavjud boy ilmiy-texnik salohiyatdan, to'plangan ilmiy tadqiqotlar natijalaridan va iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash ishlanmalaridan keng miqyosda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash sohasida olib borilayotgan davlat siyosati fan va texnikaning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi salmog'ini oshirishga, fan, ta'lim va sanoatning uzviy aloqasini mustahkamlash asosida moddiy ishlab chiqarishda taraqqiyparvar tarkibiy va texnologik o'zgarishlarni ta'minlashga, iqtisodiy mustaqillikni va milliy o'zlikni anglashni mustahkamlashga, jamiyatimiz fuqarolarining ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy islohotlar davomida ilmiy-texnik faoliyatning huquqiy asosini tashkil etuvchi qonunlar tizimiga asos solindi. O'zbekiston respublikasi Prezidentining maxsus farmoni bilan ilmiy-texnik sohada davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga mas'ul bo'lgan davlat boshqaruv organi – fan va texnika davlat komiteti tashkil etildi, ma'lum davr mobaynida uning faoliyati tahlil etildi va ushbu muassasa nomi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish deb o'zgartirildi hamda yangi vazifalar belgilandi.

Iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash faoliyati natijalari hamda intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoyalash bo'yicha bir qator qonunlar qabul qilindi va amaliyotga kiritildi, ilmiy izlanishlarni, iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash ishlanmalarini olib borishni rag'batlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator me'yoriy hujjatlar amal qilmoqda.

Milliy patent tizimi shakllantirildi: davlat patent idorasi tuzildi, patent ishlari bo'yicha vakillik instituti joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk sohasidagi bir qator xalqaro bitimlar va shartnomalarga a'zo bo'lib kirdi. Mamlakatimizda sanoat mulki obyektlarining huquqiy muhofazasini ta'minlovchi himoya hujjatlari majmuasi takomillashtirildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi rivojlangan tadqiqot bazasiga, ajoyib ilmiy inshootlar va uskunalarga, keng miqiyosdagi ilmiy salohiyatga, yuqori malakali ilmiy xodimlarga ega bo'lib, Markaziy Osiyoning yirik ilmiy markazi sifatida tan olingan. Mamlakatning ilmiy-tadqiqot majmuyi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy va iqtisodiyot tarmoqlari sohalari bo'yicha 350 dan ortiq ilmiy muassalarni o'z ichiga oladi. Ularda hozirgi paytda 46 mingdan ortiq mutaxassislar, shular jumlasidan 2600 dan ortiq fan doktorlari va qariyb 17000 fan nomzodlari faoliyat ko'rsatmoqdalar, fanning 20 dan ortiq yo'nalishlari bo'yicha oliy toifadagi ilmiy mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Mamlakatimiz mavjud ilmiy-texnik salohiyatidan keng va samarali foydalanishga, fundamental va ilmiy tadqiqotlarning natijalarini, ilmiy hajmdor va yuksak texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, oliy malakali iqtidorli ilmiy xodimlarni tayyorlashga asoslangan zamonaviy va iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash tipidagi rivojlanish modeliga o'tish uchun kerakli barcha shart-sharoitlarga ega. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizni jahonning sanoati jadal o'sayotgan, iqtisodiyoti tez suratlarda rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga olib chiqishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Jahon tajribasiga suyangan holda mamlakatimizda ilmiy-texnik va iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash faoliyatini boshqarishning o'ziga xos tamoyillari ishlab chiqilgan. Fundamental va amaliy tadqiqotlar davlat buyurtmasi sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda va iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash ishlanmalariga davlat grantlari ajratilmoqda.

Iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash loyihalarini ishlab chiqilgan dasturiy-maqсадli tamoyillar asosida amalga oshirilishi «texnologiyalarni o'zlashtirishning iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash loyihalari» zanjirida ilmiy tadqiqotlarning mantiqiy davomiyligini yuqori darajada ta'minlaydi. Shularga asoslangan holda fundamental tadqiqotlar dasturlari shakllantirilmoqda va asosan davlat budjeti hamda nodavlat mablag'lar hisobiga amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mos boʻlgan amaliy ilmiy-texnik dasturlar doirasida mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur boʻlgan ilmiy-intellektual mahsulotlarni yaratishga xizmat qilib, bu mahsulotlar davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida sanoat mulki obyektlari: uskunalar, moddalar, texnologik usullar va boshqa turdagi ilmiy mahsulotlar sifatida ularning tajriba-sinov namunalari tayyorlanadi va sanoatda qoʻllanish imkoniyatlari va istiqbollari ochib beriladi.

Sinovlardan muvaffaqiyatli oʻtgan ilmiy mahsulotlar tanlovli va iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash manfaatdor vazirliklar, idoralar, birlashma va korxonalarning talablari asosida ularning mablagʻlarini jalb qilgan holda sanoatga olib chiqiladi va shu asosda yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmat turlarini koʻrsatish, ichki va tashqi bozorga tovar-xizmatlarni chiqarish imkoniyatlarini oshiradi.

Mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tashkil etishni koʻzda tutgan iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash loyihalari qaytarilish sharti bilan beriladigan foizsiz mablagʻlar hisobiga amalga oshirilishi, bir tomondan budget mablagʻlarini tashkilotlarga qaytarilmas qilib boʻlib berish amaliyotidan iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashni maqsadli kreditlash amaliyotiga oʻtish uchun zamin tayyorlasa, ikkinchi tomondan iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashga asos boʻlib xizmat qiladigan intellektual mulk obyektlari va ilmiy tadqiqotlar natijalari egalarining intellektual solohiyatidan bozor sharoitida samarali foydalanishni kafolatlaydi.

Iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash jarayonlarini rivojlantirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- yangi iqtisodiy sharoitlarda oʻz oʻrnini topa olmayotgan korxonalariga ilmiy yutuqlarga asoslangan ilgʻor texnologiyalarning jalb etilishi asosida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyishga shart-sharoit yaratish;
- moliyaviy resurslarni eng kam jalb qilgan holda ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarini koʻpaytirish;
- ilgʻor texnologiyalarga va «nou-xau»ga ega boʻlgan kichik va oʻrta biznesga mamlakatimizdagi korxonalar asosida rivojlanish istiqbollari yoʻl ochib berish va kerakli shart-sharoitlar yaratish;
- korxonalar qimmatbaho qogʻozlarining va aksiyalarining aylanishini kuchaytirish, oqibatda olinadigan dividendlar miqdorini koʻpaytirish;

- olimlar va tajribali tadqiqotchilar orasidan mulkchilar sinfining vujudga kelishi uchun qoʻshimcha shart-sharoitlar yaratish.

Iqtisodiyotning tarkibini diversifikatsiyalash asosida bir qator ilmiy ishlanmalar amalga oshirilmoqda. Masalan, respublikaning tuproq-iqlim sharoitlari turlicha boʻlgan hududlarida gʻoʻza navlarini rayonlashtirish va oqilona joylashtirish xaritasi hamda ularni parvarishlash agrotexnikasi ishlab chiqildi.

Aholini va sogʻliqni saqlash muassasalarini dori-darmon, test-tizimlar, diagnostika, tibbiy-diagnostika asboblari va boshqa tibbiy mahsulotlar bilan taʼminlashga yoʻnaltirilgan, shuningdek elektrotexnika, oziq-ovqat, poligrafiya va boshqa sohalarida ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarishni yaqin yillarda oʻzlashtirish moʻljallangan ishlanmalar amalga oshirilmoqda.

Bir qator texnologiyalarni sanoat miqyosida oʻzlashtirish, ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish respublikaning ayrim mahsulot turlari boʻyicha importga ehtiyojni kamaytirishga va mamlakatimizning eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Buning ahamiyati haqida Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar: «fan va texnika yutuqlari keng koʻlamda joriy etiladigan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish yoʻli strategik vazifani – jahon bozorida oʻzbekiston mavqeyini mustahkamlash, respublikaning iqtisodiy va texnologik mustaqilligiga erishish vazifasini hal etadi».

Respublikada ilmiy-texnik mahsulotlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofazalash, sanoat mulki obyektlari bilan amalga oshiriladigan litsenziya savdosini taʼminlash davlat ilmiy-texnik siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash jarayonlarini va intellektual mulk bozorini rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash maqsadida soliq va bojxona tizimida bir qator imtiyozlar belgilangan. Davlatning maqsadli dasturlari asosida bajariladigan ilmiy-texnik ishlanmalar qoʻshilgan qiymat soligʻidan, sanoat mulki obyektlari egalari (litsenziyalar) va ulardan foydalanuvchi shaxslar (litsenziat) muayyan muddatga daromad (foйда) soligʻidan ozod etilganlar. Endilikda ular yangi tashkil etilayotgan (shuningdek xorijiy sarmoyalar ishtirokida ham) korxonalarning ustav jamgʻarmalariga ulush sifatida kiritilmoqda, bank kreditlarini olishda garov sifatida foydalanilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish sharoitida

xorijiy tashkilotlar va jamg'armalarning grantlari bo'yicha bajariladigan ilmiy dasturlar va loyihalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro ilmiy-texnik dasturlar hamda xalqaro grantlar asosida bajariladigan ilmiy tadqiqotlar va iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash loyihalari ijrochilarining yillik daromadlariga grant summasi miqdorining qo'shilmasligi, ana shu ishlanmalarni bajarish maqsadida olib kelinayotgan uskunalar, materiallar va boshqa mahsulotlarni qo'shilgan qiymat, aktsiz solig'idan va bojxona to'lovlaridan ozod etilishi mamlakatimiz fan va texnologiyasi sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qulay shart-sharoitlar yaratish bilan birga ilmiy-texnik faoliyatni moddiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish imkoniyatlarini ochib berdi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar sohasida manfaatli hamkorlikni kuchaytirish maqsadida dunyoning 50 dan ortiq mamlakat bilan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risida xalqaro bitimlar tuzilgan. Tuzilgan bitimlar asosida O'zbekistonning ilmiy dargohlari va oliy o'quv yurtlarining xorijiy davlatlar ilmiy muassasalari va universitetlari bilan hamkorligi rivojlanib bormoqda.

Masalan, quyosh energetikasi sohasidagi hamkorlik yangi keramik va yuqori temperaturali materiallarni yaratish va turli sohalarida qo'llashga qaratilgan. O'zbekistonlik olimlar yaratgan 1,5 kvt quvvatga ega bo'lgan kichik quyosh isitgichi Hindistonning Haydarobod shahridagi kukun metallurgiyasi va yangi materiallar xalqaro elektronika tadqiqotlari va rivojlanishi markaziga sovg'a qilindi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda yaqin yillarda iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish va diversifikatsiyalashda quyidagilarga asosiy e'tibor beriladi:

1. Kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga mos siyosiy va iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishning dolzarb muammolarini tadqiq etish.

2. Avtomobilsozlik, samolyotsozlik, mikrobiologiya, elektronika va elektron sanoati, telekommunikatsiya vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalari va boshqalarni yanada rivojlantirish.

3. Ishlab turgan korxonalarni qayta ixtisoslashtirish va zamonaviylashtirish asosida butlovchi, tutash qismlarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.

4. Qishloq xo'jalik ekinlarining istiqbolli navlarini yaratish, eko-

logik sof, resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni yaratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning dolzarb muammolarini hal etish.

5. Mineral xomashyo resurslarini qidirish, qazib olish va qayta ishlashning samarali usullari va sanoat mahsulotining yuksak raqobatbardoshligini ta'minlaydigan texnologiyalarini yaratish

6. Iqtisodiyot tarmoqlarini energiya bilan tejimli ta'minlashning samarali usullari va texnologiyalarini yaratish, texnologik jarayonlarni boshqarishni avtomatlashtirishning usullari va vositalarini ishlab chiqish.

7. Kasalliklarni oldini olish, tashxislash va davolashning, aholining sog'ligini muhofaza qilishning, atrof-muhit monitoringini ta'minlashning samarali yechimlarini aniqlash.

8. Yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, yoshlarni yangi texnika va texnologiyalarni yaratishga, innovatsion boshqaruvni tashkil etishga va intellektual mulk darajasini oshirishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirishga ko'nikma hosil ettirish hamda buning uchun to'liq shart-sharoitlar yaratish.

O'zbekistonning yetuk malakali ilmiy salohiyati, amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning va iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash orqali sanoatni tez sur'atlarda yuksaltirishga, xalqaro ilmiy aloqalarning rivojlanib borayotganligi mamlakatimizda ilmtalab sanoatni rivojlantirishga, respublika iqtisodiyotini yuqori sur'atlarda izchillik bilan o'sishiga xizmat qiladi.

5.3. Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishining huquqiy-me'yoriy masalalari

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning ko'plab asarlarida iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslarini tahlil etish alohida o'rin tutadi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davridayoq bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishga asosiy e'tibor qaratildi.

Islohotlarni huquqiy negizlarini muhim ahamiyatga egaligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

Birinchidan, «bozor iqtisodiyoti huquqiy normalar va qoidalarga tayanish bilan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan farq qiladi...».¹

¹ Karimov I A «O'zbekiston milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura» -T «O'zbekiston», 1996-y, 318-bet

Ikkinchidan, bozor munosabatlarini shakllantirishni muayyan tizimga solinishi huquqiy jamiyatni shakllantirishning muhim shartidir.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy negizlarini yaratish quyidagi sabablarga ko'ra obyektiv zaruriyatga aylandi:

- ittifoq davrida amal qilib kelingan qonunlar ma'muriy-buyruqbozlik tizimini himoya qilish va yangi munosabatlarini shakllantirish yo'lida to'siq bo'lib xizmat qildi;

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimi davrida qabul qilingan huquqiy qonunlarning hammasi umumittifoq talablariga bo'ysundirilgan bo'lib, O'zbekistonning o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olmas va Respublika milliy mustaqillik manfaatlariga javob bermas edi,

- O'zbekiston yosh davlat sifatida o'z xalqining manfaatlariga, jamiyatda ham, iqtisodiy munosabatlarda ham, demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish vazifalariga mos keladigan yangi qonunchilik asoslarini ishlab chiqishi va qabul qilinishi zarur bo'lib qoldi;

- O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'zining yangilanish va taraqqiyot yo'lini bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos modelini ishlab chiqdi. Demokratiya va bozor munosabatlari taraqqiy etgan mamlakatlarni qonun chiqarish sohasidagi tajribasi chuqur o'rganilish va O'zbekistonni o'ziga xos an'analari bilan uzviy bog'lash, yangilangan jamiyat qurish xususiyatlarini hisobga olish islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash bo'yicha o'z mexanizmini ishlab chiqish imkonini berdi va xalqaro yuridik tashkilotlar va mutaxassislar ekspertizasidan o'tkazildi. Qonunlarning huquqiy jihatdan yetukligi va umumjahonda qabul qilingan mezon va qoidalarga mosligi yuksak baholandi.

«Isloh qilishning birinchi bosqichida, – deb ta'kidladi I.A.Karimov, -biz huquqiy asoslarni yaratishda o'zimizga xos yondashuvlarni, qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish bo'yicha o'z mexanizmimizni vujudga keltirdik».¹

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida islohotlar jarayonini davlat-huquqiy jihatdan boshqarishning yaxlit tizimi tarkib topib – hokimiyatning hamma tarmoqlarini: prezidentlik boshqaruvi shaklini, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarini o'zida uzviy qovushtirdi.

«Davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi muhim strategik qoidalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan

¹ Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»-T «O'zbekiston», 1995-y 32-bet

ishlab chiqiladi va uning farmonlari bilan tasdiqlanadi».¹ Mazkur farmonlar islohotlarning mafkurasi, maqsadi, amalga oshirish bosqichlari va joriy etish mexanizmini o'zida aks ettiradi.

Fundamental, barqaror va uzoq amal qiladigan me'yorlar va jara-yoni qonun-qoidalarda o'z aksini topadi. Iqtisodiy islohotlar rivojlanib va chuqurlashib borgan sari, ularning huquqiy negizi takomillashtirib boriladi.

Prezident Farmonlarida qabul qilinadigan yechimlar hukumat qarorlarida huquqiy asosda yoritib beriladi va aniq chora-tadbirlar bilan mustahkamlanadi. Hukumat qarorlarini qabul qilish yo'li bilan iqtisodiy islohotlar jarayonini davlat huquqiy jihatdan tartibga solish, iqtisodiyotning muhim bo'g'inlari va sohalarini o'zgartirish amalga oshiriladi. 1994-yilning o'zidagina milliy valutani mustahkamlash va tartibga solish, pul emissiyasini qisqartirish, Respublikaning iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, fermer (dehqon) xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan bir qator muhim qarorlar qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarni dastlabki bosqichida bozor munosabatlarini shakllantirishning huquqiy negizini yaratish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Birinci yo'nalish – O'zbekistonning davlat va iqtisodiy mustaqilligi huquqiy negizlarini yaratuvchi va davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi «O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi qonun, «Yerosti boyliklari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi va boshqa tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qonunlar qabul qilindi.

Respublika va mahalliy darajada boshqaruv strukturalarining vazifalari aniq chegaralab qo'yildi. Milliy sharoitlarga to'la javob beradigan joylarda vakolatli hokimiyatning birdan-bir to'la huquqli organi bo'lgan hokimlik institutu yaratildi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi sohasida noyob mexanizm tuzildiki, uning ildizlari xalq an'alariga va tarixan tarkib topgan jamoa munosabatlari mahallaga borib taqaladi.

Ikkinchi yo'nalish – jamiyat iqtisodiy tizimining asosini tashkil etuvchi yangi mulkchilik munosabatlariga asos soladigan mulkchilik to'g'risidagi, yer to'g'risidagi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risidagi, ijara to'g'risidagi, davlat uy-joy fondini xususiyashtirish to'g'risidagi kabi qonunlar majmuyini yaratish amalga oshirildi.

¹ Karimov I A «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»-T «O'zbekiston», 1995 33-bet

Qonunchilikni navbatdagi ustun darajada rivojlanib borayotgan yo'nalishi – xo'jalik yuritish va institutsional o'zgarishlarning yangi mexanizmini yaratish edi. Mazkur yo'nalish bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi shakllantirishni huquqiy jihatlarini tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarning majmuyidan iborat.

Birinchi navbatda, xo'jalik subyektlarining huquq va iqtisodiy erkinligi maqomini belgilab beruvchi «Korxonalar to'g'risida»gi qonun, «Kooperatsiya to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida»gi va shu kabi qonunlar qabul qilindi, yangi xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalari aniq ko'rsatib berildi.

Uchinchi yo'nalish – Bozor infrastrukturasini yaratish va uni tartibga solib turuvchi banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, pul tizimi to'g'risidagi, tadbirkorlik to'g'risidagi, sug'urta to'g'risidagi, birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi, auditorlik faoliyati to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi va boshqa qonunlarni qabul qilinishi Respublikada bozor mexanizmlarini rivojlantirishning mustahkam poydevorini yaratish imkonini berdi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni davlat tomonidan tartibga solishda xo'jalik subyektlari bo'lmish korxonalar va fuqarolarning davlat bilan o'zaro munosabatlari mexanizmini tartibga soluvchi soliqlar tizimi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarni bankrot bo'lishi, xo'jalik protsessual kodeksi kabi huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

To'rtinchi yo'nalish – O'zbekistonni jahon xo'jalik tizimiga kirib borishining huquqiy asosini ta'minlovchi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi to'g'risida»gi, valutani tartibga solish to'g'risidagi kabi qonunlarni qabul qilinishi, asosiy xalqaro paktlar va bitimlarning O'zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini taraqqiy etishida juda katta imkoniyatlar ochib berdi.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ularni huquqiy jihatdan kafolatlashda muhim rol o'ynaydigan bir qator qonunlar qabul qilindi.

Inson, jamoat tashkilotlarining huquqlari va erkinliklarini, vijdon va din erkinligini tartibga soluvchi, ish bilan bandlik to'g'risida, nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida, fuqarolarni davlat pensiya ta'minoti asoslari to'g'risida, ta'lim to'g'risida, yoshlarga oid davlat

siyosatining asoslari to'g'risidagi qonunlar shular jumlasidandir. Yuqorida qayd etilgan qonunlar qabul qilinishi odamlarni ma'naviy, ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilish va islohotlarni ijtimoiy zaminini shakllantirish imkonini berdi. «Mustaqil O'zbekistonning ilk Konstitutsiyasi – davlat va jamiyat hayotining asosiy qonunining qabul qilinganligi birinchi bosqichdagi qonun chiqarish faoliyatining gultojisi bo'ldi».¹ Konstitutsiya O'zbekistonni haqiqiy mustaqillikka erishishi va yangi iqtisodiy tizimga o'tishining huquqiy negizini tashkil etmoqda.

Iqtisodiyot tarkibini mustahkamlash sohasida huquqiy jihatdan bir qator qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarning qabul qilinishi quyidagilarga qaratilgan:

- yoqilg'i-energetika kompleksini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish va energetika mustaqilligiga erishish;
- chetdan keltiriladigan muhim mahsulotlarga qaramlikni kamaytirish choralari ko'rish;
- qishloq xo'jalik xomashyosining muhim turlarini qayta ishlash, to'qimachilik, tikuvchilik va boshqa ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish;
- eng muhim iste'mol mollarni ishlab chiqaradigan tarmoqlarni jadal rivojlantirish va o'ta kamyob tovarlarni ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarni tashkil etish.

Hozirgi davrda milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvi kuchayib bormoqda. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashning kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ziddiyatli jihatlari mavjud. Mazkur jarayonlarning yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ldi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtayi-nazari-

¹ Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»-T «O'zbekiston», 1995 -41-bet

dan shakillantirishimiz va ularni izchillik bilan amalga oshirishimizni taqozo etadi.

Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimizning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarida keng va batafsil bayon qilib berilib, mamalakatimiz oldida turgan vazifalar aniq belgilandi.

Iqtisodiyotni barqaror o'sib borishini ta'minlash, kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, import o'rini bosuvchi hamda eksportbop tovarlarni ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ichki bozorni to'ldirish va mahalliy nooziq-ovqat iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida Prezidentimizning va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator Farmon va Qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrda «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4058-sonli farmoni.

Mazkur farmonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy mutanosibligini, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash, aholi bandligiga ko'maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari hamda kichik biznesni aniq qo'llab-quvvatlash asosiy maqsad qilib belgilangan. Farmondan kelib chiqib, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bo'yicha mahsulot tannarxini 20 foizga kamaytirish hamda raqobatbardoshligini oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ichki bozorni to'ldirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1047-sonli qarorida 2009-yilda – kartoshka, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlarini maydonlari va ishlab chiqarish hajmlari prognoz ko'rsatkichlari: – go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish prognoz ko'rsatkichlari: – 2009-2011-yillarda minitexnologiya va ixcham jihozlar o'rnatilgan go'shtni va sutni qayta ishlovchi kichik korxonalar hamda sutni qabul qiluvchi shahobchalar ochish prognoz ko'rsatkichlari: – 2009-yil yog'li ekinlar maydonlari va hosili prognoz ko'rsatkichlari: – Tomchilatib sug'orishni tatbiq etish prognoz ko'rsatkichlari: – Har bir tumanda 5 tadan yengil konstruksiyali issiqxonalar tashkil etish: – Go'sht va sut mahsulotlarini sanoat ko'lamida qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab

chiqarish faoliyati faqat yuridik shaxs shaklida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Mazkur qarorga asosan quyidagi imtiyozlar berilgan;

Soliq: 2012-yilning 1-yanvarigacha «Mevasabzavottayyorlovsavdo» kompaniyasini yagona soliqdan ozod qilish, go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarni yagona soliq stavkasini 50,0 foizga kamaytirish.

Bojxona: Go'sht va sut yetishtirish hamda ularni qayta ishlashda foydalaniladigan, Respublikada ishlab chiqarilmaydigan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq chetdan olib kelinadigan texnologiyalar va yordamchi komponentlarni bojxona to'lovlari (rasmiylashtirish yig'imidan tashqari) to'lashdan ozod qilish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi qism va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1048-sonli qarorida zamonaviy import o'rmini bosuvchi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, ichki tarmoqlarda va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, aholi bandligini oshirish shuningdek, sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni mahalliyashtirish ko'zda tutilgan. Imtiyozlardan foydalanish hisobiga bo'shaydigan mablag'lar texnologiya uskunalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahalliyashtirish Dasturini amalga oshirishga jalb etilgan korxonalarning muhandis-texnik xodimlarini rag'batlantirishga yo'naltirish belgilangan.

Soliq: 2011-yil 1-yanvargacha maxalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar foyda solig'i, yagona soliq to'lovidan hamda asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'idan ozod qilinadi.

Bojxona: Respublikada ishlab chiqarilmaydigan va chetdan olib kelinadigan texnologiyalar va ularning ehtiyot qismlari, mahalliyashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan komponentlarni bojxona to'lovlari (rasmiylashtirish yig'imidan tashqari) to'lashdan ozod qilish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish to'g'risida»gi PQ-1050-sonli qarorida raqobatbardosh, yuqori sifatli nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni

ko'paytirish va turlarini kengaytirishni rag'batlantirish, ichki iste'mol bozorini ular bilan yanada to'liqroq boyitish, tayyor nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi mahalliy korxonalarni tashkil etish hamda mavjudlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, buning asosida aholi bandligini ta'minlash, insonlarning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish belgilangan.

2009-2011-yillarda maqsadli parametrlarga erishishni nazarda tutgan holda nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish va turlarini kengaytirish, yangi tashkil etilayotgan korxona faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish jumladan, yangi moddiy-texnika bazasini barpo etish va mavjud bazani modernizatsiyalash yuzasidan binolar va yer uchastkalari ajratish ko'zda tutilgan.

Soliq: 2012-yil 1-yanvargacha nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar foyda solig'i, mulk solig'i, yagona mulk solig'i, yo'l jamg'armasi to'lovidan ozod qilindi.

Bojxona: Vazirlar Mahkamasi ro'yxati bo'yicha import qilinadigan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, Respublikada ishlab chiqarilmaydigan xomashyo hamda materiallarni bojxona to'lovlari (rasmiylashtirish yig'imidan tashqari) to'lashdan ozod qilish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 12-martdagi «2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi PQ-1072-sonli qarorida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirilishini jadallashtirish, shu asosida xomashyo resurslarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va raqobatbardosh ichki hamda tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish, iqtisodiyot tizimini yanada diversifikatsiya qilish uning barqaror va jadal rivojlanishini ta'minlash, eksport salohiyatini kengaytirish yuzasidan 2009-2014-yillarga mo'ljallangan Dastur tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1112-sonli qarorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanishini rag'batlantirishni kuchaytirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishida

uning rolini oshirish, yangi ish joylarini shakllantirish va aholi bandligini ta'minlash, shuningdek, xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish hamda yuritish uchun qo'shimcha ravishda qulay shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

Bojxona: 2009-yil 1-iyundan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun boj xaqini eng kam ish haqi miqdorining 5 barobaridan 2 barobarigacha pasaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 31 dekabrda qabul qilingan «Iqtisodiyotning real sektori sohasidagi korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi VM-288- sonli qarorida eksportbop va import o'rini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga yangi texnologik jihozlar sotib olish hamda aylanma mablag'larni shakllantirish maqsadida bank kreditlari bilan qo'llab quvvatlash nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21-maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010-yilga qadar xizmatlar va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-640- sonli qarorini bajarilishini ta'minlash maqsadida Dastur tasdiqlanib, 2007-2010-yillarda savdo, transport, temiryo'l, aviatsiya, aloqa, elektron axborot tarmoqlar va telekommunikatsiya xizmatlari shuningdek, bank, sug'urta, lizing, turizm, mehmonxona, kommunal hamda maishiy, avtomobil va boshqa turdagi texnikalarni ta'mirlash, qishloq xo'jaligida servis xizmatlari ko'rsatish, ta'lim, sport va madaniyat sohalari hamda sog'liqni saqlash, sanatoriya va kurort xizmatlarini jadal rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 2007-2010-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini yanada kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, xizmatlar hajmining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2010-yilgacha 45,2 foizga yetkazish mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-yanvardagi «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-3706-sonli farmonida Respublika aholisini bandligi va daromadlarini barqaror o'sishini ta'minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakl-

larini keng rivojlantirish jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirish, yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi, oilada muhim muammoni hal etish. ish bilan band bo'lmagan aholi sonini keskin kamaytirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilar ish stajini hisoblash, ularga pensiya va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash huquqi ta'minlanadi.

Sanoat korxonalarining kasanachilarga zarur xomashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy pudratni rivojlantirish, fuqarolarga vaqtdan unumli foydalanishi, shu bilan birga past rentabelli va ko'p mehnat sarfini talab qiladigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida ishlab chiqarishni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu o'z navbatida, yirik korxonalarni ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

5.4. Sanoat tarmog'ini prognozlash modellari

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ma'lum zaxiralari majud. Jahon tajribasini umumlashtirish natijalariga asoslanib aytish mumkinki, iqtisodiyotni erkinlashtirish jadallashtirishda bank tizimi hamda xususiy sektorni mustahkamlash dolzarb masalalardan hisoblanadi mavjud jihatlarda talab chegirmalariga bo'lgan masalalarni bartaraf qilib jamg'armalarni o'sishi uchun imkoniyatlar yaratadi. To'var ishlab chiqaruvchilarni huquq va erkinliklarini ta'minlashga mo'ljallangan davlatni qattiqqo'l siyosati hamda bozor munosabatlarini rivojlanish darajasi resurslardan samarali foydalanishga ham bog'liq. Mavjud rezervlarni ishlatishga yo'naltirilgan dastlabki muhim qadamlar sud qonunchilik hokimiyatini mustahkamlashga, hokimiyatni iqtisodiy jarayonlarda bevosita qatnashishini cheklash, makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirish maqsadida baho va valuta siyosatini erkinlashtirishni jadallashtirish O'zbekiston Respublikasi hamda XVFnin birgalikda olib borgan Memorandumida 2002-yil mo'ljallangan edi.

Prognozlanayotgan davrda aholini real daromadlarini o'sishi iste'mol qilayotgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga asos bo'ladi, bu esa tahlil etilayotgan tarmoqlarda sanoat mahsulotini o'sishini ta'minlab, jamg'armaga bo'lgan ichki talabni qanoatlantirishni o'sishini prognozlashga imkon yaratadi.

Aytish mumkinki iste'molga bo'lgan talabni dinamik o'sishi yengil sanoatni rivojlanishiga tashqi omillarni ta'sirini jadallashtirib, tahlil etilayotgan tarmoqlarda eksportga tovar chiqarish asosida jahon kon'yunkturasi baholarga o'tishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishga 54 ta investitsiyaviy loyihalardan foydalanish hamda to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish – 1.5 mlrd dollardan ortiq hajmda AQSH dollarini mamlakatga jalb qildi, bu 2010-yilda eksportni 2 mlrd AQSH dollarga oshirishi, qo'shimcha 300 ming yangi ish o'rinlarini o'stirishi. O'zbekiston budjetiga yiliga o'rta hisobda 500ming AQSH dollarini jalb etishga olib keladi.

Yuqorida keltirilganlarga asoslanib, biz tomonimizdan ekonometrik tadqiqotlar olib borilib, iqtisodiy o'sish darajasi va ma'lum yengil sanoatni ishlab chiqarishlarga asoslanib samaradorlikni Kobba Dublas ishlab chiqarish funksiyasi yordamida tahlil etiladi.

Ishlab chiqarish funksiyasi bu – ishlab chiqarishda band bo'lgan resurslar miqdori va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Resurslar (ishlab chiqarish omili) sifatida sanoat ishlab chiqarishga band bo'lgan jamg'arilgan mehnat (K) [SICHBAF]-kapital va haqiqiy (jonlangan) mehnat [M] dan iborat bo'lib, bunda iqtisodiyot ikki faktorli chiziqsiz bog'liqlik ko'rinishida ifadalanadi:

$$Y=F(L,K)$$

Shunday qilib, mahsulot ishlab chiqarish bu resurs xarajatlarini funksiyasi sifati (ishlab chiqarish fondlari va mehnat)da keltiriladi.

Ishlab chiqarish funksiyasini umumiy ko'rinishini quyidagi xususiy hollarda ko'rish mumkin:

Multiplikativ ko'rinishdagi ishlab chiqarish fondi (MI/chf)

$$Y=A \cdot L^{\alpha} K^{\beta}, \text{ bunda } \alpha > 0; \beta > 0;$$

Kobb-Dublasni ishlab chiqarish funksiyasi.

$$Y=A \cdot L_{1-\alpha} K_{\alpha}, \text{ bunda } \alpha > a, \beta > 1-a$$

Iqtisodiyotda o'sish omillarini o'rganganda ekstensiv (resurslar uchun xarajatlarni o'stirish hisobiga) omillar hamda intensiv omillar (foydalanilayotgan resurslardan samarali foydalanishni o'stirishga asoslangan) farqlanadi.

Iqtisodiyotni samaradorligi – bu sarflanilgan xarajatlarni olingan natijaga nisbati sifatida izohlanadi. Biz ikki xil xarajatlarga ya'ni o'rta davrdagi mehnat uchun sarflangan xarajatlar bu – fondlar ko'rinishida va mehnatga (haqiqiy) (L) nisbat sifatidagi xarajatlarga egamiz. Mehnat

unumdorligini 2 xil xususiy samaradorlik ko'rsatkichlari va – k fond qiymati mavjud. Ishlab chiqarishni masshtabi (hajmi) ishlatilayotgan resurslarni o'rtacha o'lchamidan iborat.

Ishlab chiqarishni xususiy samaradorligi funksiyasi ko'rsatkichlarini hisoblash maqsadida quyidagi formulalardan foydalaniladi:

1. O'rtacha mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari

$$Y_1/L = A \cdot L^{\alpha-1} \cdot K^{\beta}$$

2. Oraliq mehnat unumdorligi

$$\partial Y_1 / \partial L = A \cdot \alpha \cdot L^{\alpha-1} \cdot K^{\beta}$$

3. O'rtacha fond qaytimi

$$Y_1/K = A \cdot L^{\alpha} \cdot K^{\beta-1}$$

4. Oraliq fond qiymati

$$\partial Y_1 / \partial K = A \cdot \beta \cdot L^{\alpha} \cdot K^{\beta-1}$$

5. Oraliq norma almashishi ko'rsatkichi

- a) asosiy fondlarni mehnat resurslariga nisbati

$$\partial K / \partial L = -\alpha \cdot K / \beta \cdot L$$

- b) mehnat resurslarini asosiy fondlarga nisbati

$$\partial L / \partial K = -\beta \cdot L / \alpha \cdot K$$

6. a) sanoat ishlab chiqarishidagi asosiy fondlarni dastlabki qiymati va mehnat resurslariga bo'lgan iste'molni vaqt ishlab chiqarish hajmlarini prognozlash hisobini quyidagi formulalar orqali keltirish mumkin:

$$L = \sqrt{\frac{y}{A}}$$

b) asosiy ishlab chiqarish fondlariga bo'lgan iste'molni dastlabki ishlab chiqarish hajmi va mehnat resurslarini dastlabki qiymati bo'yicha prognozlash quyidagi formula orqali hisoblanadi.

Ishlab chiqarish fondlari yordamida ishlab chiqarish masshtabi va samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagi formula orqali ifodalaymiz:

a) mehnat va fondlar bo'yicha nisbiy elastiklik ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

b) resurslarni xususiy samaradorligi quyidagicha aniqlanadi: $\tilde{Y}_1$, L, K – ko'rsatkichlarni o'sish sur'atlari

$$E_{Lq} = \frac{Y \Pi}{L}$$

d) o'rtacha geometrik ko'rsatkichlarni xususiy holi sifatida samaradorlikni umumlashgan ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

Yuqorida keltirilgan imkoniyatlarga asoslanib xususiy samaradorlik

ko'rsatkichi umumlashgan samaradorlikni tashkil etishda xuddi shunday ko'rinishda mavjud resurslar (a.1-a) hisoblanadi:

e) ishlab chiqarish masshtabi (M) – umum sarflangan resurslar ko'rinishida ifodalanib, foydalanilgan resurslarni o'rtacha o'lchami quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

5.5. Agrosanoat majmuasi iqtisodiy salohiyati

Agrosanoat majmuasi potentsiali, tushunchasi agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlar to'plamining quvvati, ya'ni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, mahsulotlarni aholiga va iste'molchi tarmoqlarga ilmiy asoslangan hajmlarda yetkazib berish va sotishni ifodalaydi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari tarkibiga qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, go'sht, sut, mikrobiologiya, un va yem-xashak sanoatlari, traktor-chilik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, chorvachilik va yem-xashak mashinasozligi, sanoatning oziq-ovqat sohasi, mineral-o'g'itlar va o'simliklarni muhofaza qiluvchi kimyoviy moddalar ishlab chiqarish hamda savdo tashkilotlari va korxonalari, tayyorlov va iste'mol shirkatlari kiradi.

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi, ya'ni yer, suv va o'rmon resurslaridan samarali foydalanish, malakali kadrlar tayyorlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sanoatlashtirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Agrosanoat majmuasining mavjud potentsialidan samarali foydalanish uchun boshqaruvning yangi usullarini ishlab chiqish hamda xalq xo'jaligining ichki sohaları bo'lgan iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaradigan, qayta tayyorlaydigan va yetkazib beradigan sohaları rejalashtirish zarur.

Agrosanoat majmuasi rivojlanishini muhim darajada jadallashtirish yer, suv va o'rmon resurslari potentsialidan samarali ravishda foydalanishga bog'liq. Lekin bu jarayonda iqtisodiy tomondan juda muhim bo'lgan masala yotadi, ya'ni o'rab turgan tabiatni saqlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ular ifloslanishi va tugashining oldini olish zarur.

Endilikda Prezident I.A.Karimovning g'oyalaridan kelib chiqib, boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, ularni yangi yo'nalishga o'tish dasturlari, chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish mo'ljallanmoqda:

■ respublika iqtisodiyotining yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;

■ iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;

■ yengil va qayta ishlash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish;

■ yuqori texnologiyani va ilmtalab ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish.

Chuqur tarkibiy o'zgartirishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining barqaror iqtisodiy o'sishini, iqtisodiy mustaqillikka erishishini, aholi farovonligining keskin o'sishini, jahon iqtisodiy tizimida o'ziga munosib o'rinni egallashini ta'minlaydi.

VI BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTNING MULKIY TUZILISHI VA UNI PROGNOZLASH

6.1. Real sektor iqtisodiyotining mulkiy ko'lamini va uning istiqbolini belgilash

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosini tashkil qilib, insoniyat iqtisodiy taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi.

Shunday ekan, mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas uch jihati (egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar xarakteri nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin.

Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mulkchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko'rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi.

Mulkchilik xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqariladi.

Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo'ysunuvchi rol o'ynamaydi. Bu shunda ko'rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma'lum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. Shu sababli mulkchilikning huquqiy normalari (egalik qilish,

tasarruf qilish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarning aniqlash-tirilgan ko'rinishi hisoblanadi.

Huquqiy normalar, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabat-larini muhofaza qilish zarurati bilan bog'liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan u tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g'oyat muhim rol o'ynaydi. Bu rol shunda ko'rinadiki, tovar xo'jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shunday qilib, mulkchilikning huquqiy normalari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalarining qonun bilan qo'riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

Mulkchilik munosabatlari, uning obyektlari va subyektlari bo'lishini shart qilib qo'yadi. Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik obyektlaridir. Mulk obyekti bo'lib, inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilishi qobiliyati – ishchi kuchi va boshqalar hisoblanadi. Mulk obyektida asosiy bo'g'in – bu ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo'ladi.

Real hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. Shunga mos ravishda mulk subyektlari vujudga keladi. Mulk subyekti jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyiga ega bo'lgan, mulk obyekтини o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlariga birlashgan bo'ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik subyekti bo'lib chiqadi.

Mulkning tuzilishi va shakli xilma-xilligi sababli, bu mulkni o'zlashtiruvchi yuqorida ko'rsatilgan subyektlar ham turli darajada bo'ladi. Masalan, davlat mulkining bevosita subyektlari respublika hokimiyati va boshqaruv organlari, davlat korxonalari va muassasalari hamda ularning mehnat jamoalari a'zolari bo'lishi mumkin.

Jamoa mulk subyektlari (tasarruf etuvchilar) sifatida jamoa

korxonalari, kooperativlar, xo'jalik jamiyati va shirkatlari, aksionerlik jamiyatlari, xo'jalik birlashmalari (uyushmalari), jamoat va diniy tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Aralash mulk, ya'ni huquqiy shaxslar va fuqarolarning mulki ham mavjud bo'lishi sababli, bu mulk subyektlari sifatida qo'shma korxonalar, xorijiy fuqarolar, xorijiy tashkilotlar va xorijiy davlatlar chiqadi.

Shunday qilib, mulk subyektlari ko'p darajali bo'lib, shu subyektlardan birontasi o'zini mulk egasi sifatida yuzaga chiqara olmasa, unda mulkchilik munosabatlari rasmiy va yuzaki tus oladi.

6.2. Real sektorda mulkchilikning turli shakllari nisbati va ularning o'zgarishi

Real sektor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma-xil bo'lishini talab qiladi, chunki tovar muayyan mulk obyekti sifatida gavdalanadi. Real sektor iqtisodiyotida mulk o'z ichiga davlat mulkidan tashqari, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va matlubot sohaslaridagi jamoa mulkining xilma-xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo'jaligi va shaxsiy tomorqa xo'jaligi, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va xususiy mulklarni oladi.

Real sektorda mulkchilikning turli shakllarini mavjud bo'lishi va ularning iqtisodiy mezonini ishlab chiqaruvchi kuchlarning holati, mehnat taqsimoti va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning yetuklik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyotning real sektorida davlat, jamoa, korporativ va xususiy mulk amal qiladi.

Iqtisodiyotning real sektorida davlat ham ishtirok etadi. Shuning uchun real sektor mulkida davlatning hissasi bo'lishi uning mulkiy munosabatlar ishtirokchisi ekanligini anglatadi. Mulk davlatga tegishli bo'lganda mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo'ladi. Davlat mulki asosan ikki yo'l bilan hosil bo'ladi:

Xususiy mol-mulkni milliy lashtirib, davlat qo'liga olish hamda davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxona va tashkilotlarda investitsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan.

Davlat mulki haqiqatda ham xalqqa qarashli bo'lgan, bo'linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo'llar kabi iqtisodiy tuzilmaning kattagina qismini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki respublika mulkidan va ma'muriy-hududiy (munitsipal) tuzilmalar mulkidan iborat bo'ladi. Yer, yerosti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hokimiyati va boshqaruv tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, budjet mablag'lari, oltin zaxirasi, valuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi.

Ma'muriy-hududiy (munitsipal) tuzilmalar mulkida davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jaligi korxonalari va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki bo'ladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi kamayib u asosan jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqaro mulkiga va xususiy mulkka aylanadi. Davlat korxonalarining asosiy fondlar, ishlovchilar soni, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad yaratishdagi hissasi qisqarib, ayni vaqtda boshqa mulkka mansub korxonalar hissasi ortib boradi.

Jamoa mulki – muayyan maqsad yo'lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o'zlashtirishni bildiradi. Jamoa mulki davlat mulkini korxona jamoasi sotib olishi, badal to'lab korxona qurishi, aksiya chiqarib, ularni sotish kabi yo'llar orqali paydo bo'ldi. Jamoa mulkining muhim xususiyati shundaki, bunda ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsuliga ayrim shaxslar emas, balki ma'lum guruh, kishilar egalik qiladi.

Jamoa mulkiga – kooperativlarning, ijara va jamoa korxonalarining, aksionerlar jamiyatlari, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, jamoa tashkilotlari va diniy tashkilotlarning mulki kiradi.

Korporativ mulkning asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini o'zlashtirishning jamoa-guruh xususiyatidir. Mulkchilikning bu turida ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi muayyan mehnat jamoasi doirasida ro'y beradi. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish mulk egasi bo'lmish mehnat jamoasi doirasida amalga oshiriladi, hamda jamoa va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarining mushtarakligi vujudga keladi.

Xususiy mulk – ayrim sohibkorlarga qarashli yollanma mehnatga asoslangan va o'z egasiga foyda keltiruvchi mulkdir.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida (7-modda), xususiy

mulk o'z mol-mulkiga xususiy egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir deb ko'rsatilgan. Shu bilan birga xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmasligi ta'kidlanadi.

Xususiy mulk ham, boshqa har qanday mulk shakllari kabi, o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. U, so'zsiz, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, mehnatga mas'uliyatlilik munosabatlarini rag'batlan tiradi. Shu bilan birga, tovar ishlab chiqarish sharoitida u xufyona daromad orttirishga intilish hissini tug'diradi. Mulkchilikning bu shaklini tan olish xalq xo'jaligida uni qo'llash foydali bo'lgan bo'g'inlarni aniqlash, uni tartibga solishning moliyaviy va huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etadi. Lekin xususiy mulkchilikni bunday tan olish uni mutlaqlashtirish bilan umuman bog'liq emas. Bu mulk sotib olingan ishlab chiqarish vositalari asosida mustaqil xo'jalik yuritish yoki davlat korxonalari, kooperativ firmalar, magazin, oshxona va shu kabilarni sotib olish orqali vujudga kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida xususiy mulkni shakllantirish manbalari ham ko'rsatiladi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanish, yollanib ishlash, kredit muassasalariga qo'yilgan mablag'lar, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar, meros tartibda mol-mulkni qo'lga kiritish kabilarni ana shunday manbalar bo'lishi mumkin. O'zbekistonda qishloq xo'jaligidan boshqa ayrim faoliyatlarda yer ham xususiy mulk obyekti bo'lishi mumkin. Shu sababli Respublika qonun hujjatlariga muvofiq savdo, xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarini ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga tanlov asosida sotilishiga ruxsat beriladi. Mazkur yer uchastkalariga xususiy mulk huquqining hamma me'yorlari taalluqli bo'lib, ular sotilishi, vasiyat qilib qoldirilishi yoki ijaraga berilishi mumkin. Biroq erning boshqa toifalari, jumladan, umumiy foydalanishdagi yerlar, qishloq xo'jalik ekinzorlari va davlat zaxirasiga kiritilgan yerlar davlatning alohida mulk obyektlaridir va shu sababli ular fuqarolarga faqat meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalikka berilishi mumkin.

Turli shakldagi mulklarning birkib ketishi natijasida aralash mulk paydo bo'ladi. Bu mulk alohida olingan obyektning turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi.

O'zbekistonda mulkchilikning turli xil shakllarini vujudga keltirish asosiy maqsad emas. Bu faqat ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanish,

tashabbuskorlik va sog'lom raqobatni vujudga keltirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgandir.

6.3. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning real sektor tarmoqlaridagi xususiylashtirish

Bozor munosabatlarining asosiy sharti ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashuvchi muhitni shakllantirish uchun shart-sharoitini vujudga keltirishdan iborat. Bunda asosiysi mulkchilik masalasini hal qilishdir. Mulkchilikda davlat sektorining salmog'i ancha yuqori bo'lgan mamlakatlarda mulkning ma'lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni taqozo qiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiylashtirish davlat mulkiga egalik huquqini davlatdan xususiylashtirishga o'tirishdir. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir qator yo'llar bilan amalga oshiriladi: davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatiga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulkini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va hokazo.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda ayrim usullarga ustuvorlik berish boshqa usullarni qo'llashni rad etmaydi, aksincha, ularni ham qo'llash zarurligini bildiradi. Masalan, korxona jamoasiga ustunlik berilib, davlat mulkini aksiyalashtirish, bu aksiyalarni sotib olishda shu jamoadan tashqari kishilar va chet el kapitalining ishtirok etishi ham bo'lishi mumkin. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish sharoitiga qarab pulli, pulsiz yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi. O'z shakli va usulidan *qat'iy nazar* bu tadbir xilma-xil mulkchilikni vujudga keltirishni ta'minlaydi, chunki davlat mulki hisobidan nodavlat mulkining barcha shakllari va turlari rivojlanadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mulkchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan davlatning monopol hukmronligiga chek qo'yib, jamiyatda faollik ko'rsatayotgan erkin tadbirkorlik tashabbusiga keng yo'l va imkoniyatlar ochib berishdan iborat. Aslida xususiylashtirish iqtisodiyotni davlatlashtirishdan qaytish yo'l-

laridandir. Xususiylashtirish davlat mulkini ma'lum darajada haqiqiy egalari fuqarolarga berish demakdir. Ko'pincha xususiylashtirish – bu davlat mulkini ishlovchilarga berish, deb talqin qilinadi. Aslida mamlakatning barcha aholisiga davlat mulkini bo'lib berib bo'lmaydi, bunda aholining hammasi mulkka ega bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish ishlab chiqarish hamda mahsulotni ayirboshlash kabi mashaqqatli ishlarni o'z zimmasiga olavermaydi.

Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish jarayonida, avvalambor, xususiylashtirish yo'li bilan yaxshi iqtisodiy natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasidan to'laroq foydalanish va ular yo'l qo'ygan xatolar takrorlanmasligi kerakki, bu bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Xususiylashtirishni amalga oshirish uchun davlat mulkini xususiylashtirishning keng ko'lami dasturini ishlab chiqarish zarur.

Huquqiy jihatdan xususiylashtirilgan barcha korxonalarga erkin iqtisodiy xo'jalik yuritish huquqi berilishi va davlat sektori bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Davlat sektoriga nisbatan bu korxonalarga soliqlarni birmuncha kamaytirish va ayrimlarini ma'lum muddatga soliqdan ozod qilish zarur.

Xususiylashtirish orqali korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ma'lum jamoa va shaxslarga sotilgandan keyin faoliyatlarini bozorning shafqatsiz raqobat qonunlari asosida tashkil etadi. Bozor korxonalarining yashovchanligini va ularni doimo raqobat kurashida o'z manfaatlarini himoya qilishga majbur etadi. Mabodo korxona raqobat kurashiga dosh berolmay sinsa, oldingi davrdagidek davlat budjetidan mablag' hisobiga uni saqlab qolish hollariga xususiylashtirish orqali barham beriladi.

Xususiylashtirish mulkning bir shaklidan ikkinchi shakliga o'tishni aks ettirmasligi kerak, balki xususiylashtirish oldiga qo'yilgan vazifa katta bo'lib, ya'ni xususiylashtirish orqali avvalo barcha sohani o'z qaramog'ida turli uslublar orqali birlashtirib turgan davlat hukmronligini iqtisoddan ajratish uchun bir qancha tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Davlat korxonalarini xususiylashtirish bu mulkchilikning rivojlani-shiga, uning yangi bosqichiga o'tishiga bo'lgan talabidan kelib chiqadigan bir jarayondir. Xususiylashtirishning rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri – bu ishlab chiqaruvchilar hamda tadbirkorlarning tashabbusi, ularning ishlab chiqarishdagi faolligi hamda ishbilarmonligidir. Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida hokimiyat

va ishlab chiqarish sohalariga yangi ishbilarmonlar, aholining faol qismi jalb etiladi va mulkiy munosabatlarni rivojlantirishdan hamda mulk shakllarini takomillashtirishdan aholining shu qismigina manfaatdor bo'lib qolmay, balki o'rta va quyi ijtimoiy qatlamni ham mulkiy munosabatlarni takomillashtirishdan manfaatdor qiladi.

Davlat mulkini xususiyashtirish siyosati mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini, mahalliy va milliy sharoitlarni, urf-odatlarini hisobga olgan holda olib borilishini ko'zda tutadi.

Davlatlashtirishdan qaytishning muhim yo'nalishlari bu ijara munosabatlarini rivojlantirish va aksionerlik mulkini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayon ma'lum tadbirlarga rioya qilingan holda olib borilishi lozim. bu avvalo, ixtiyoriylik asosida, oshkoralik hamda jamoatchilikning umum ishtirokida amalga oshirilib, u mehnat jamoalarining iqtisodiy manfaatiga, davlat manfaatlariga putur yetkazmasligi, shu bilan birga iste'molchilar manfaatlariga ham zid bo'lmasligi zarur. Bu holda mahsulot hajmi, sifati va mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni boshqarishni yaxshi tashkil etish, mavjud moddiy texnika, moliyaviy va mehnat resurslaridan, fan va texnika yutuqlari, yangi texnologiyadan samarali foydalanish, tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga bozorda narxlarning pasayishiga erishish yo'li bilan aholining moddiy farovonligining oshishiga erishish talab etiladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, u aholining bo'sh turgan mablag'larini o'ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki xususiyashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorini shakllantirishning yagona yo'li emas. Tashabbuskorlik asosida yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi kichik va o'rta korxonalarni tashkil qilish – ikkinchi qudratli jarayon hisoblanadi.

Respublikada davlat mulkini xususiyashtirishning o'ziga xos boshqa jihatlari Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan bayon qilingan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy qoidalaridan kelib chiqadi. Bular quyidagilar:

a) davlat mulkini xususiyashtirish respublikada amalga oshiri-

layotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo'ysindiriladi va ularning asosini tashkil qiladi;

b) mulkni xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;

d) xususiylashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatdan ta'minlashda qonunlarga rioya etiladi.

Respublikamizda xususiylashtirish jarayonining hozirgi bosqichdagi yo'nalishlari islohotlarni chuqurlashtirish talablaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu avvalo, kichik va o'rta biznesni, xususiylashtirishni rag'batlantirishga qaratilishi zarur. Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «kichik va o'rta biznes, xususiylashtirish mamlakatining nafaqat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda asosiy bo'g'in, balki aholi bandligi va daromadlari manbayining, milliy farovonlikka erishishining muhim omili ham bo'lishi darkor».¹

Respublikamizda xususiylashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifa, davlat sektori bozor sharoitida ham sezilarli rol o'ynashini inkor qilmaydi. Chunki iqtisodiyotning davlat korxonalari saqlanib qolishi kerak bo'lgan sohalar ham mavjud. Bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi.

6.4. Erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda mulkchilik munosabatlarining istiqbolini belgilash

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov shu borada ta'kidlanganlaridek, «...hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat va e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi».² Shuningdek, «...bugungi kunda jamiyatning eng muhim va hal qiluvchi qatlami, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik kafolati, mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlaydigan o'rta sinf – ya'ni mulkdorlar sinfini shakllantirish»³, «...mamlakatimizda biznes va xususiylashtirish manfaatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan ana shu barcha qonun hujjatlari va huquqiy norma-

¹ Karimov I A Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptuush – taraqqiyot garovi «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 18-iyun № 140

² Karimov I A O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T O'zbekiston, 1999 – 16-b

³ Inson manfaatli, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. Prezident I Karimovning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 20-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi «Xalq so'zi» gazetasi 2012-yil 7-dekabr

larning ijrosini monitoring qilish va nazoratga olish tashqi va jahon bozorlarida global inqiroz avj olib borayotgan bir sharoitda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi». ¹ Shunday ekan, mamlakatimiz iqtisodiyoti ravnaqi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati erkinligi muammosini hal etishga alohida e'tibor berishni talab etadi. Chunki, bozor munosabatlari shakllangan va rivojlangan mamlakatlar tajribasi bozor ishtirokchilarining mustaqil iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari orqali manfaatlar uyg'unligiga erishish iqtisodiy jihatdan katta samara berishini ko'rsatib turibdi. Shu boisdan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida iqtisodiy erkinlik masalalarini atroflicha o'rganish va uning O'zbekistonga xos xususiyatlarini ochib berish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy erkinlik, eng avvalo, mulk shakllarining turli-tumanligi bilan bog'liqdir. Mulkiy plyuralizm xo'jalik yuritish shakllarining xilma-xilligini ta'minlaydi. Daromad topishda mulkning ishtiroki, uning moddiy yoki mehnat shakllaridan qat'iy nazar, bozor talabi doirasida amal qilib boradi. Bunda, bir tomondan iqtisodiyot subyektlarining o'zaro hamkorligidagi kelishuv yuzaga chiqsa, ikkinchi tomondan maksimum daromadga ega bo'lish borasidagi raqobatni keltirib chiqaradi. Oqibatda resurslar sarfiga va uning natijasiga binoan iqtisodiy faoliyat natijasi yuzaga chiqadi.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va iqtisodiy erkinlik, eng avvalo, xususiy mulk mavqeyi va ta'sir doirasining ortib borishi uning iqtisodiyotda yetakchi kuchga aylanishini ta'minlanishi va uning ta'sirida bo'lishini bilan xarakterlanadi.

Respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, turli mulk shakllariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga bosqichma-bosqich o'tish yo'li xosdir. 1992-2011-yillarda turli mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni olti bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich – 1992-1993-yillarda asosan davlat uy-joy fondi, savdo, maishiy xizmat va mahalliy sanoatning kichik korxonalari, dorixonalarni o'z ichiga olgan kichik xususiy lashtirish amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda ikki muhim vazifani birdaniga hal etishga to'g'ri keldi:

– birinchisi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish hamda makroiqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish;

¹ Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. Prezident I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 20-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagı ma'ruzası «Xalq so'zi» gazetasi 2012-yil 7-dekabr

- ikkinchisi, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini shakllantirish;
- institutsional o'zgarishlarni va kichik xususiylashtirishni amalga oshirish hisobiga ko'p ukldli iqtisodiyot negizlarini yaratish.

Kichik xususiylashtirishni amalga oshirish oqibatida 1994-yil oxirigacha 65 mingdan ortiq korxona va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Natijada 1994-yilda yalpi ichki mahsulotning 50 foizga yaqini iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarildi.

Makroiqtisodiy, shu jumladan, moliyaviy barqarorlashtirish, iqtisodiy tarkibiy siyosatni va aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini ko'rish oqibatida ishlab chiqarish hajmining pasayishi boshqa MDH mamlakatlaridek og'ir kelmadi. Yalpi ichki mahsulot 1995-yilda 1990-yilga nisbatan faqat 18,2 %ga kamaydi. Vaholanki, boshqa MDH mamlakatlarida YaIM hajmi 40–60 %ga, Rossiyada esa 48 %ga kamayib ketdi.

Ikkinchi bosqich – 1994-1998-yillarda asosiy e'tibor ommaviy xususiylashtirish bosqichi bo'lib, bu bosqichda kichik korxonalar xususiylashtirish mulkka, o'rta va yirik korxonalar esa ochiq aksionerlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga aylantirildi. Ushbu bosqichda minglab o'rta va yirik korxonalar xususiylashtirildi. Ularning aksiyalari quyidagi nisbatda bo'lindi: mehnat jamoasi 25 foiz, davlat 25 foiz, aralash korxonalar 10 foiz va erkin savdoga 40 foiz chiqarildi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi muomalaga milliy valuta – so'mning kiritilishi bilan boshlandi. Unda amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalaridagi o'rta va yirik korxonalarni xususiylashtirish hamda raqobatchilik muhitini shakllantirish choralari ko'rildi. 1995-1999-yillarda 14 mingdan ziyod obyektlar xususiylashtirildi. Buning oqibatida 1999-yil boshiga kelib, iqtisodiyotning nodavlat sektorining ulushi YaIMda 64,5 %ni, sanoat ishlab chiqarishida 64,1 %ni, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida 98,7 %ni, chakana tovar aylanmasida 95,3 %ni, aholining bandligida 74,2 %ni tashkil etdi. Xususiylashtirish kichik va o'rta biznes, tadbirkorlik subyektlarining dehqon xo'jaliklarini hisobga olmaganda, YaIMdagi ulushi esa 12,5 %ga yetdi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirishga erishildi. Natijada YaIMning yillik o'sishi 1996-yilda 1,7 %ni, 1997-yilda 5,2 %ni, 1998- va 1999-yillarda 4,4 %ni tashkil etdi.

Uchinchi bosqich – 1999-2000-yillar bosqichida esa asosan o'rta va yuqori energiya kompleksiga qarashli yirik korxonalar xususiylashtirildi. Prezident I.A.Karimov Birinchi chaqiriq Oliy Majlisining

IVX sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» mavzusidagi ma'ruzasida va Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis I sessiyasida qilgan ma'ruzalarida iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi:

- mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish. Buning uchun xususiy mulkchilik sektorining iqtisodiyotdagi, YaIMda salmog'ini oshirish orqali uning yetakchi o'rinda turishini ta'minlash, shuningdek, kichik va o'rta biznes, tadbirkorlikni rivojlantirish;

- haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish;

- bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

- valuta tizimini va bozorini erkinlashtirish, so'mning qadrini oshirish va bosqichma-bosqich uning boshqa valutilarga erkin almashuvini ta'minlash;

- davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalar xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishini cheklab qo'yish. Eng muhimi, bozor qonunlarining, iqtisodiy faoliyat va tanlash erkinliklarining amal qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlash.

To'rtinchi bosqich – 2001–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik sektorini kengaytirish, jadallashtirish sari tub burilishlar davri hisoblanadi».¹ Ushbu bosqichga xos muhim xususiyat – davlat obyektlarining to'liqligicha xususiy mulk sifatida sotilishi ulushining ortib borishi hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshira borish hamda kichik va o'rta biznes subyektlari erkinliklarining kengaytirilishi va ularning faoliyatiga davlat organlarining noo'rin aralashuvining kamaytirilishi oqibatida 1999–2001-yillarda ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, iqtisodiyotning nodavlat sektorining YaIMdagi ulushi 2002-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 74,1 %ni, sanoat mahsuloti hajmida 70,8 %ni, yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti hajmida 99 %ni, ish bilan band bo'lganlar sonida 76 %ni tashkil etdi.

Respublikamizda 2002-yil 1-yanvar holatiga ko'ra kichik va o'rta

¹ Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish farovon hayotimiz garovidir –Toshkent. 2007 25-b

tadbirkorlik subyektlarining soni 201,9 mingdan oshdi. Ularning YaIMdagi ulushi 33,8 %ni tashkil etdi. Bu 1999-yilga nisbatan 4,7 %ga ko'pdir. Ushbu ijobiy o'zgarishlarning natijasi o'laroq 2001-yili ilk bor YaIM hajmi islohotlarga bo'lgan davr darajasidan ortib, 1991-yilga nisbatan 103 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkin iqtisodiyot tamoyillarini hayotga joriy qilish asosida mulkdorlar sinfini amalda shakllantirish lozim bo'ladi. O'zbekistonda yakka shaxsga tegishli va ulushli xususiy mulk egalariining turli qatlamlaridan iborat salkam 6,6 mln mulkdorlar mavjud bo'lib, jumladan 18,1 foizini aksiyadorlar, qariyb 50,0 foizini dehqon xo'jaliklari egalari tashkil etdi. Xususiy sektor va mulkdorlar mavqeyini oshirish uchun tarmoq tuzilishini belgilab beruvchi yirik korxonalarni xususiylashtirish va bu jarayonlarga xorijiy investorlarni hamda aholining keng qatlamlarini jalb qilish ishlari jadallashtirildi.

Beshinchi bosqich – 2006–2008-yillarda amalga oshirilgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-iyuldagi «2006–2008-yillarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish to'g'risida»gi farmonining qabul qilinishi bilan boshlandi. Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik rolining ortib borishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, yuridik va jismoniy shaxslarning binolari, inshootlari bilan band bo'lgan yer uchastkalari xususiy mulk huquqida xususiylashtirilishi ushbu bosqichning muhim xususiyati hisoblanadi. Albatta ushbu holat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-iyulda qabul qilingan «Yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari va inshootlari bilan band bo'lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida»gi farmonidan kelib chiqadi.¹ Xususiylashtirilgan 622 ta korxonalarning davlatga tegishli aksiyalarini birjada va undan tashqaridagi bozorlarda sotishga ruxsat berilgan. Bunda davlatga tegishli bo'lgan mulkning 10 %, 25 % va hatto 60 %ni sotish mo'ljallanmoqda. Oqibatda ulushli mulkdorlar aksiyadorlar qatlami ancha kengayadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bosqichlarini quyidagi chizma orqali aks ettirish mumkin.

Erkin iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlaydigan va xorijiy investitsiya ishtirokidagi xo'jalik subyektlari faoliyat yurita boshlaydi.

¹ Lex uz sayti ma'lumotlari


Aksiyadorlar esa real ulushli mulk egasiga aylanib, dividend olish imkoniyatlari ortadi.

Oltinchi bosqich asosan 2009–2011-yillar. Bu davrda iqtisodiyotni tartiblash va uning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish negizida barqaror iqtisodiy-ijtimoiy o'sish ta'minlanadi. Kelajakda, ya'ni 2010-yilga kelib, yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6-8 %ga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'ati 7-8 %ga, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish sur'ati 6-7 %ga yetkazish mo'ljallangan edi¹. 2010-yilgacha bo'lgan davrda YaIMning tarkibi ham o'zgarib, uning daromadlar bo'yicha tarkibida ish haqining ulushi hozirgi 35 %dan 60-65 foizga o'sishi, oqibatda aholi turmush darajasining ancha yaxshilanishi, YaIMning energiya sig'imi esa 1,6–1,8 barobarga kamayishi ko'zda tutilgan edi. Shu davrda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2,3–2,5 barobarga o'sishi kuzatildi.

Mamlakatimiz hayoti ijtimoiy hayoti, shu jumladan, iqtisodiyot sohasida erkinlashtirish, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatining bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan jarayonlarning keng amalga oshirilishi taraqqiyot va o'zgarishlarga yangi kuch baxsh etdi.

6.4.1-diagramma

Xususiy lashtirilgan barcha korxona va obyektlar, dona



¹ Ахмедов Т.М., Трушин Э.Ф. и др. Концептуальные основы формирования экспортноориентированной структуры экономики Республики Узбекистан // Экономический вестник Узбекистана. 2000. № 2. С. 4

Davlatning nazoratchilik va boshqaruvchanlik vazifalari qisqartirilib, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvi cheklandi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirish, ularga qulay iqtisodiy sharoit yaratish maqsadida soliq yuki sezilarli darajada pasaytirildi. Agar iqtisodiyotdagi soliq yuki 2000-yilda YaIMga nisbatan 37,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilga kelib 22,0 foizni tashkil etdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi tasdiqlanayotgan budget loyihasiga ko'ra, 2012-yil 21,6 foizga, 2013-yil esa 21,3 foizga tushirilishi mo'ljallangan.¹

Iqtisodiy islohotlar orqali eng avvalo, iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishning muhim vositasi hisoblangan mulkchilik munosabatlarini mazmunan o'zgartirishga harakat qilindi. Rejali iqtisodiyot sharoitida, asosan, davlat mulki monopoliyasining hukmronligi va bu munosabatlarga o'ta rasmiyatchilik bilan yondashuv mulkchilik munosabatlarining samaradorligini deyarli yo'qqa chiqargan edi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishi ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, o'rta muldorlar sinfini shakllantirish muammolariga qaratildi.

Iqtisodiyot nodavlat sektorining shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu boradagi islohotlarning aniq maqsadga yo'naltirilgani, har tomonlama asoslangani va izchilligini ta'minlash maqsadida hukumat darajasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi ishlab chiqilib, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirildi.


Bugungi kunda ro'yxatga olingan korxonalarning umumiy sonida nodavlat mulk shaklidagi korxonalarning ulushi 92,7 foizga yetdi. Bunday korxonalarning 54,3 foizini fermer va dehqon xo'jaliklari, 20,8 foizini xususiy korxonalar, 0,9 foizini xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar, 0,3 foizini aksiyadorlik jamiyatlari, 16,4 foizini boshqa turdagi korxonalar tashkil etdi.

Mamlakatimizda haqiqiy mulkdorlar sinfining qaror topishi jadal sur'atlarda amalga oshib, tez orada ijobiy natijalar berdi. O'zbekistonda iqtisodiyotning nodavlat sektori katta salmoqqa ega bo'lib bordi. Agar 1990-yilda respublika YaIM umumiy hajmining atigi 38,1 foizi iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, bu ko'rsatkich 81,7 foizni tashkil etdi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi

¹ O'lam uz ma'lumotlari

mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va chakana savdo aylanmasi eng yuqori salmoq – 99, 9 foizga yetdi.


6.4.2-diagramma



2007–2010-yillar davomida iqtisodiyotning nodavlat sektorida band bo'lganlarning o'rtacha soni 11,1 foizga ortgan va aksincha, davlat sektorida band bo'lganlar soni 1,6 foizga kamaygan.

6.4.3-diagramma

Mulkchilik shakli bo'yicha YaIM ishlab chiqarish tarkibi (foiz)



«Hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 82,5 foizdan ko'prog'i, sanoat mahsulotining va pudrat ishlari hajmlarining 90 foizdan ortig'i, qishloq xo'jaligi va savdo sohasining deyarli barcha mahsuloti iqtisodiyotining nodavlat sektori ulushiga to'g'ri kelmoqda. Xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, iqtisodi-

yotda davlat ishtirokining kamaytirilishi hamda xususiy mulkchilikning roli va ahamiyati oshirilishi istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning g'oyat muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda».¹

Haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish va xo'jaliklarni erkin iqtisodiyot tamoyillari asosida yuritadigan muhitni yaratish uchun kichik va o'rta biznes, tadbirkorlik rivojlantiriladi. Bugungi kunga kelib, tadbirkorlarda huquqiy, iqtisodiy bilimlarning, marketing savodxonligining yetishmasligi, o'z huquqlarini himoya qila olmasliklari, biznes rejalarini tuzish tajribalarining yetishmasligi, ularni yangi, zamonaviy texnika va texnologiya, moliyaviy mablag'lar, xomashyo resurslari bilan ta'minlanishida qiyinchiliklarning mavjudligi hamda hali ham turli davlat va nazorat organlarining ularning faoliyatiga noo'rin aralashuvining saqlanib qolayotganligi tadbirkorlikning yanada keng rivojlanishiga va o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan ushbu muammolarning hal etilishi muhim, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiyot tamoyillarini hayotga joriy qilish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- iqtisodiyot subyektlari faoliyatini davlat organlari tomonidan byurokratik (ma'muriy) reglamentatsiyalar, ya'ni tartiblash ko'lamini qisqartirish;

- mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun teng sharoitlarni yarata borish. Buning uchun ayrim strategik ahamiyatga ega bo'lmagan korxonalar va tarmoqlar uchun asossiz ravishda berilgan imtiyozlarni va ular uchun yaratilgan qulay sharoitlarni bekor qilish lozim bo'ladi;

- raqobat muhitini rivojlantirish va iqtisodiy, tabiiy monopoliyalar sonini imkon darajasida qisqartirish;

- mulkdorlar huquqlarini himoya qilishni va ularning mas'uliyatlarini kuchaytirish, samarali «o'yin qoidalarini», ya'ni tadbirkorlik faoliyati erkinliklarini ta'minlovchi hamda xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy bazani takomillashtirib borish;

- tadbirkorlarga huquqiy, iqtisodiy bilimlarni egallashiga sharoit yaratib berishni kengaytirish.

¹ Uza uz O'zbekiston Respublikasining xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2012-yil 14-noyabr

VII BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING HUDUDIY TARKIBI VA UNI PROGNOZLASH

7.1. Real sektor iqtisodiyotining hududiy tarkibi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruv organlarining nafaqat respublika miqyosidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki ishlab chiqarishning hududiy darajadagi ko'rsatkichlariga ham ehtiyoji kuchaydi. Natijada hududlar ishlab chiqarish tarkibi va uning qismlari mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollarini belgilash uchun asos sifatida qaraladigan bo'ldi.

Yalpi hududiy mahsulotning ahamiyati – respublikaning iqtisodiy qudratiga baho berishga hududiy jihatdan yondashish, alohida hududlar subyektlarining iqtisodiy faoliyat natijalari va ularning mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash va hududlarni rivojlantirish istiqbollarini aniqlashda namoyon bo'ladi.

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – muayyan davr mobaynida (bir yilda) mintaqa hududida barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarilgan jami tovar hamda xizmatlarning qiymatini o'zida namoyon etadi. Yalpi hududiy mahsulot yaxlit holdagi mamlakat iqtisodiyoti uchun hisoblanuvchi yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning hudud darajasidagi ko'rinishi hisoblanadi.

Hududlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'satish tarkibini o'rganishdan asosiy maqsad – mamlakatning alohida hududlari bo'yicha olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish uchun makroiqtisodiy ma'lumotlar bazasini tashkil qilishdan iboratdir. Ushbu ma'lumotlar bazasi alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari hamda ularning joriy davrdagi iqtisodiy ahvolini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni olish, hududlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va rolini aniqlash, joylarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi hamda mamlakat ichidagi alohida hududlarning rivojlanish darajasini o'zaro taqqoslash imkoniyatini berishi zarurdir.

Hozirgi kunda respublikamizning turli hududlarida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o'z natijasini bermoqda. Lekin ushbu sohada qo'lga kiritilayotgan natijalar turli xil hududlarda bir-biridan farqlanadi. Bunga asosiy sabab mamlakat miqyosida ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlarning joylarda mutasaddi tashkilotlar rahbarlari tomonidan turlicha darajada olib borilishidir

Shunday bo'lishiga qaramasdan, 2011-yilda mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari yuqori darajada bo'ldi (7.1.1-jadval).

7.1.1-jadval

Respublika hududlari bo'yicha sanoat mahsulotlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)¹

O'zbekiston Respublikasi	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Qoraqalpog'iston Respublikasi	111,2	118,4	109,2	112,0	112,5	103,0	109,4	112,1
ViLOYATLAR								
Andijon	90,0	134,5	124,4	118,9	123,4	118,9	109,4	108,3
Buxoro	103,9	102,1	101,9	111,9	107,0	104,4	110,3	107,1
Jizzax	122,7	131,6	109,7	109,2	109,0	105,4	119,3	116,4
Qashqadaryo	101,9	101,3	106,7	113,5	118,9	116,6	97,6	105,2
Navoiy	102,2	97,8	101,1	102,1	103,0	101,8	97,7	101,9
Namangan	126,1	114,0	108,6	107,1	115,2	113,0	123,7	116,1
Samarqand	97,3	108,9	123,2	120,7	124,2	112,0	120,0	111,4
Surxondaryo	107,9	104,2	109,2	109,6	111,8	106,6	112,9	107,2
Sirdaryo	106,7	103,7	113,8	105,1	105,1	109,3	111,6	118,9
Toshkent	108,8	100,1	106,6	113,3	100,3	107,5	109,2	104,3
Farg'ona	108,5	105,0	108,8	105,6	102,8	106,3	94,7	101,3
Xorazm	103,5	127,0	108,6	108,2	110,3	103,2	110,5	112,0
Toshkent shahri	113,2	116,3	124,0	121,1	136,8	110,2	116,4	111,8

7.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatimizning aksariyat viloyatlari respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, ayrimlarida bunday holat kuzatilmaydi. Masalan, Sirdaryo (118,9 foiz), Jizzax (116,4 foiz), Namangan (116,1 foiz), Xorazm (112,0 foiz), Samarqand (111,4 foiz), Andijon (108,3 foiz), Surxondaryo (107,2 foiz), Buxoro (107,1 foiz) viloyatlari,

¹ O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi 2011 62-bet va O'zbekiston Respublikasining yillik statistik to'plamlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi (112,1 foiz) va Toshkent shahri (111,8 foiz) o'rtacha respublika ko'rsatkichidan (108,3 foiz) yuqori natijalarga erishdilar. Ushbu hududlarda ijobiy natijalarga ma'lum darajada yetakchi tarmoqlarda tayyor va mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishi hisobidan erishildi. Qashqadaryo (105,2 foiz), Toshkent (104,3 foiz), Navoiy (101,9 foiz) va Farg'ona (101,3 foiz) viloyatlarida esa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish respublika ko'rsatkichidan past darajada bo'ldi.

Bundan tashqari iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha ham ijobiy natijalarga erishildi (7.1.2-jadval). Xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha Sirdaryo (141,1 foiz), Namangan (125,2 foiz), Qashqadaryo (120,6 foiz), Navoiy (119,3 foiz), Jizzax (117,6 foiz), Toshkent (116,8 foiz), Xorazm (115,4 foiz) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (119,9 foiz) va Toshkent shahri (111,7 foiz) respublika darajasidan (111,0 foiz) yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Andijon (102,7 foiz), Buxoro (108,7 foiz), Surxondaryo (109,1 foiz), Samarqand (109,2) va Farg'ona (109,8 foiz) viloyatlarida esa iste'mol tovarlari ishlab chiqarish respublika ko'rsatkichidan past darajada bo'ldi. Bunga asosiy sabab hamon jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining mamlakatimizga qandaydir darajadagi ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan viloyatlarda mahalliy bozorlarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning sust amalga oshirilishi hamda joylarda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan kichik biznes tuzilmasini qo'llab-quvvatlash mexanizmining sekinlik bilan joriy qilinishi hisoblanadi.

Jadval ma'lumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bugungi kunda nafaqat sanoat mahsulotlari, balki xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha ham yuqori va past darajada rivojlangan hududlar o'rtasidagi farq saqlanib qolmoqda. Bu esa, davlat tomonidan hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning aniq maqsadlarga yo'naltirilishini va hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda ish yuritishni talab etadi.

YaHMni hisoblash jarayonida uning nafaqat moddiy unsurlari, balki nomoddiy unsurlari ham katta ahamiyatga egadir. Vaholanki, hozirgi kunda mamlakatimizda YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi salmoqlidir (50,5 foiz). Ushbu xizmatlar tarkibida aholiga pullik xizmat ko'rsatish masalalari esa alohida e'tiborga molik.

Respublika hududlari bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari (foizda)¹

	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
O'zbekiston Respublikasi	106,2	116,6	120,7	118,6	117,7	113,9	112,0	111,0
Viloyatlar								
Qoraqalpog'iston Respublikasi	105,9	114,8	111,3	118,9	115,2	105,2	109,2	119,9
Andijon	92,6	147,0	128,5	124,6	122,2	123,7	109,0	102,7
Buxoro	105,9	107,1	104,1	101,9	106,9	109,8	109,0	108,7
Jizzax	123,6	116,2	115,7	115,3	116,0	94,7	118,7	117,6
Qashqadaryo	113,1	112,1	116,7	115,2	117,3	111,5	111,1	120,6
Navoiy	115,5	99,5	105,7	110,2	115,2	107,0	115,1	119,3
Namangan	124,3	104,5	113,6	112,1	116,3	105,5	115,5	125,2
Samarqand	92,4	103,7	132,0	118,2	124,5	118,1	120,5	109,2
Surxondaryo	111,9	97,4	126,2	109,5	112,6	105,1	105,5	109,1
Sirdaryo	110,1	98,3	123,1	119,4	117,8	106,1	107,7	141,1
Toshkent	112,5	109,7	108,1	121,3	111,3	111,5	119,5	116,8
Farg'ona	111,3	108,0	109,3	111,7	106,0	109,0	110,7	109,8
Xorazm	107,8	97,3	121,0	124,6	108,9	106,5	112,6	115,4
Toshkent shahri	111,3	114,0	128,6	122,0	123,6	111,0	110,0	111,7

¹ O'zbekiston Respublikasi statistik axborotnomasi 2011 62-bet va O'zbekiston Respublikasining yillik statistik to'plamlari

Respublikamizda 2011-yilda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha aksariyat hududlarda respublika ko'rsatkichidan past natijalar qayd etildi.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda joriy yilda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish jon boshiga hisoblanganda o'rtacha respublika darajasidan (113,0 foiz) yuqori bo'lgan hududlar Toshkent shahri (118,8 foiz), Toshkent (114,2 foiz) va Surxondaryo (113,5 foiz) viloyatlari hisoblanadi. Ushbu hududlarda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish ko'rsatkichining yuqori sur'atlarda rivojlanishiga ta'lim, sog'liqni saqlash, shahar transportida yo'lovchilarni tashish, aloqa va internet xizmatlarining o'sishi sabab bo'ldi.

Ishlab chiqarishning hududiy ko'rsatkichlari har qanday davlatning nafaqat mahalliy boshqaruv organlari balki markaziy boshqaruv organlarining ham e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Shuning uchun ham hududlar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash joylarda milliy hisobchilik tizimining rivojlanishini rag'batlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda milliy hisoblar tizimining hududiy darajadagi ko'rsatkichlari ushbu sohada dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlari andozalariga mos keladi.

O'zbekistonda MHT sohasida ishlab chiqarishning hududiy ko'rsatkichlarini hisoblash jarayonida quyidagilar ustuvor masala hisoblanadi:

Joriy narxlarda YaHMni hisoblash. Bu o'z navbatida, ishlab chiqarishning hududiy qiymat ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon yaratadi;

Ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlarini doimiy narxlarda hisoblash. Bu YaHMning fizik hajmi indeksini aniqlashga yordam beradi;

Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchilarning birlamchi daromadlarini (ish haqi, ishlab chiqarishga sof soliqlar, foyda va boshqa daromadlar) hisoblash. Bu daromadlar shakllanishining hududlar bo'yicha holatini tahlil qilishga imkon yaratadi.

Bizga ma'lumki, YaIMni hisoblashning uchta usuli mavjud (qo'shilgan qiymatlar, daromadlar va xarajatlar usuli). YaHMni ham xuddi shu usullar bo'yicha hisoblash mumkin. YaIMni uchala usul bo'yicha hisoblashda qanday uslubiyat qo'llaniladigan bo'lsa, YaHMni hisoblashda ham xuddi shunday uslubiyat va tamoyillardan foydalaniladi (faqat hududiy darajada). YaIMni hisoblash usullarini biz 3.1-bobda batafsil ko'rib chiqqanmiz. Shuning uchun ham YaHMni hisoblashning uchala usuliga batafsil to'xtalib o'tmaymiz.

7.2. Real sektor iqtisodiyoti hududiy tarkibining prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash

Hozirgi kunda mamlakatimizda YaHMni hisoblash jarayonida asosiy usul – qo'shilgan qiymatlar usuli hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, YaIMni qo'shilgan qiymatlar va daromadlar usuli bo'yicha hisoblash yaxlit iqtisodiyotning alohida soha va tarmoqlari miqyosida olib borilsa, yalpi hududiy mahsulotni ushbu usullar bo'yicha hisoblash esa faqatgina tarmoqlar bo'yicha olib boriladi.

YaHMni joriy va o'zgarmas narxlarda hisoblash mintaqa iqtisodiyotiga obyektiv baho berishda muhim ahamiyatga ega. Lekin YaHMni bunday tarzda hisoblash jarayonida mamlakat miqyosida YaIMni hisoblashda qo'llaniladigan umumiy tamoyillar o'zgarmay qoladi.

Ilmiy kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda YaHMning alohida unsurlarini xarajatlar usuli bo'yicha hisoblash faqatgina ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilish maqsadlarida amalga oshirilmoqdi. Chunki hozirgi kunda YaHMning xarajatlar bo'yicha ko'rsatkichlari hududlar bo'yicha to'laqonli hisoblamalarni tuzish imkonini bermaydi. Bunga asosiy sabab zarur bo'lgan axborot manbalarining yetarli darajada emasligidadir. Masalan, muayyan bir hududda uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol uchun qilgan xarajatlarini hisoblash uchun ularning shu yerda xarid qilgan tovar va xizmatlari qiymatiga ushbu hudud rezidentlarining tashqaridan (boshqa hududdan) sotib olgan tovarlar va xizmatlari qiymati qo'shilishi kerak. Ushbu hududdagi norezidentlarning shu yerda xarid qilgan tovar va xizmatlarni sotib olish uchun qilgan xarajatlarini esa ayirib tashlash kerak.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, hududiy miqyosda uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol xarajatlari bo'yicha ko'rsatkichlarga ega bo'lish uchun quyidagicha qo'shimcha ma'lumotlar zarur bo'ladi:

- muayyan hudud rezidentlarining tashqaridan hamda norezidentlarning ushbu hududdan xarid qilgan tovar va xizmatlarining qiymati o'rtasidagi farqni hududlar bo'yicha taqsimlash;

- muayyan hudud rezidentlarining boshqa hududlarda qilgan xaridlari to'g'risidagi haqqoniy ma'lumotlarni to'plash.

- yalpi hududiy mahsulotni joriy bozor narxlarida hisoblash bizga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibini aniqlash,

– hududlar bo'yicha iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatni aniqlash;

– YaHM bilan mahalliy budjetdagi kamomadni aniqlash.

Ammo joriy narxlarda hisoblangan YaHMning qiymati mintaqa iqtisodiyotining haqiqiy holatini to'g'ridan to'g'ri aks ettira olmaydi. Chunki tovar va xizmatlarning hajmi o'zgarmagan yoki kamaymagan hollarda ham narxning oshishi evaziga YaHMning ham o'sishi sodir bo'lishi mumkin. Vaholanki, jamiyatning ehtiyojini faqat tovar va xizmatlar qondira oladi. Tovlar va xizmatlarning qancha (pulda) turishiga qarab emas, ularning miqdor va sifatiga qarab iste'mol yuz beradi. YaHMning haqiqiy dinamikasi to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun uni hisoblashda narxning ta'sirini bartaraf etish, ya'ni YaHMni o'zgarmas narxlarda hisoblash zarur.

YaHM va uning tarkibiy qismlarini o'zgarmas narxlarda hisoblash ushbu ko'rsatkichning fizik hajmi indeksini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. YaHMning fizik hajmini hisoblash mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, iqtisodiy konyunktura va tarkibiy o'zgarishlardagi natijalarni hamda shu orqali mintaqaning iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini belgilashda juda katta yordam beradi. Aynan shu ko'rsatkich YaHM hajmining haqiqiy o'zgarishini, ya'ni real ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, YaHMning fizik hajmi indeksi quyidagi formula yordamida aniqlash maqsadga muvofiqdir:

$$J_q = \Sigma q_1 p_0 / \Sigma q_0 p_0 (3)^1.$$

Bu yerda: J_q – YaHM fizik hajmining indeksi;

q_1 va q_0 – joriy va bazis davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi;

p_0 – ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bazis davrdagi narxi;

$\Sigma q_1 p_0$ – joriy davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati (bazis narxlarda);

$\Sigma q_0 p_0$ – bazis davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati (bazis narxlarda).

Bu indeksni hisoblashda narx o'zgarishsiz olinadi, ya'ni har ikkala davr uchun ham bazis davrdagi narx (p_0) qatnashadi.

Mamlakatning alohida hududlari uchun YaHM deflyatorini hisoblash ham muhim ahamiyatga egadir. YaHMning deflyatori joriy davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar birligi narxining bazis

¹ Abdullayev Yo. Makroiqtisodiy statistika 100 savol va javob – T. «Mehnat», 1998 149-b

davrida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar birligi narxiga nisbatan qanday darajada o'zgarganligini ifodalaydi. U nominal YaHM hajmini real YaHM hajmiga bo'lish yordamida aniqlanadi:

YaHM deflyatori = Nominal YaHM / Real YaHM (4)¹.

Bu ko'rsatkich yordamida joriy davrdagi turli mahsulotlarning o'rtacha narxini bazis davrdagi o'rtacha narx bilan taqqoslash imkoniyati tug'iladi. YaHM minglab turdagi moddiy ne'matlar va xizmatlarni o'z ichiga olganligi uchun ular bo'yicha o'rtacha narxni hisoblash imkoniyati nihoyatda murakkab jarayon. Shu sababli YaHM deflyatori iste'mol savatchasiga kiritiladigan moddiy ne'matlar narxlari asosida hisoblanadi.

Respublikamizda Iqtisodiyot vazirligi va Davlat Statistika qo'mitalari hamda ularning joylardagi tashkilotlari tomonidan iste'mol savatchasiga kiritilgan tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishi muttasil ravishda kuzatib boriladi hamda shu narxlarga asoslanib deflyator hisoblanadi:

$$D_1 = IS_1(R_1) / IS_1(R_0) (5)^2.$$

Bu yerda: D_1 – joriy yil deflyatori;

$IS_1(R_1)$ – joriy davrdagi iste'mol savatchasining qiymati (joriy naxlarda);

$IS_1(R_0)$ – joriy davrdagi iste'mol savatchasining qiymati (bazis naxlarda).

Agar deflyator birdan katta bo'lsa, u holda mintqa inflatsion yoki aksincha bo'lsa, deflyatsion jarayonni boshidan kechirayotgan bo'ladi. Deflyator yordamida har bir kishining, oilaning va barcha aholining turmush darajasi qanday o'zgarayotganini aniqlash mumkin.

Yalpi hududiy mahsulotni ham yalpi ichki mahsulotni ham hisoblash tamoyillari va uslubiylati bir xil hisoblanadi. Lekin ushbu tamoyil va uslubiylatlarni hududiy hisob-kitob jarayonlarida qo'llash masalalari hozirgacha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Natijada, mamlakatimizda hududlar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida turli xil qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bular milliy hisoblar tizimini tuzishning asosi bo'lgan hududiy miqyosdagi rezidentlik³ tamoyili bilan bog'liqdir. Unga ko'ra har bir mintqa – alohida mustaqil iqtisodiy hudud sifatida, ular

¹ Abdullayev Yo Makroiqtisodiy statistika 100 savol va javob –T «Mehnat», 1998 152-b

² O'sha manba 153-b

³ Rezident bu – iqtisodiy manfaati muayyan mamlakatning iqtisodiy hududiga qaratilgan institutsion birliklardir

o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar esa iqtisodiy birliklar o'rtasidagi aloqa sifatida qaralishi zarur. Ushbu tamoyilning hududlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida qo'llanilishi hozirgi kunda mamlakatimizda o'z yechimini topmagan asosiy muammolardan biridir. Chunki rezidentlik tamoyili asosida hududiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun zarur bo'lgan axborotlar yetarlicha darajada taqdim qilinmaydi.

Ushbu tamoyilning hududlar bo'yicha ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblashda qo'llanilishi uncha katta qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki muayyan hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar turli xil hisobotlar orqali yetarli darajada taqdim qilinadi. Shunday ekan, mamlakatimizda YaHMni qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblashni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Lekin hozirgi kunda rezidentlik tamoyilining daromadlar bo'yicha bir qator ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida qo'llanilishi katta qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Chunki boshqa bir hudud yoki mamlakat rezidenti bo'lgan uy xo'jaliklarining muayyan (ushbu) hududdan olgan daromadlari bo'yicha ma'lumotlarni aniqlashning imkoniyati yo'q. Bundan tashqari, muayyan (ushbu) hudud rezidenti bo'lgan uy xo'jaliklarining ham, boshqa bir hududlardan olgan daromadlari bo'yicha axborot manbalari mavjud emas. Bu esa hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda MHT sohasidagi eng asosiy muammolardan biridir.

Rezidentlik tamoyilining tovar va xizmatlar oqimini hisob-kitob qilish jarayonida qo'llanilishi ham katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Chunki bunday hisob-kitoblarni yuritish uchun boshqa bir hudud rezidenti hisoblangan uy xo'jaliklarining ushbu hududdan xarid qilgan tovar va xizmatlari, hamda ushbu hudud rezidentlarining boshqa hududlardan xarid qilgan tovar va xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni to'plashning o'zi juda katta muammodir.

Hozircha bunday ma'lumotlarni to'plashning imkoniyati yo'q. Chunki bu masala ko'proq aniq statistik va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, uzoq muddatli davrni hamda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Shuning uchun hozircha pirovard iste'molning alohida tarkibiy qismlarini hisoblab turish maqsadga muvofiqdir. Bu hisob-kitoblar muayyan hududda joylashgan uy xo'jaliklarining (rezidentlar ham norezidentlar ham), davlat boshqaruv organlarining va

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining pirovard iste'mol uchun qilgan barcha xarajatlari hamda asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi zarur.

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash jarayonidagi konseptual muammolardan yana biri bu – markaziy boshqaruv organlarining xizmatlarini hududlar bo'yicha taqsimlash masalalaridir. Bu ko'proq milliy va hududiy ko'rsatkichlar hamda ularning tarkibiy qismlarining bir-biriga muvofiq kelmaslik holatlari bilan bog'liqdir.

Markaziy boshqaruv organlariga tegishli bo'lgan tashkilotlar mamlakatning turli xil hududlarida o'z vazifalarini bajaradilar, ya'ni iqtisodiyotning boshqa sektorlariga har xil xizmatlar ko'rsatadilar. Lekin ular tegishli vazirlik yoki boshqarma tomonidan bevosita nazorat qilina-di va moliyalashtiriladi. Shuning uchun ham ushbu tashkilotlar aksariyat holatlarda o'z faoliyatlari to'g'risida mahalliy boshqaruv organlariga hisobot bermaydilar. Ular asosan butun bir mamlakat bo'yicha iqtisodiyotning barcha subyektlariga turli xildagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadilar. Bular, mudofaa, fan, madaniyat va shu kabi xizmatlardir. Ulardan ayrimlari esa hududiy miqyosda individual xizmatlarni taklif qiladilar (rezidentlarga ham, norezidentlarga ham). Bular, markaziy boshqaruv organlariga tegishli bo'lgan ta'lim muassasalarining xizmatlari, tibbiy xizmatlari, madaniy xizmatlar va shu kabilardir.

MDH mamlakatlari markaziy boshqaruv organlariga tegishli bo'lgan muassasalar ko'rsatayotgan xizmatlarining natijalarini hududlarga kiritish masalalariga turlicha yondashadilar:

Rossiya, Turkmaniston va Ukraina davlatlarida markaziy boshqaruv organlarining boshqarmalari qayerda joylashishidan qat'iy nazar, ularning bo'limlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini o'sha bo'limlar qaysi hududda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, o'sha hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari tarkibiga kiritishadi;

Ozarbayjon markaziy boshqaruv organlarining boshqarmalari qaysi hududda joylashgan bo'lsa, ularning bo'limlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini ham o'sha hududga kiritadi;

Gruziya, Qirg'iziston, Tojikiston* va O'zbekiston* umummilliy ma'lumotlarni (ko'rsatkichlarni) mamlakatning barcha hududlari bo'yicha teng taqsimlaydilar.¹

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda ushbu masalani ijobiy hal

* Faqat individual xizmatlar natijalari

¹ Иванов Ю. Н. «Вопросы статистики», 2007 №12 стр. 11

qilish uchun birinchi yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday yondashuv milliy hisoblamalarni hududiy miqyosda tuzish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda hududlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Bundan tashqari alohida hududlar bo'yicha davlatning odilona iqtisodiy-ijtimoiy siyosat olib borishini osonlashtiradi. Qolaversa, EMHT-95 andozasi va Yevrostatning ushbu masalaga doir tegishli hujjatlarida ham yuqorida ko'rsatilgan birinchi yondashuvga alohida e'tibor qaratilgan.

YaHMni joriy va o'zgarmas narxlarda turli xil usullar bo'yicha hisoblash jarayonida hisob-kitob ishlarini tashkil qilish masalalari ham muhim ahamiyatga egadir. Hududlar bo'yicha ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlarni hisoblashni tashkil qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi.

- «Pastdan yuqoriga» hisoblash usuli;
- «Yuqoridan pastga» hisoblash usuli;
- Aralash usul.

«Pastdan yuqoriga» hisoblash usulida – ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar muayyan hudud miqyosida to'planadi. Keyin esa ushbu ko'rsatkichlar umumlashtiriladi. Barcha hududlar bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar mamlakat bo'yicha ishlab chiqarish darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga teng bo'lishi kerak. Ushbu usulning afzalligi shundaki, bunda muayyan bir hudud miqyosidagi axborot manbalaridan to'g'ridan to'g'ri foydalanish mumkin. Bu usulni qo'llashdagi qiyinchilik esa – hududiy va milliy ko'rsatkichlarning bir-biriga muvofiqligini ta'minlovchi hisoblamalarning yetishmasligida namoyon bo'ladi.

«Yuqoridan pastga» hisoblash usulida – ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar mamlakat miqyosida to'planadi. Keyin boshqa bilvosita ko'rsatkichlar yordamida ushbu ma'lumotlar hududlar bo'yicha taqsimlanadi. Ushbu usulning afzalligi shundaki, unda milliy va hududiy ko'rsatkichlar oldindan bir-biriga muvofiqlashtirilib boriladi. Salbiy jihati – hududiy ma'lumotlarni yig'ish bilvosita ko'rsatkichlarga asoslanganligi uchun to'planayotgan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi susayadi.

Aralash usul bu – yuqorida ko'rsatilgan ikkita usulning uyg'unlashgan holda qo'llanilishidir. Bunda muayyan hudud miqyosidagi ko'rsatkichlardan qisman foydalaniladi. Faqatgina mamlakat miqyosida qo'llash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar esa, «yuqoridan pastga» yo'naltirilgan hisoblash usuli yordamida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda hududlar bo'yicha ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlarni hisoblashni tashkil qilishda jiddiy muammolar mavjud. Bulardan eng asosiysi – hududiy darajada iqtisodiyotdagi ayrim subyektlarning iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha axborotlarning yetishmasligidir. Bu asosan, transport (temiryo'l transporti) xizmatlari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining xizmatlari va tashqi savdoning holatini ifodalovchi ayrim ko'rsatkichlar bilan bog'liq. Ushbu muammo nafaqat O'zbekiston, balki boshqa MDH davlatlari uchun ham tegishlidir. MDH davlatlarida bu muammoning hal qilinishi turlichadir. Masalan, Ozarbayjon va Turkmaniston «pastdan yuqoriga» yo'naltirilgan hisoblash uslubidan, Gruziya, Qozog'iston va Qirg'iziston «Yuqoridan pastga» yo'naltirilgan hisoblash uslubidan, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston va Ukrainada esa aralash uslubdan foydalaniladi.¹ Demak, ularning ayrimlari faqatgina butun respublika miqyosida hisoblash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni «yuqoridan pastga» yo'naltirilgan hisoblash usuli orqali mintaqalar bo'yicha taqsimlab chiqsa, boshqalari esa aralash usulni qo'llab, ko'rsatkichlarni mintaqalar bo'yicha taqsimlamaydi, aksincha ularni umumlashtiradi.

Hududiy darajada iqtisodiyotdagi ayrim subyektlarning iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha axborotlarni yig'ish uchun qo'shilgan qiymatning alohida tarkibiy qismlari (ish haqi va foyda) ni «yuqoridan pastga» yo'naltirilgan hisoblash usuli orqali hisob-kitob qilish maqsadga muvofiqdir. Ishchi va xodimlarga ish haqi qaysi hududda to'lanadigan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich shu hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga kiritilishi kerak.

Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilishga yordam beradigan bir qator ko'rsatkichlarning mavjudligi iqtisodiy siyosat olib borish uchun nafaqat alohida mintaqalar uchun, balki respublika hukumati uchun ham juda muhimdir.

Umuman yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Mamlakat iqtisodiyotida alohida hududlarning o'ri va rolini tahlil qilish uchun YaIMda YaHMning ulushi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. YaHM ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qismini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi turli hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini taqqoslash yoki o'sha hududlarning mamlakat bo'yicha o'sish sur'atlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

¹ Иванов Ю.Н. «Вопросы статистики». 2007 №12 стр. 9

Mintaqa iqtisodiyotida alohida tarmoqlarning ahamiyatini tahlil qilish uchun yalpi qo'shilgan qiymatning joriy baholarda hisoblangan ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bir qator davrlar uchun o'zgarmas narx-larda olingan ma'lumotlar muayyan hududdagi ishlab chiqarishning tar-moq tuzilishidagi o'zgarishlarni, tovar va xizmatlarni yaratish hamda bo-zor va nobozor xizmatlari o'rtasidagi nisbatlarni aniqlashda yordam beradi.

Hududlar bo'yicha tarmoq tuzilishi bilan yalpi ishlab chiqarish sur'atlarini, oraliq iste'mol bilan esa yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini joriy va o'zgarmas baholarda taqqoslash – tarmoqlarda ishlab chiqarishning o'sishi (pasayishi) da ishlab chiqarish hajmining hamda narxlar darajasining o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini aniqlashda yordam beradi.

Hududlar bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda YaHMni yaratishda band bo'lgan har bir ishchi kuchiga to'g'ri keladigan mahsulotni ifodalovchi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga egadir. Uning joriy baholarda hisoblangan mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini boshqa hududlarning hamda boshqa tarmoqlarning shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslash mumkin. YaHMning uni yaratishda band bo'lganlarga to'g'ri keladigan qismining o'zgarmas baholarda hisoblanishi mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilishda yordam beradi.

Mintaqalarda daromadlar shakllanishining tahlil qilinishi – YaHMning daromadlar turlari bo'yicha tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida olib boriladi. Bu ma'lumotlar alohida hudud va tarmoqlarda ishlab chiqarish natijasida shakllangan daromadlarning yollanma ishchilar, korxona va tashkilotlar hamda davlat o'rtasida qanday taqsimlanganligini o'zida aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlarni alohida bitta mintaqadagi mavjud bo'lgan tarmoqlar o'rtasida ham, bir nechta mintaqalardagi tarmoqlar o'rtasida ham o'zaro taqqoslash mumkin.

7.3. Hududlar real sektori iqtisodiyotini modernizatsiyalash va istiqbolini belgilash masalalari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayo-nining o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko'ra, hozirda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining milliy hisoblar tizimiga ta'sirini o'rganish va uni ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Modernizatsiya tushunchasiga aksariyat holatlarda juda tor ma'noda yondashishadi. Vaholanki, modernizatsiya tushunchasi juda keng qamrovli bo'lib, u nafaqat sanoat tarmoqlarini texnik-texnologik jihatdan yangilashni, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarini tubdan o'zgartirishni, shu bilan birga milliy hisoblar tizimini ham takomillashtirishni hayotiy zaruratga aylantiradi.

Qolaversa, hozirgi kunda respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarining MHTda aks ettirilishi, ularning obyektiv iqtisodiy qonunlar asosida o'zaro ta'sirining ilmiy tadqiq qilinishi eng dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Modernizatsiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida amal qiladi:

1) uning majmuaviyligi, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishi;

2) uning tizimiyliigi, ya'ni jamiyat hayotining har qanday tarkibiy qismi yoki yaxlit sohasining o'zgarishi boshqalarining o'zgarishiga olib kelishi. Masalan, madaniy va siyosiy o'zgarishlar iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga olib keladi va aksincha;

3) uning global tavsifi – u dastlab bir necha ilg'or mamlakatlarda boshlanib, keyinchalik butun dunyoga keng tarqaladi;

4) uning davomiylik tavsifi – modernizatsiya qisqa davrda ro'y bermaydi, balki u bosqichlarga bo'linadi (islohotlarni amalga oshiruvchi yetakchi guruhning paydo bo'lishi, o'zgarishlarni ilgari surish, ular natijalarining tarqalishi va mustahkamlanishi);

5) tabaqalashganlik tavsifi – modernizatsiya turli mamlakatlarda turlicha ro'y berib, u yoki bu holda milliy madaniyat va axloq an'analariga tayanadi.¹

Modernizatsiyaning iqtisodiyot tarmoq va sohalariga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda amalga oshishi mumkin:

Modernizatsiyalash tufayli iqtisodiyotda mutlaqo yangi ishlab chiqarish yoki tarmoqning paydo bo'lishi:

Sanoat tarmoqlarida diversifikatsiyaning kuchayishi;

Sanoat tarmoqlarining texnik va texnologik jihatdan qayta qurollanishi;

Tarmoq ishlab chiqarishiga yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish hisobiga undagi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi;

¹ Конкурентоспособность и модернизация российской экономики <http://www.moderniz.org.ru/>

Tarmoq yoki soha ishlab chiqarishining texnik jihatdan takomillashtirilishi natijasida undagi mehnat sig'iminining qisqarishi;

Tarmoq ishlab chiqarishida umuman yangi yo'nalish va mazmundagi texnologiyalarning paydo bo'lishi natijasida eski ishlab chiqarishning qisqarishi yoki umuman barham topishi va h.k.

Modernizatsiya jarayoni nafaqat iqtisodiyot, davlat qurilishi va boshqaruvi, sud-huquq tizimi, ommaviy axborot vositalari, tashqi siyosat sohalariga, balki milliy hisoblar tizimiga ham bevosita aloqador hisoblanadi. Chunki modernizatsiya jarayonlari turli sharoitlarda milliy hisoblar tizimiga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Ularning o'zaro ta'sirini 7.4.1-jadval orqali ifodalash mumkin.

7.4.1-jadval

**Real sektor iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonlarining
MHTga ta'siri¹**

Modernizatsiyalash natijasidagi o'zgarishlar	O'zgarishlarning MHTga ta'siri
Iqtisodiyotda mutlaqo yangi ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) yoki tarmoqning paydo bo'lishi	MHTning negizi bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflash (OKED)ning yangi andozasini yaratishga zaruriyat tug'diradi
Iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida tovar va xizmatlar diversifikatsiyasining kuchayishi	MHT tamoyillari asosida diversifikatsiyalashuv darajasini hisoblashni taqozo qiladi.
Sanoat tarmoqlarining asosiy kapital uchun investitsiya kiritishi va texnik-texnologik jihatdan qayta qurollanishi	Iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida jalb qilingan texnika va texnologiyalarning yangilanish koeffitsiyentlarini hisoblash jarayonlarini takomillashtirishni talab qiladi
Yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi hisobiga eski ishlab chiqarishning qisqarishi yoki umuman barham topishi.	MHTning negizi bo'lgan tarmoqlararo balans jadvalining tarkibiy qismlarini qayta ishlashni talab qiladi

7.4.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari MHTni takomillashtirishni hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylantirib qo'ymoqda.

Modernizatsiya jarayonlarida iqtisodiyotda mutlaqo yangi ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) yoki tarmoqning paydo bo'lishi obyektiv holatdir. Masalan, bundan 15-yil ilgari respublikamizda uyali aloqa xizmatidan foydalanishni tasavvur qilib bo'lmagandi. Hozirgi kunda esa

¹ Ushbu jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ushbu xizmat turidan foydalanuvchilar soni 22,7 million kishidan oshdi (mamlakat aholisining deyarli 80 foizi). 2010-yilda har ming nafar odamga 800 donadan ziyod telefon to'g'ri keldi.¹ Bundan tashqari, mamlakatimiz sanoat korxonalari tomonidan o'tgan yili 160 dan ortiq turdagi yangi tovar va mahsulotlar, jumladan, mutlaqo yangi texnologik platforma negizida «Spark» yengil avtomobili, katta hajmda yuk tashiydigan «MAN» avtomobillarini, energiya tejaydigan lampalar, «LG» rusumidagi jahonga mashhur holodilniklarni yig'ish, kaliy o'g'itlari va boshqa muhim mahsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborildi.² Bu esa, o'z navbatida, yangidan paydo bo'lgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohaslarini davlat reestriga kiritishni, MHTning negizi bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflash (OKED)³ni takomillashtirishga zaruriyat tug'diradi.

Ta'kidlash joizki, respublikamizda 2004-yilgacha barcha statistik va buxgalteriya hisobotlari XXB tizimining negizi bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining umumiy tasniflagichi (OKONX)⁴ga asoslangan edi. 2004-yilning birinchi choragidan boshlab ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va keng ommaga yetkazish MHT uslubiya-tida keng qo'llaniladigan iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflash (OKED) bo'yicha amalga oshirildi. 2011-yilning birinchi choragidan boshlab uni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi va iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning yangi na'munasi (OKED-2) amaliyotga joriy qilindi. Biroq, shunday bo'lishiga qaramasda amaliyotda OKONXning ham ayrim unsurlaridan foydalanilmoqda. Bunday o'tish davrida qator muammolar yuzaga keladi. Bular, ikkita tasniflagich (OKONX bilan OKED)ning bir-biriga muvofiq kelishidagi muammolar, ya'ni iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida yuzaga keladigan nomutanosiblik: MHTni tuzish uchun zarur bo'ladigan turli xil ko'rsatkichlar (buxgalteriya va statistik hisobotlar shakli)ning bir-biriga mos kelmasligi va hokazolar. Bundan tashqari, mamlakat hisobchilik tizimida amal qilayotgan tasniflagichlar bir-biriga hamda xalqaro andozalarga to'liq mos kelishi zarur. Hozirgi kunda respublikamizda amal qilayotgan xalqaro tasniflagichlar tizimi jahon andozalari

¹ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo'ljallangan prognozlar statistik to'plam -T «O'zbekiston», 2011 50-bet

² Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi -T O'zbekiston, 2011 -48 bet

³ Общероссийский классификатор видов экономической деятельности

⁴ Общероссийский классификатор отраслей народного хозяйства

talablariga to'liq javob bermaydi. Chunki xalqaro tasniflagichlar tinimsiz ravishda yangilanmoqda.

Fikrimizcha, iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashda OKED-2 ning barcha unsurlarini qisqa muddat ichida amaliyotga to'liq joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni to'g'ri va to'liq hisoblash turli xildagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash hamda hisoblash jarayonlariga bog'liq. Hozirgi kunda mamlakatimizda statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va hisoblash jarayonlari uchta bosqichda, ya'ni tuman, viloyat va respublika darajalarida hisoblanadi. Birinchi bosqichda, tuman darajasidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar to'planib, ular ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Keyin ushbu ma'lumotlar asosida viloyat miqyosida hududiy ko'rsatkichlar hisoblanib, respublikaga taqdim qilinadi. Oxirgi bosqichda, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan respublika miqyosidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va hisoblash har xil ko'rinishga ega bo'lgan hisobot shakllarida amalga oshirilmoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashning bunday tarzda tashkil qilinishi, birinchidan, markaziy apparatda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan ekspertlarga tuman darajasidagi dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, muayyan ko'rsatkichlarning sifatini nazorat qilishga to'sqinlik qiladi. Ikkinchidan, hisobot shakllarning har xil bo'lishi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarini hisobga olgan holda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun zarur bo'lgan turli xildagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash hamda hisoblash uslubiyatini takomillashtirish zarur.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari sanoat tarmoqlarida diversifikatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Diversifikatsiya – yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovar va xizmatlar hajmi hamda ular assortimentining kengayish jarayonidir. Uning darajasini MHT tamoyillari asosida hisoblash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda diversifikatsiya darajasini hisoblash ishlarini amaliyotga kiritish iqtisodiy hodisa va jarayonlarning o'zgarish tendensiyalarini o'rganishda, sanoatning tarmoq va sohalari o'rtasidagi

mutanosiblik hamda muvozanatlikni tahlil qilishda, istiqboldagi vazifalarni belgilashda juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun diversifikatsiya darajasini bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali har tomonlama baholash maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi quyidagilardan iborat:

Yalpi ichki mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymat ulushini ifodalovchi ko'rsatkich. Ushbu ko'rsatkich yaxlit iqtisodiyot va uning tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotga nisbati orqali aniqlanadi:

$$Q.Q.u = (QQ/YaIM) * 100 (1)^1$$

bu yerda: Q.Q.u – yalpi ichki mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymat ulushi;

QQ – qo'shilgan qiymat;

YaIM – yalpi ichki mahsulot.

Iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yaratilgan yalpi mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymatning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, modernizatsiya darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha.

Sanoat tarmoqlaridagi diversifikatsiyalashuv darajasining ma'lum mezonlar asosida baholanishi istiqboldagi vazifalarni belgilab olishda muhim ahamiyatga ega. Uning darajasini quyidagi mezonlar asosida guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- diversifikatsiyaning past darajasi (20 %dan past);
- diversifikatsiyaning mo'tadil darajasi (20 %dan 50 %gacha);
- diversifikatsiyaning o'rtacha darajasi (50 %dan 60 %gacha);
- diversifikatsiyaning yuqori darajasi (60 %dan yuqori).

Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, 2011-yilda mamlakatimizda sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi.²

Yangi quvvatlarning ishga tushirilishi, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish nafaqat tarmoqning YaIMdagi ulushi o'zgarishiga, balki ichki tarmoq tarkibining o'zgarishiga ham olib keldi. 2000–2011-yillar davomida sanoat ishlab chiqarish tarkibida yoqilg'i sanoati, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati tarmoqlarining ulushi ortdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida

¹ Ushbu formula mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

² Karimov I A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T. «O'zbekiston» 2012. –B. 6

mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ining ulushi 2000-yilda 9.9 foizdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2008–2011-yillar davomida 16 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

Qo'shilgan qiymat YaIMning tarkibiy qismi sifatida daromadlar shakllanish natijalarini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. U yalpi va oraliq mahsulotlarning farqi sifatida namoyon bo'ladi. Yalpi mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymat ulushining ortishi daromadlar va iqtisodiyot tarmoqlarida tovar hamda xizmatlar ishlab chiqarish samaradorligining oshganligini bildiradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida qo'shilgan qiymat ulushining ortishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

Ishlab chiqarish hajmini yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlar hisobiga kengaytirish;

Moddiy va nomoddiy xarajatlar (oraliq iste'mol) hajmini kamaytirish.

Diversifikatsiya darajasining keyingi ko'rsatkichi bu – yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushidir. Yangi turdagi tovar va xizmatlar – korxonalar tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, modernizatsiyalash natijasida yaratilgan mahsulotlardir.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$YaTXU = (YaTXQ/YaIM) \cdot 100 \text{ (2)}^1$$

bu yerda: YaTXU – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushi; YaTXQ – yangi turdagi mahsulot qiymati; YaIM – yalpi ichki mahsulot.

YaIM tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlarning ulushi ularning darajasi bo'yicha quyidagi mezonlar asosida guruhlanishi maqsadga muvofiqdir:

- past daraja (15 %dan past);
- mo'tadil daraja (15 %dan 20 %gacha);
- o'rtacha daraja (20 %dan 30 %gacha);
- yuqori daraja (30 %dan yuqori).

yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash dasturlari va chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Muayyan davrda mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmida yangi turdagi tovar va xizmatlar ulushining ortishi tarmoqda ular nomenklaturasi tarkibida ijobiy o'zgarishlar

¹ Ushbu formula mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

kuzatilayotgani hamda diversifikatsiya jarayonlarining chuqurlashayotganini bildiradi.

Mamlakatimizda 2011-yilda o'tkazilgan Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsion birjada dunyoning 51 mamlakatidan 700 dan ortiq xorijiy firma va kompaniya vakillari qatnashdi, 500 dan ortiq yangi turdagi mahsulot namoyish etildi, qiymati 2 trillion 600 milliard so'mlik shartnomalar imzolandi.

Bu raqam oldingi yarmarkadagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 marta ko'pdir. Yarmarkada umumiy qiymati 2 milliard 700 million dollarlik eksport bitimlari tuzildi va bu 2009-yil darajasidan 1,2 barobar ortiqdir.¹

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari natijasida sanoat tarmoqlarining asosiy kapital uchun investitsiya kiritishi va texnik-texnologik jihatdan qayta qurollanishi yanada jadallashadi. Shularni inobatga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz iqtisodiy siyosati istiqbolini belgilab berishda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida investitsiyalarni keng jalb etish, ayniqsa, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, jahonda investitsiyalar uchun qat'iy raqobatli kurash izchil davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish, mablag'larni mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Korxonalarni texnik-texnologik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalashga kiritilgan investitsiyalar darajasi quyidagi mezonlar asosida guruhlariga bo'linadi:

- past daraja (4% dan past);
- mo'tadil daraja (4% dan 10% gacha);
- o'rtacha daraja (10% dan 15% gacha);
- yuqori daraja (15% dan yuqori).

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari mustaqillik yillarida mamlakatimizga 33.6 milliard AQSH dollaridan ziyod xorijiy investit-

¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini eshirishga xizmat qiladi –T. «O'zbekiston» 2011. 48-bet

siyalar jalb etilgan. Mazkur investitsiyalarning barchasi asosan yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni rivojlantirishga yo'naltirildi. Xususan, oxirgi yillarda amalga oshirilishi tugallangan yirik investitsion loyihalarni keltirib o'tadigan bo'lsak, ular quyidagilardir:

- Yangi rusumdagi 480 dan ortiq MAN og'ir yuk avtomobillari hamda 7797 dona Spark M300 yengil avtomobillar ishlab chiqarildi (investitsiya hajmi – 31,3 million dollar va 3 million yevro);

- Yiliga 30.0 milliard metr kub gazni tranzit qilish quvvatiga ega bo'lgan «O'zbekiston-Xitoy» gaz quvuri ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 3168,9 million dollar);

- Ko'kdumaloq konida yiliga 6 milliard kub metr yo'ldosh gazlarni utilizatsiya qilish stansiyasi qurildi (investitsiya hajmi – 373,0 million dollar);

- Xauzak konida yiliga 3 milliard metr kub gazni birlamchi tayyorlov moslamasi ishga tushirildi (LUKOYL bilan hamkorlikda) (investitsiya hajmi – 302,8 million dollar);

- Toshguzar – Boysun – Qumko'rg'on yo'nalishidagi yangi temiryo'l (investitsiya hajmi – 34,4 milliard so'm);

- Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog' – Nukus temiryo'l liniyasining 6 ta yangi raz'ezdi ishga tushirildi (investitsiya hajmi – 6,8 milliard so'm);

- To'qimachi-Angren yo'nalishida yangi temiryo'llar (investitsiya hajmi – 85,4 million dollar).¹

Ko'rsatkichlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan bir sharoitda ham O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhidan joy olmoqda. Bunda, albatta, mamlakatimizda olib borilayotgan strategik maqsadlarni ko'zlagan investitsion dasturlar va tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lmoqda. Bu Prezidentimiz tomonidan mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonining to'g'ri va aniq olib borilayotgani natijasidir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua – Toshkent Iqtisodiyot – 2011 88- bet

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotning modernizatsiyalashish darajasini MHT tamoyillari asosida hisoblash ushbu sohada hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan Davlat dasturlarining qay darajada amalga oshirilganligini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli modernizatsiya darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

VIII BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK – REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING MUHIM BO‘G‘INI

8.1. Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o‘rni va ahamiyati

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlaridan boshlab, jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirib, shu asosda odamlarda mulkdorlik tuyg‘usini uyg‘otishga jiddiy e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan, byurokratik to‘siqlarni olib tashlash, yuqori likvidli mahsulotlar, xomashyo va materiallarni ochiq birja savdolarida sotishni tashkil etish, yangi tuzilayotgan tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olishni osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashga doir qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Kichik biznesning ravnaq topishini rag‘batlantirish va tadbirkorlarning haq-huquqlarini himoya qilish yo‘lida davlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda nodavlat va xalqaro tashkilotlar ham faoliyat olib bormoqda. Ular kichik korxonalar va yakka tadbirkorlarga amaliy yordam berish, jamiyatda tadbirkorlik harakatini kengaytirish hamda rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga munosib hissa qo‘shishmoqda.

Tadbirkor va ishbilanmonlarning bunyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o‘zining ijobiy samarasini bera boshladi. Eng asosiysi – so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari barqaror tus oldi. Erkin iqtisodiyotning sinalgan tamoyillariga izchil amal qilinishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati oshdi. Pirovardida, kichik biznesning shakllari kengayib, aholining mulkka egalik tuyg‘usi uyqona boshladi. Bu hol kichik va o‘rta mulkdorlar sinfining shakllanishiga keng yo‘l ochib bermoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari, ularning faoliyati haqida

gapirganda, ushbu subyektlar faoliyat olib borayotgan muhit – iqtisodiy, ijtimoiy va qonuniy tizim muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun ma'lum iqtisodiy zona mamlakat mi-solida olinadigan bo'lsa, shu mamlakatda ushbu faoliyat bilan shug'ullanishning qonuniy asoslari qay darajada yo'lga qo'yilgan va u amaliyotda qanday ishlamoqda; mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun iqtisodiy imkoniyatlar mavjudmi. ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanishning ijtimoiy jihatlarini o'zida nimalarni mujassam etadi, degan savollar tug'ilishi tabiiy. Shunday ekan, yuqoridagi faktorlarni o'z ichiga oluvchi O'zbekistondagi kichik biznes va tadbirkorlik muhitini o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ushbu sohani yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-bob 53-moddasida «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin», deb yozilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 18-moddasida har bir fuqaro mulkka egalik qilish, mulkni meros qoldirish, banklarda omonatlarga ega bo'lish, tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi va qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanish, yollangan mehnatdan foydalanish, yuridik shaxslarni tashkil qilish, savdo qilish va majburiyatlarda ishtirok etish, keltirilgan zararni qoplashni talab qilish, ish faoliyatini tanlash va boshqa huquqlarga egadir deb ko'rsatilgan.

Demak, yuqorida keltirilganlarga asoslanib aytish mumkinki, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda asosiy qonuniy hujjat – 2000-yil 25-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni xizmat qiladi. Ushbu Qonunning asosiy vazifasi fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va

manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ushbu Qonunning 3-moddasiga ko'ra, «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat» deb ko'rsatilgan. Demak, ushbu ta'rifga asosan, tadbirkorlikda 4ta asosiy tushuncha muhim o'rin egallaydi, ya'ni – tavakkalchilik, mulkiy javobgarlik, daromad olish va qonunda man etilmagan tashabbuskor faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari deb, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga aytiladi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga esa, yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmagani holda jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash, huquqsiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasi yoki er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, yer (xotin)ning roziligi talab qilinadi.

Mikrofirmalarga:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi;

- xizmat ko'rsatish sohasida va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi;

- ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan korxonalar kiradi.

Kichik korxonalarga esa:

- yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va

asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat, ishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan korxonalar kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ushbu sektorning milliy iqtisodiyotdagi o'rini yanada mustahkamlash hamda samaradorligini oshirishga yo'naltirilmoqda. Ushbu islohotlar quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tizimini osonlashtirish va ro'yxatga olish muddati hamda xarajatlarini kamaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun beriladigan ruxsatnoma va litsenziyalar olish tizimini takomillashtirish;

- kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, ya'ni soliq yukini kamaytirish va soliq to'lashning soddalashtirilgan tizimini joriy qilish;

- kichik biznes subyektlarini tekshirish borasida olib borilayotgan islohotlar;

- moliyaviy institutlar va kichik biznes subyektlarining o'zaro munosabatlari;

- kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy operatsiyalarida (eksport va import) faol ishtirok etishini ta'minlash;

- kichik korxonalarda kadrlar siyosatini takomillashtirish;

- kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda nodavlat tashkilotlarning rolini oshirish va boshqalar.

8.2. Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari

Bozor iqtisodiyotining muhim belgisi xususiy biznes va tadbirkorlikdan iborat bo'lib, uning erkin rivojlanishi milliy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyoti hamda jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Uning afzalligi bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslashuvchanligi, kam mablag' talab etishi, yangiliklarni tez joriy etish va tarqatish imkoniyatlariga egaligida namoyon bo'ladi. Shu boisdan, kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi Buyuk Britaniyada 50-53%, Fransiya 55-62 %, AQSHda 50-52 %, Yaponiyada 52-55 %ni tashkil etadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes sohasida ish bilan band aholining 50-70 %, hatto 80 %ga yaqini faoliyat yuritadi.

Ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlarining 90,1 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xo'jalik subyektlari, shu jumladan, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratilganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faoliyatiga davlat hamda turli nazorat organlarining noo'rin aralashuvi holatlari sezilarli darajada edi.

Bu borada qilingan ishlar hamda kichik biznes korxonalarini tuzish shartlarining soddalashtirilishi, ularning xomashyo va kredit zaxiralari, asbob-uskuna va materiallardan doimiy foydalana olish tartiblarining birmuncha erkinlashtirilishi natijasida faoliyat ko'rsatayotgan KBXT (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik) subyektlarining ulushi o'sib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi darajasi aholining har 1000 kishiga to'g'ri keladigan KBXT korxonalari soni bilan ham izohlanadi. Bunday korxonalar soni AQSHda 74,2 ta, Yaponiyada 49,6 ta, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o'rtacha 45 ta, shu jumladan, Fransiya 35 ta, Germaniya 37 ta, Buyuk Britaniya 46 ta, Italiya 68 tani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 2008-yilda 15,2 taga etdi. Vaholanki, 1999-yilda har 1000 kishiga 5,1 ta KBXT korxonasi to'g'ri kelar edi.

Ma'lumotga ko'ra, bir korxonaga to'g'ri keladigan aylanma

mablagʻ xususiy korxonalarda eng kam miqdorni, boshqa mulkchilik shakllari, shu jumladan, xoʻjalik birlashmalari tarkibidagi tadbirkorlik korxonalarida ancha koʻp miqdorni tashkil etadi. Bu ular faoliyat koʻrsatish sharoitlarining xususiy tadbirkorlik korxonalarinikiga nisbatan ancha yaxshi ekanligidan dalolat beradi. Ushbu xoʻjalik shakllari oʻrtasida teng iqtisodiy sharoit va imkoniyatlar yaratish uchun xususiy tadbirkorlikka moliyaviy, moddiy-texnikaviy resurslar bilan taʼminlanishida, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashda ustuvorliklar berish maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyot taraqqiyo-tida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda qishloq xoʻjaligida dehqon va fermer xoʻjaliklarining tarmoq yalpi mahsulotida ulushining oʻsib borayotganligini koʻrsatmoqda. Bunga sabab qishloq xoʻjaligi shirkat xoʻjaliklarining tugatilishi asosida koʻplab fermer va huquqiy shaxs maqomidagi dehqon xoʻjaliklarining tashkil etilishidir. Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi rolining ortib borayotganligiga qaramasdan ularning ulushi ancha pastdir. Bunga qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalarning qishloq joylarda tashkil etilishi jarayonining ancha sust amalga oshirilayotganligi sabab boʻlmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida aholining ish bilan bandlik darajasi ham yildan yilga oʻsib bormoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlari aholini ish bilan bandligidagi ulushi jihatidan rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashib bormoqda. Masalan, yuz kishidan kam xodimlar ishlaydigan kompaniyalarda umumiy ish bilan band aholining AQSHda 40 % dan koʻprogʻi, Daniyada 60 %, Italiyada 70 %i banddir. 500 kishidan kam ishlovchilari boʻlgan korxonalarda esa bu koʻrsatkich Belgiyada 60 %dan koʻproqni, Yaponiyada 70 %ni, Portugaliyada 80 %ga yaqinni tashkil etadi.

Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligi ham oshmoqda. Bu esa ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiya bilan qayta qurollantirish asosida bozor talablariga mos, sifatli tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakat tashqi savdo aylanmasida, eksport va importidagi ulushi ham oʻzgarmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ularning samaradorlik ko'rsatkichlari yaxshilanib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi mavqeyini yanada oshirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish maqsadga muvofiqdir:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish mexanizmi yanada ixchamlashtirilganligini inobatga olib, endilikda ular ro'yxatga olingandan so'ng to faoliyatini boshlaguniga qadar bo'ladigan protseduralarni aniqlashtirish;

- ularning huquqiy madaniyatini oshirish, o'z huquqlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish;

- ularning moliyaviy, moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanishidagi muammolarni hal qilish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdagi mavjud muammolarni yechish.

Mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning ustuvor o'rin olishi demokratik jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb etadi.

8.3. Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash yuzasidan qator farmon hamda qarorlar qabul qilingan. Buning natijasida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish, ularning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash hamda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishga shart-sharoit yaratish bo'yicha muayyan ijobiy ishlar amalga oshirildi. Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadallashtirish hamda uning yanada rivojlanishi uchun tegishli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003-yil 24-yanvardagi Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Unga binoan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zaruriy sharoit yaratish, ularni moliyaviy, moddiy-texnikaviy resurslar bilan ta'minlash, tadbirkor va xorijiy investorlar manfaatlari hamda huquqlarini muhofaza qilish uchun iqtisodiy-huquqiy asoslarni mustahkamlash vazifasi belgilangan.

Xususiy tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun yetarli huquqiy, iqtisodiy sharoitni vujudga keltirish maqsadida 2003-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Xususiy korxona to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish mexanizmini osonlashtirish maqsadida «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida» 2003-yil 20-avgustda Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda rozilik beruvchi tashkilotlar soni keskin qisqartirildi. Ularni davlat ro'yxatidan o'tkazadigan tashkilot, ya'ni tuman (shahar) hokimliklari huzurida Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tashkil etildi. Respublika bo'yicha tashkil etilgan 210 ta inspeksiya 2003-yil 1-oktabrdan o'z faoliyatini boshladi. Ular tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish bilan bir vaqtda ularni soliq va statistika organlari hisobiga qo'yishadi, shtamp va muhr tayyorlashga ruxsat beradi, injenerlik kommunikatsiyalari, ya'ni gaz, energiya, suv, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya, telefon aloqasiga qo'shilishga hamda uy-joyni korxona uchun obyektga aylantirishga, tadbirkorlik obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilishga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Biznesni boshlashga imkon yaratuvchi, ro'yxatga olish, undan keyingi jarayonlarni yanada soddalashtirish va yengillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-mayda qabul qilgan «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish bo'yicha xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida»gi Qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qarorga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning soddalashtirilgan reglamenti, aniq muddat va daqiqa (soat)lari ko'rsatilgan sxemasi amalga oshirilmoqda. Ro'yxatdan o'tish muddati 7 ish kunidan 2 ish kuniga qisqartirildi.

Shuningdek, ruxsat berish bilan bog'liq ko'pgina jarayonlar takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 21-sentabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish taomillari turlarini qisqartirish va soddalashtirish to'g'risida»gi qaroriga binoan, 12 ta bir-birini qaytaruvchi, ortiqcha ruxsatnoma va kelishuvlar bekor qilindi.

Endilikda tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tganidan keyingi faoliyatini tartibga solishga doir huquqiy asosni takomillashtirish,

O'zstandart, O'zgeodezkadastr va shu kabi tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan munosabatlarni tartibga solish, bajarilgan ishlar uchun to'lovlar miqdorini kamaytirish hamda qat'iy shkalasini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi, ayniqsa, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni raqbatlantirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi va uning joylardagi bo'linmalari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashlari, ularning monitoringini yuritishlari hamda yuzaga kelgan muammolarning sabablarini aniqlab, ularni hal qilish uchun tegishli huquqiy, me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqib, hukumatga yoki Ishbilarmon tadbirkorlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining Oliy Majlisidagi fraksiyasiga taqdim etishlari maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, erkin tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratish maqsadida tadbirkorlik korxonalari rahbarlarining huquqshunos maslahatchilari, advokatlari ham bo'lishini ta'minlash, ularning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishga o'rgatadigan, huquqiy bilim hamda malakalarini oshirishlari uchun o'quv markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi, «Tadbirkor ayol» uyushmasining joylardagi bo'linmalarida advokatlar shtatini tashkil etish hamda ularga a'zo tadbirkorlarga imtiyozli narxlarda xizmat ko'rsatishlarini ta'minlash lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank xizmatini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

- tadbirkorlik subyektlarining hisob raqamidan turli to'lovlar uchun ruxsatsiz pulni chegirib olishni qat'iyan man etish. Har qanday to'lovlar uchun pul o'tkazish faqat uning egasining ruxsati yoki sud qarori bilan amalga oshirilishi kerak;

- tadbirkorlarga ular bankda ochgan hamma hisob raqamidan qonunda man qilinmagan istalgan turdagi to'lovlar uchun foydalanishga ruxsat berish;

- tadbirkorlik subyektlari o'z mablag'idan xo'jalik faoliyatida naqd pul yoki pul o'tkazish ko'rinishida teng foydalanishga imkon beruvchi

tartib o'ratilishi lozim. Naqd pulsiz operatsiyalar o'tkazishning afzal-ligini ta'minlovchi tizim va tartib shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir;

– tijorat banklari o'z mijozlari haqida soliqqa tortish idoralariga ma'lumot yetkazishdan ozod qilinishlari lozim. To'lanmagan soliq va biror ish yuzasidan tekshiruv olib borilayotgan ishlar bundan mustasno bo'lishi kerak;

– mikroreditlash ustuvor ravishda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun berilishi kerak. Ana shunda ular yordam oluvchilardan o'zini-o'zi boquvchi va soliq to'lovchiga aylanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun muhim muammolardan biri moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanish hisoblanadi. Hozirgi davrda ularni moddiy xomashyo resurslari bilan ta'minlashda tovar xomashyo birjasi, ulgurji savdo tashkilotlarining roli ortib bormoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirish – ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu borada Prezident I.A.Karimov «Bizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizda kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qanday katta ahamiyat berilayotganini yana bir bor takrorlashning hojati yo'q, deb o'ylayman. Faqat e'tiboringizni shunga qaratmoqchimanki, kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi».

8.4. Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiyot istiqbollari bashoratlash

Bashoratlash jamiyat hayotining barcha sohalarida nazariya bilan amaliyot orasidagi eng muhim aloqalarni bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Uning yordamida turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish yo'nalishlari xo'jalikka jalb qilinishi mumkin bo'lgan foydali qazilma zaxiralari, quvvatli mehnat resurslari, aholining soni aniqlanadi. Shuningdek, ilmiy texnika taraqqiyotining eng samarali yo'nalishlari, xalq iste'mol tovarlariga talablarning o'zgarish yo'nalishlari va shartnomalarni ishlab chiqishda hisobga olish zarur bo'lgan qator boshqa omillarga oydinlik kiritiladi. Bashoratlash obyektini rivojlanish

yo'nalishlarini tahlil qilish asosida uni rivojlanish jarayonlarining shakllanishiga yo'naltirilgan inson ongli faoliyati turidir. Bashoratlash ikkita savolga javob berishi kerak:

1) Kelajakda barcha kutilishi mumkin bo'lgan ehtimolliklar nimadan iborat?

2) Berilgan maqsadga erishish uchun qanday shart-sharoitlar o'zgarishi kerak?


Hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy holatni bashoratlash, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish masalalari bilan iqtisodiy idoralar shug'ullanishmoqda. Ammo hali bu sohada olib borilayotgan nazariy va amaliy ishlarda anchagina muammolar mavjud bo'lib, bu olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirishni talab etmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududiy tarkibini shakllantirish va rivojlantirishning quyidagi strategik yo'nalishlari ajratib ko'rsatiladi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nisbatan kam rivojlangan tuman va shaharlarga investitsiya jalb etishni ko'paytirish,
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik past darajada rivojlangan tuman va shaharlarda tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarni, ekologik omillarni hisobga olgan holda infratuzilmani sifat jihatidan takomillashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatini boy mahalliy mineral, issiqlik-energetik va boshqa resurslarga asoslangan holda diversifikatsiyalash.

Bayon qilingan shart-sharoitlar va yo'nalishlar asosida tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta qurish ikkita bosqichga ajratiladi. 2009-2012-yillarni o'z ichiga olgan birinchi bosqichda viloyatda mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan, kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillaridan yuqori darajada foydalangan holda hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish va uning YaHMdagi ulushini 60-70 foizga yetkazish vazifalari hal qilinadi.

Ikkinchi bosqich 2012-2015-yillarni o'z ichiga oladi. U kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat iqtisodiyotidagi mavqeyini yanada mustahkamlash, kichik va yirik biznes subyektlari o'rtasidagi sinergetik samaralarni, kooperatsion aloqalarni kuchaytirish, kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni viloyat iqtisodiy rivojlani-shining, iqtisodiy o'sishning barqaror manbasiga aylantirish bilan tavsiflanadi.



8.4.1-rasm. Mintaqa hududlaridagi tadbirkorlik rivojlanishini bashoratlash tizimi¹

Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ishlab chiqarish imkoniyatlarini tashkil qiluvchilari va soha taraqqiyotidagi muallif tasniflagan asosiy omillar ta'siri aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda esa, iqtisodiy imkoniyatlarning ta'sirida yer-suv, tadbirkorlik, ekologik imkoniyatlar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy demografik omillar ta'siri ham salmoqli bo'ladi.

Yuqoridagi bosqichlar asosida tadqiqotda optimistik (I) va pessimistik (II) variantlar amalga oshiriladi

¹ NM Djalilova Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy faolligini oshirishdagi o'rni. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya qo'lyozmasi. Toshkent – 2012-yil

Optimistik variant 2 ta asosiy holatga asoslanadi. kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga davlatning faol aralashuvi; tuman va shaharlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, iqtisodiyotning yanada erkinlashtirilishi, mamlakat va viloyat iqtisodiyotini modernizatsiyalashni jadallashtirish. Bu variant I-bosqichda ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega tuman va shaharlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish hamda tuman va shaharlarda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, kichik va yirik biznes kooperatsion aloqalarini rivojlantirish, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, qayta loyihalash, texnika bilan yangidan qurollantirishni nazarda tutadi. Pessimistik variant Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va joylashtirishning eskicha amaliyoti saqlanishi, joylarda davlatning kichik biznes subyektlari rivojlanishiga ma'muriy aralashuviz o'z hududlarida mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni hisobga oladi

Bu variant I-bosqichda ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega tuman va shaharlarda tadbirkorlik subyektlarining tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish hamda tuman va shaharlarda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, kichik va yirik biznes kooperatsion aloqalarini rivojlantirish, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, qayta loyihalash, texnika bilan yangidan qurollantirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilmaviy siljishlar asosida eksportni rag'batlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilishi lozim. Buning uchun kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tovar va xizmatlarini tashqi bozorda muvaffaqiyatli sota oladigan maxsus tashqi savdo tashkilotlarini rivojlantirish; sifatni boshqarishning xalqaro tizimini amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan tovarlar raqobatbardoshligini oshirish; eksportga chiqarilayotgan yuklarga transport xizmati ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

IX BOB. IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIDA ELEKTR ENERGIYASI TA'MINOTI SOHASI VA TO'LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

9.1. Respublika energetikasining hozirgi davrdagi ahvoli va istiqboldagi rivojlanishi

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlari tahlili jarayonida «Respublika energetika mustaqilligiga erishgan taqdirdagina to'la mustaqil bo'ladi», degan edi.

O'zbekiston energetikasi 2001-yildan ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil qilingan «O'zbekenergo» Davlat – aksiyadorlik kompaniyasi doirasida faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'mir sanoati korxonalari ham uning tarkibida bo'lib, kompaniya O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining qonuniy vorisi hisoblanadi.

Bugungi kunda Kompaniya tarkibida 53 ta korxona va tashkilotlar mavjud bo'lib, unga 39 ta ochiq aksiyadorlik jamiyatlari (OAJ), 11 ta unitar korxona (UK), 2 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) va kompaniyaning «Energosotish» filiali kiradi.

Iqtisodiy islohotlar yillarida sohaning energetik korxonalari har yili 48 mlrd.kVt.soatgacha elektr energiyasini va 10 mln Gkal dan ko'proq issiqlik energiyasini ishlab chiqarib, iqtisodiyot va aholining elektr va issiqlik energiyasiga bo'lgan talablarini to'liq ta'minlab kelmoqda.

O'zbekiston elektr stansiyalarining o'rnatilgan quvvati 12,3 mln kVt dan ortiq bo'lib, butun Markaziy Osiyo birlashgan energetika tizimida ishlab chiqariladigan quvvatning deyarli 50 foizini tashkil etadi.

Umumiy quvvati 12,0 mln kVtni tashkil etuvchi 39 ta elektr stansiyasiga ega bo'lgan «O'zbekenergo» kompaniyasi respublikada elektr energiyasini asosiy ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi bo'lib hisoblanadi. Blok stansiyalarning ulushi ishlab chiqaruvchi quvvatlar tarkibida 3 % dan kamroqni (320 MVt) tashkil etadi.

O'zbekiston energetika tizimining asosi umumiy quvvati 10,6 mln kVt bo'lgan issiqlik elektr stansiyalaridir. 5 ta yirik IESda quvvati 150 dan 800 MVt gacha bo'lgan energobloklar o'rnatilgan.

Issiqlik elektr stansiyalari ishlab chiqariladigan elektr energiyasi umumiy hajmining 85 foizini ishlab chiqaradi va respublika iste'molchilariga energiyani kafolatli yetkazib beradi.

Kompaniyaning barcha gidroelektr stansiyalari asosan GESlar kaskadlariga birlashtirilgan bo'lib, suv oqimi bo'ylab ishlaydi. Eng yirik GESlar Chirchiq daryosining yuqori qismida joylashgan (Chorbog', Xojikent, G'azalkent) va ularga quvvatni rostlash rejimida ishlashga imkon beruvchi suv omborlariga egadirlar.

Elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun IESlarda ishlatiladigan birlamchi energetik resurslar tarkibida tabiiy gaz yoqilg'isi 90,8 % ni, mazut 5,3 % ni, ko'mir 3,9 % ni va yerosti gazi 0,36 %ni tashkil etadi

Bu tendensiya yaqin kelajakda ham saqlanib qoladi – issiqlik elektr stansiyalari uchun asosiy yoqilg'i tabiiy gaz bo'lib qoladi, yoqilg'i balansida ko'mirning ulushi 10-12 % gacha ortadi.

Elektr quvvati va energiyasi respublika iste'molchilariga 0,4-500 kV kuchlanishli elektr tarmoqlari bo'ylab uzatiladi va taqsimlanadi.

Kompaniya elektr tarmoqlarining uzunligi 235 ming kilometrdan ortiq bo'lib, respublikaning barcha iste'molchilari markazlashtirilgan elektr ta'minoti zonasiga jalb qilingan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, yetkazib berilgan elektr energiyasining asosiy hajmi sanoat korxonalariga, qishloq xo'jalik iste'molchilariga hamda aholining zimmasiga to'g'ri keladi

Elektr energiyasining respublikamiz bo'yicha solishtirma iste'moli (1 kishi boshiga) yiliga 1940 kVt/s ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Mustaqil davlatlar hamdo'stligida – Armaniston, Gruziya, Moldaviya va Turkmanistonda bizdagidan biroz kamroq, Ukraina va Rossiya Federatsiyasida esa bizdagidan 2-3 marta ko'proq, Yevropa davlatlarida esa 3-10 marta ko'proqdir.

Respublika xalq xo'jaligini va aholisini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash, elektroenergetikani barqaror va samarali rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish hamda energiyani tejash borasidagi ishlarni o'tkazish maqsadida 2010-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston energetikasidagi ishlab chiqaruvchi quvvatlarni rivojlantirish va rekonstruksiya qilish dasturi qabul qilingan.

Hozirgi vaqtda xalqaro moliya institutlarining kredit resurslarini jalb etish bilan qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. 370 MVt quvvatli bug'-gaz qurilmasi negizida energiya ishlab chiqarishning

zamonaviy texnologiyalarini joriy etish bilan Toshkent IESni modernizatsiyalash bo'yicha ishlar boshlangan. Navoiy IES, Muborak va Toshkent IEMda rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash jarayonida ishlab chiqaruvchi uskunalarni yangilash nazarda tutilmoqda.

Umumiy narxi 53,7 mln AQSH dollariga teng bo'lgan 500 kV «Sirdaryo IES – So'g'diyona NS» HLni qurish bo'yicha ishlar boshlangan. Islom taraqqiyot bankining kredit resurslari hisobiga (25,1 mln AQSH dollari miqdorida) qurilishni qisman moliyalash nazarda tutilgan. Kompaniyaning o'z mablag'lari hisobidan, aloqani kuchaytirish maqsadida hamda energetika tizimining Markaziy qismida ortiqcha bo'lgan va Farg'ona vodiysida tanqis bo'lgan energiyani uzatish uchun Farg'ona vodiysida Yangi Angren IESdan chiquvchi 500 kV EUL bilan 500 kV «O'zbekiston» NS qurilishi boshlangan. Ushbu kompleksning barpo etilishi Farg'ona vodiysida joylashgan iste'molchilarning energiya bilan ta'minlanishi ishonchligini oshirishga hamda taxminan 700 MVt quvvatni energobog'lamga qo'shimcha yetkazib berishga imkon yaratadi va natijada kompaniyaning eksport potentsiali oshadi.

Umuman Dasturda taxminan 800 km Magistral EUL qurilishi hamda 220-500 kV tizim nimstansiyalarida 2,4 mln kVA transformator quvvatlarini ishga kiritish mo'ljallanmoqda.

Shu bilan bir qatorda, respublikada tiklanayotgan energetikani rivojlantirish, birinchi navbatda, gidroenergetika potentsialidan foydalanish bo'yicha muayyan ishlar o'tkazilmoqda.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida foydalanilayotgan suv xo'jaligi obyektlaridagi kichik gidroenergetikani rivojlantirish dasturi qabul qilingan va amalga oshirilmoqda. Bu dasturga ko'ra umumiy o'rnatilgan quvvati 420 MVt bo'lgan va yiliga o'rtacha 1,3 mlrd kVt.soat elektr energiyasini ishlab chiqaradigan 15 ta kichik GES qurish mo'ljallangan.

Kompaniya, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasidagi kichik tabiiy suv oqimlarining gidroenergetik potentsialidan foydalanish sxemasini ishlab chiqadi va uni ko'rib chiqish yakunlariga qarab, qurilishi iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan kichik GESlar aniqlanib, ular sohani rivojlantirish dasturlariga kiritiladi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, kompaniya mutaxassisleri tarafidan Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida birinchi navbatda quriladigan GESlar aniqlandi, ularning umumiy o'rnatilgan quvvati 980 MVtga teng bulib, yiliga 2,8 mlrd kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniga ega.

Kompaniya sohani 2020-yilgacha rivojlantirish masalalari sxemasini ishlab chiqdi. Bunda, zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni joriy etgan holda ishlab turgan energetik obyektlarni rekonstruksiya qilish ishlari davom ettirildi

Elektroenergetikani rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, elektr energiyasi bozorini shakllantirish va rivojlantirish;

- respublika iqtisodiyoti va aholisini sifatli elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash;

- energetik korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash, ular faoliyatining samaradorligini oshirish;

- energetik ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;

- Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimi doirasida integratsion jarayonlarni yanada rivojlantirish.

9.2. Elektr energetika sohasidagi tarif siyosati

Kompaniya xarajatlarning asosiy qismi qaysi yo'nalishlarda sarflanmoqda yoki elektr energiyasiga tariflar belgilanishida qanday xarajatlar hisobga olinadi?

Kompaniya korxonalari tomonidan qilinadigan xarajatlar quyidagicha taqsimlanadi: sotib olinayotgan yoqilg'i – gaz, ko'mir, mazut xarajatlari – 50 %; qishloq va suv xo'jaligi vazirligi stansiyalarida ishlab chiqarilayotgan energiya uchun hamda suv bilan ta'minlash rejimi bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar – 4 %; energetik uskunalarni ta'mirlash va yangi investitsiyalar loyihalarini amalga oshirish uchun – 12 %; ish haqi to'lovlari – 7 %; ishlab chiqarish bilan bog'liq bevosita soliqlar – 9 %; zarur bo'lgan xomashyo va uskunalarni xarid qilish – 4 %; ichki va tashqi investorlar oldidagi majburiyatlar (qarzlar) ni bajarish, bilvosita soliqlarni to'lash – 14 %.

Bugungi kunda iste'molchilarning elektr va issiqlik energiyasi uchun to'lovlar tarifi stavkalarining qiymati, «sarf-xarajatlar uslubida», iste'molchilarning tarif guruhlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq «O'zbekenergo» DAK taqdimi asosida Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

«Nizom»ga muvofiq elektr energiyasi bo'yicha 10 tarif guruhi va issiqlik energiyasi bo'yicha 3 tarif guruhi mavjud

Ikki stavkali tarif bo'yicha, ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lgan sanoat iste'molchilari (zavodlar, fabrikalar, kombinatlar, ishlab chiqarish birlashmalari) tomonidan, hisobga olish priborlari ko'rsatkichiga muvofiq 1-tarif guruhi bo'yicha ko'rsatilgan narxda har bir kVt/s va talab etilgan quvvat uchun haq to'lanadi.

1-stavkali tarif bo'yicha barcha boshqa iste'molchilar bilan (750 kVAgacha quvvatga ega sanoat iste'molchilari, qishloq xo'jaligi iste'molchilari, budjet tashkilotlari, tijorat iste'molchilari va aholi) hisobga olish priborlari ko'rsatkichlariga binoan tegishli tarif guruhi bo'yicha hisob-kitoblar olib boriladi.

Respublikamizdagi elektr energiyasining aholiga sotish narxini boshqa davlatlardagi narxlar bilan solishtiradigan bo'lsak, shu ma'lum bo'ladiki, Mustaqil davlatlar hamdo'stligining issiqlik elektr stansiyalaridan foydalanadigan davlatlarida har bir kVt.soat elektr energiyasi narxi 0,03 AQSH dollari atrofida, Qirg'iziston va Tojikistonda esa GES larning salmog'i ko'proq bo'lgani uchun 0,001 AQSH dollari atrofida, rivojlangan davlatlarda tariflar ijtimoiy-iqtisodiy sohani hisobga olmay, bozor iqtisodiyoti mexanizmlari asosida tuzilishi sababli 10-15 marta yuqoridir.

9.3. Elektr energiyasidan foydalanish xarajatlarini tejash siyosati

Sohada ishlab chiqariladigan elektr energiyasining umumiy hajmi-dan 5-6 foizi elektr stansiyalarining xususiy ehtiyojlariga va 13-14 foizi uni elektr tarmoqlari bo'ylab uzatishga sarflanadi.

Kompaniya faqat maishiy sektordagina 2007-2012-yillar davomida 3,9 milliondan ko'proq elektron hisoblagichlarni o'rnatishni amalga oshirdi. Hozirgi davrga qadar kompaniya o'z mablag'lari hisobidan aholi iste'molchilarida elektr energiyasini hisobga oluvchi zamonaviy elektron hisoblagichlarni joriy qilmoqda. Shu yerda ta'kidlash lozimki, qolgan iste'molchilar esa o'z mablag'lari hisobidan ushbu ishlarni amalga oshirish lozim. Ushbu kungacha iste'molchilar tarmog'ida qariyb 350 mingdan ko'proq 1 fazali va 18 mingga yaqin 3 fazali hisoblagichlar o'rnatildi. Hisobga olish priborlarini modernizatsiyalash va ular asosida tijoratli hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini tashkil etish 2010-yildan boshlab 1963 mln kVt/s elektr energiyasini tejash imkonini beradi.

Toshkent shahrining Mirobod tumanida o'rnatilgan elektron

hisoblagichlarni ekspluatatsiya qilish yakunlarining qiyosiy tahlili bu hisoblagichlar joriy etilishining yuqori samaradorligini tasdiqladi

Eski induksion hisoblagichlarning ko'rsatishicha, Chimkent ko'chasidagi abonentlar iste'mol qilgan elektr energiyasining o'rtacha hajmi 55,6 ming. kVt/soatni tashkil etgan. Xuddi shu abonentlarning elektr energiyasi iste'moli yangi elektron hisoblagichlarning ko'rsatishicha 80,0 ming kVt.soatni tashkil etdi, farqi 24,4 ming kVt.soat (43 % ga oshgan). Bunda, oldindan to'langan haqni hisobga olganda pul tushumi 55 % dan 102 % gacha oshdi.

Toshkent shahrining «Gospital» mavzesidagi kommunal va maishiy iste'molchilarda ASKUE tizimini joriy etish natijalari shuni ko'rsatadiki, hisobga olishning aniqligi va o'lchovlarning bir vaqtda o'tkazilishi oqibatida iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmini ko'rsatishlar ancha ortadi

X BOB. REAL SEKTORGA INVESTITSIIYALAR VA ULARNI PROGNOZLASH

10.1. Real sektorga investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «investio» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib «qoʻyish», «mablagʻni safarbar etish», «kapital qoʻyilmasi» maʼnosini beradi.¹ Keng maʼnoda investitsiya mablagʻni koʻpaytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Koʻpgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda ularga doir huquqlar tarzida taʼriflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yoʻnaltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Moliyaviy globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlardan biri boʻlib, yetarli darajada rivojlangan moliyaviy vositachilik tizimining mavjudligi hisoblanadi. Chunonchi moliyaviy vositachilar ssuda kapitalining samarali harakatini taʼminlashga, mamlakatdagi investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi.


Shu oʻrinda mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish juda oʻrinlidir: «Barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor – investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham boʻlmaydi».²

Investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati toʻgʻrisida fikr yuritadigan boʻlsak, bu oʻrinda «investitsiya» tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual (aqliy) qimmatini takror ishlab chiqarishning dastlabki va asosiy tushunchasi boʻlib maydonga chiqishini unutmaslik kerak.

¹ Яковский К. П. Инвестиции - СПб Питер, 2008 – 368 с ил. -(Серия «Учебное пособие») 59-стр

² I A Karimov Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T Oʻzbekiston NMIU, 2010-yil

Investitsiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha, investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.



10.1.1-chizma. Investitsiya turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi.

Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda unga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning turlari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «nou-xau», kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Hududiy joylashtirilishi bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. **Yalpi investitsiyalar** – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni oladi. **Sof investitsiyalarni** aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratmalari chiqarib tashlanadi. Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, turg'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyotda turg'unlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga teng bo'lib, iqtisodiyotda shu yili qancha kapital iste'mol qilingan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha kapital qo'yilmalar kerak bo'ladi.

Qo'yilish obyektiga, yo'naltirilayotgan sohalar va ularni ishlatishdan olinadigan natijalarga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi. Real investitsiyalar – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat. Real investitsiyalar tarkibi xo'jalik yurituvchi subyektlarga qo'yilgan maqsadiga ko'ra tasniflanishi 10.1.2-chizmada ko'rsatilgan.

Real investitsiyalar maqsadi			
1. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar	2. Ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan investitsiyalar	3. Texnik qayta qurollantirishga va rekonstruksiya qilishga jalb etilgan investitsiyalar	4. Yangi mahsulotni yaratishga qilingan investitsiyalar
5. Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo zaxiralarning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiyalar	6. Qo'shimcha ish joylarini yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar	7. Atrof-muhitni muhofaza qilishga va yaratilayotgan mahsulot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiyalar	

10.1.2-chizma. Xo'jalik yurituvchi subyektlar maqsadiga ko'ra real investitsiyalarning tarkibiy tuzilishi

Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslari va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo'yilishini anglatadi.

Davlat investitsiyalari – bu davlat tomonidan milliy daromadning davlat budjeti mablag'lari ko'rinishida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun sarflayotgan mablag'laridir. Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Investitsiyalarning manbalaridan biri bo'lib aholi keng qatlamlarining jamg'armalari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, amalda jamg'arma egasi va investor bir shaxsda namoyon bo'lishi va bo'lmasligi ham mumkin. Odatda, jamg'arma jamiyatdagi ko'pchilik subyektlar tomonidan amalga oshirilib, ulardan investitsiya sifatida foydalanish esa butunlay boshqa subyektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar jamg'armasi ham investitsiya manbayi bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda «jamg'aruvchi» va «investor» bir subyektda mujassamlashadi.

Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.);

- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);

- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);

- davlat budjeti mablag'lari;

- chet elliklar mablag'lari.


Ta'kidlash lozimki, mamlakat real sektoriga qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirishda moliyaviy vositachilik bilan shug'ullanuvchi muassasalar g'oyat muhim rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozori aholi jamg'armalarini investitsiyalarga aylanishini ta'minlaydi. Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, samarali qimmatli qog'ozlar bozori real sektor korxonalari uchun qo'shimcha investitsion

resurslarni jamlash va taqdim etish imkonini beradi. Rivojlangan davlatlarda jamoaviy investitsiyalash shakllari va muassasalari yetarli darajada taraqqiy etgan bo'lib, ular jamg'armalarning investitsiyalarga aylanishi mexanizmini ta'minlaydi va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Investitsiya fondlari jamg'armalari miqdoridan qat'iy nazar har bir jismoniy yoki yuridik shaxsga, xoh u qimmatli qog'ozlar bozorida muayyan tajriba va malaka ega bo'lsin, xoh umuman bu sohadan yiroq bo'lsin, professional boshqaruvni taklif etadi va investorlarning investitsiya jarayonidagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiyotdagi xo'jalik subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini to'liqroq qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan samarali moliyaviy vositachilik tizimi shakllanadi va u asosan ichki resurslarga tayanadi.

10.2. Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinish holati tahlili

Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbayiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Xorijiy investitsiyalarni ichki investitsiyalardan farqli jihatlaridan biri, ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha uch guruhga ajratilgan barcha risklarni oldindan hisoblab chiqilishidir.

O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»-gi qonuniga ko'ra chet ellik investorlar xorijiy davlatlar, ajnabiy fuqarolar, fuqarolarning uyushmalari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet elda doimiy ravishda yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda ishtirokchilardan biri albatta xorijiy yuridik shaxslardan bo'lishi talab etiladi. Xorijiy investitsiyalarning tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin (12.2.1-chizma).



10.2.1-chizma. Xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi

Xorijiy investitsiyalarni mulkchilik shakliga ko'ra xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga tasniflash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga xorijiy investitsiyalarni yo'nalish obyektiga qarab moliyaviy va real investitsiyalarga ham ajratish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy mulk egalari investitsiyalari tashkil etadi. Respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozori esa faqatgina shakllanish bosqichida bo'lib, moliyaviy kapitalni sohalar o'rtasida taqsimlash funksiyasini deyarli bajarmayapti. Xorijiy investitsiyalarni ichki investitsiyalardan farqli jihatlaridan biri, ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha uch guruhga ajratilgan barcha risklarni oldindan hisoblab chiqilishidadir.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan tarkibiy qayta qurishning samarali amalga oshirilishi bevosita investitsiya siyosatining oqilona yuritilishi bilan bog'liq. Agrar-industrial mamlakat hisoblangan O'zbekiston Respublikasi uchun ham investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Xorij tajribasi ham rivojlangan mamlakatlarda dastlab industrial tarmoqlar jadal taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Investitsiya mablag'lari samaradorligini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlar va ularning tizimlari talaygina. Ular ichida hisoblanishi nuqtayi nazaridan qulay bo'lgan ICOR ko'rsatkichidan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga, umuman, real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda foydalanamiz.

ICOR (incremental capital – output ratio) koeffitsiyenti asosiy kapitalga qo'yilgan mablag'lar, ya'ni yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) investitsiyalar salmog'ining, keyingi yildagi YaIMning qo'shimcha o'sish sur'atiga nisbatini ifodalaydi. Bu o'tgan yil iqtisodiyotga qo'yilgan investitsiyalarning keyingi yilgi YaIMning o'sishiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Ko'rinib turibdiki, ICOR koeffitsiyenti investitsiya resurslarining samarali ishlatilishini belgilab beruvchi ko'rsatkichidir. U qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik ahamiyatli hisoblanadi va aksincha Istiqbolni belgilovchi strategik dasturlarda, kam miqdorda kapital mablag'larni iqtisodiyotga yo'naltirib, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish ICOR ko'rsatkichining past bo'lishini ta'minlaydi. Bu iqtisodiy o'sish uchun investitsiya mablag'lariga me'yordagi ehtiyoj bildirilganligini anglatadi.

ICOR koeffitsiyenti yillar davomida pasayib borib, 2009-yilda 2,8 ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlar uchun

ijobiy natija hisoblanib, unga 1973-1985-yillarda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga ega mamlakatlarga erishganlar.¹ Hattoki, Janubiy Koreya iqtisodiyoti bo'yicha ham ICOR ko'rsatkichi 1984-1993-yillarda 3,8 ni tashkil etgan.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat iqtisodiyotidagi qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida hamda savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga investitsiya mablag'larini yo'naltirish sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan samaradorlik nuqtayi nazaridan afzalroqdir. Ammo O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurish hali tugallanmaganligini hisobga olsak, unda oqilona tarkibni shakllantirish uchun sanoat ishlab chiqarishiga kapital mablag'lar yo'naltirishni davom ettirish kerak.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya mablag'larining samaradorligini ta'minlashda investitsion muhitni baholash muhim ahamiyatga ega. Investitsion muhitni ijobiy yoki salbiy ekanligini baholashda bir qancha omillarga va usullarga asoslaniladi. Investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillarni obyektiv va subyektiv guruhlariga ajratish mumkin. Investitsion muhitga ta'sir etadigan obyektiv omillarga: mamlakatning geografik joylashuvi; energetika resurslarining mavjudligi; tabiiy va iqlim sharoitlari; mintaqadagi demografik ahvol va boshqalar kiradi. Subyektiv omillar esa davlat va boshqa boshqaruv subyektlarining boshqarish faoliyati bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy qarorlaridan iboratdir.

Investitsion muhitga baho berishda uchta asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin.² Birinchi yondashuv quyidagi baholashlarga asoslanadi: yalpi ichki mahsulot va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va milliy daromad dinamikalari, milliy daromadni taqsimlash dinamikasi; jamg'arish va iste'mol nisbati; investitsion faoliyatni qonuniy tartibga solishning holati; alohida olingan investitsion bozorlar, shuningdek, fond va pul bozori rivoji. Ikkinchi yondashuv – kengaytirilgan, ko'p omilli. U investitsion muhitga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi omillarni baholashga asoslangan: hududning mehnat va energetika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, bioiqlimiy va ilmiy-texnikaviy salohiyati va infratuzilmaning; xo'jalik yuritishning umumiy shart-sharoitlari – ekologik xavfsizlik, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligi va tugallanmagan qurilishlar hajmi; bozor

¹ Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана // Экономическое обозрение. 2000. №1 – С. 7

² Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование. -М: ЮНИТИ-ДАНА. 2001. С.116-118

infratuzilmasining rivojlanganligi, xususiylashtirishning investitsion faollikka ta'siri, inflatsiya va uning investitsion faollikka ta'siri, aholining investitsion jarayonga jalb qilinganlik darajasi, tadbirkorlik, raqobat muhitining rivojlanganligi, mahalliy bozor hajmi, xo'jaliklararo aloqalarning jadalligi, eksport imkoniyatlari, chet el kapitali mavjudligi; siyosiy omillar: aholining hokimiyatga bo'lgan munosabati, ijtimoiy barqarorlik holati, milliy-diniy munosabatlar holati; ijtimoiy-madaniy omillar (aholining turmush darajasi, tibbiy xizmat rivojlanganligi, jinoyatchilik darajasi, real ish haqi hajmi, aholining o'z va chet el tadbirkorlariga munosabati, chet el mutaxassisleri uchun ish sharoitlari); tashkiliy-huquqiy omillar (hokimiyatning chet el investorlariga munosabati, qarorlar qabul qilishdagi tezkorlik darajasi, axborot erkinligi, qonunni himoya qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi, mahsulotlar, kapital va ishchi kuchlarining joylanishi va harakatlanishi uchun shart-sharoitlarning mavjudligi, shuningdek, tadbirkorlarning etuk va ish yuritish sifatleri); moliyaviy omillar (budjet daromadlari, aholi jon boshiga budjetdan tashqari fondlar mablag'lari bilan ta'minlanganligi, chet el valutasida kredit olish imkoniyati, bank foizi darajasi, banklararo hamkorlikning rivojlanganligi, uzoq muddatli kreditlarning solishtirma qiymati, zararga ishlaydigan korxonalar ulushi va boshq.). Ko'p omilli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: investitsion muhit va investitsion xavf darajasi o'zaro bog'liqligi; investitsion muhitning asosiy kapital va iqtisodning real sektoriga bo'lgan investitsiyalar bilan bog'liqligi; investitsion muhitning obyektiv xususiyatlariga diqqat-e'tibor, investitsion muhitning alohida olingan investorlar xohish-irodasiga bog'liq emasligi.

Uchinchi yondashuv – risk bilan bog'liq. Uning tarafdorlari odatda, investitsion muhitning tashkil etuvchilari sifatida ikkita asosiy mezonni ko'rsatadilar: birinchisi, investitsion salohiyat va investitsion risk darajalarining holati, bo'lsa, ikkinchisi, investitsion risk va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajalarining bog'liqligi. Investitsion salohiyat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholanib, o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: hududda ishlab chiqarish omillari va iste'mol talabining mavjudligi; xo'jalik faoliyati natijalari; ilm-fan rivoji va uning yutuqlarini joriy qilinganlik darajasi; investitsion institutlarning rivojlanganligi; infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganligi.

Investitsion risk darajasi investitsiyalar va ulardan keladigan daromadni yo'qotish ehtimoli nuqtayi nazaridan baholanadi.

Ko'rsatkichlarning katta guruhi asosida, shuningdek, investitsion salohiyatning har bir tashkiliy qismi va har bir risk bo'yicha hududiy reyting baholanadi. Uchinchi yondashuvda, yuqoridagi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda inson omili, rivojlanishning moddiy bazasi, ijtimoiy-siyosiy vaziyat va siyosiy risk darajasi omili, iqtisodiyotning holati va uni boshqarish darajalari kabilar hisobga olinadi.

Investitsion muhitga baho berishning obyektivlik darajasini oshirish uchun zamonaviy iqtisodiyot fani tomonidan ishlab chiqilgan bir qator muhim uslubiy qoidalarni hisobga olish zarur.

1. Barcha turdagi investitsiyalar uchun ma'lum investitsion muhit zarur. Investitsiyalarning turlari kabi, kapitallarning ham ko'rinishi turlicha (sanoat, savdo, ssuda, aksionerlik) bo'ladi. Ana shunday vaziyatlarda investorlar muddati jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan moliyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Masalan, ssuda kapitali qisqa vaqt ichida maksimum foyda olishga qaratilgan bo'lib, moliyaviy investitsiyalar orqali harakat qiladi. Sanoat kapitali uzoq muddat davomida korxona faoliyatiga barqaror ta'sir o'tkazishga intilib, real, bevosita investitsiyalar orqali harakat qiladi.

2. Investitsion muhit manfaatlar muvozanatiga asoslangan bo'lishi kerak, chunki investitsiyalarni qabul qiluvchi ham investitsiyalarni yetkazib beruvchi ham turlicha maqsadlarni ko'zlaydi. Ularning birinchisi mamlakatdagi mavjud mahalliy resurslardan tejamli foydalangan holda, ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish)ning ustuvor sohalarini rivojlantirish va eksportbop zamonaviy tovar (xizmat)lar ishlab chiqarish kabi maqsadlarni ko'zlasa, ikkinchisi, yuqori foyda olish va mahalliy bozorlarni mumkin qadar tezroq va muhim egallashga intiladi.

3. Investitsion muhit, bir tomondan, uzoq vaqt davomida barqaror bo'lishi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarish omillariga (ilmiy-texnikaviy, tadbirkorlik, boshqaruv, texnologik) nisbatan yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olabiladigan bo'lishi darkor.

4. Investitsiyalar inson kapitali rivoji, barcha faoliyat sohalaridagi ishchi va xizmatchilarning malakasi va ko'nikmalarining yuksalishi bilan aniq bog'langan bo'lishi lozim.

5. Investitsion muhit xo'jalikning iqtisodiy barqarorligi va ishlab chiqarish tizimlari xavfsizligiga rahna solmasligi kerak.

6. Investorlarning manfaatlari muvozanatini ta'minlash maqsadida jalb qilinayotgan investitsiyalarning samaradorligi va investitsion

muhitning qulayligini kompleks baholash talab etiladi. Shu sababdan nafaqat jalb qilingan investitsiyalar hajmi, balki ularni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa oqibatlarini hisobga olish darkor.

Investitsion muhitning yuqorida bayon qilingan uslublari asosiligi va amaliy ahamiyatini izohlash uchun chet el tajribasiga nazar tashlaymiz. Investitsion muhitga baho berish uslublari bir-biridan farq qilib, odatda, chet elda makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho ishlatiladi. Masalan, Yaponiyada investitsion muhitning bayoniy tavsifi berilib, miqdoriy baho qo'llanilmaydi. AQSHda to'rtta birlashtirilgan ko'rsatkich asosida aniqlanadi va reyting natijalari har yili «Yillik statistik karta»da e'lon qilinadi: ishbilarmonlik faolligi; xo'jalik tizimi rivoji salohiyati; investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi; soliq siyosatining asosiy tashkil etuvchilari va h.k.

Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kapital mablag'lar samaradorligini oshirish uchun mamlakat miqyosida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kapital mablag'lar qaytimi tez bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish, sanoat ishlab chiqarishida energiya va material sig'imining kamayishiga erishish;

- sanoat obyektlari qurilishini moliyalashtirishda xususiy kapital qatnashishini rag'batlantirish, kichik korxonalar shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

- industrial korxonalar barpo etish jarayonini tezlashtirish, iqtisodiyotda tugallanmagan qurilish obyektlari sonini keskin kamaytirish;

- xorijiy investitsiyalarning sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va tiklashda qatnashishini jadallashtirish, to'g'ridan to'g'ri iqtisodiyotga qo'yilayotgan moliyaviy resurslarni jalb qilishning investitsiya muhitini yaratish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, u bilan bog'liq infratuzilma obyektlarni rivojlantirish, kapital resurslarning MDH yohud Markaziy Osiyo davlatlari orasida erkin harakatini ta'minlash;

- sanoat korxonalari faoliyatini baholash, rentabellik darajasini hisoblash, iqtisodiy ko'rsatkichlarni dinamik tahlil etish va umuman, respublika va xorijiy mamlakatlardagi investorlarni qiziqtiruvchi axborot va ma'lumotlarni tayyorlash, milliy ishlab chiqarishni rivojlanishini monitoring qilish va h.k.

Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida mamlakat ishlab chiqarishining rivojlanishi uchun investitsiya mablag'larining o'zi

yetarli emas, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'alariga erishishda innovatsion investitsiyalardan foydalanish, iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytirish, iqtisodiyot subyektlarining erkin faoliyat yuritishiga imkon yaratish va boshqa omillardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

10.3. Mamlakatda investitsiya siyosati bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan prognozlar

2011-2015-yillarda tarkibiy o'zgarishlarni iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilishni davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib boriladi. Ushbu maqsadlar uchun 2011-2015-yillar davomida oxirgi 5-yil mobaynida o'zlashtirilgan investitsiyalarga qaraganda 2 barobar ko'p, jami 77,4 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalarni yo'naltirish mo'ljallanmoqda. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 foizdan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi.

Investitsiya loyihalari moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yalpi kapital qo'yilmalar hajmining 76 foizini tashkil etadi.

Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarning o'z mablag'larini ko'paytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur jamg'armaning tarkibiy o'zgarishlaridagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard dollardan ziyod mablag' jamlanadi.

2011-2015-yillarda yoqilg'i-energetika tarmog'ini, mashinasozlik va avtomobilsozlikni rivojlantirish, elektr energetika sohasida enegiya

ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirish va diversifikasiya qilish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 4,7 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Mazkur jamg'armaning eng muhim vazifalaridan biri strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etishdir. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan, umumiy qiymati 1.28 mlrd dollarga teng bo'lgan Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir.

Kelgusi yillarda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iboratdir.

Bu vazifani amalga oshirish orqali 2011-2015-yillar davomida 13 mlrd AQSH dollaridan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minlaydi. Ushbu mablag'lar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha chet el investorlari ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Masalan, Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyoy majmuasini barpo etish, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasida tozalangan metan bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish, Muborak gaz-kimyoy majmuasini qurish, Qandim guruhi konlarini o'zlashtirib, gazni qayta ishlaydigan zavod barpo etish, Navoiy viloyatida ammiyak va karbamid ishlab chiqaradigan zamonaviy kompleks qurish, avtomobil dvigatellari, katta hajmda yuk tashiydigan «MAN» avtomobillari, «Mercedes Bents» shassis bazasida ko'p o'rinli avtobuslar, «Klaas» kompaniyasi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarishni tashkil etish, texnik va polikristall kremniy ishlab chiqarish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning to'liq sikliga ega bo'lgan vertikal integratsiyalashgan

tekstil majmualarini, tayyor dori preparatlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni barpo etish va boshqa loyihalarni qayd etish mumkin

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda O'zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XXR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jalb etish masalasiga katta ahamiyat beradi.

Aynan ana shu hamkorlikning moliyaviy ko'magida kelgusi yillar davomida O'zbek milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish, ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, qishloq xo'jalik yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmua barpo etish, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi ko'plab loyihalar amalga oshiriladi.

2011-2015-yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 18,6 milliard dollarni tashkil etadi yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'ladi. Ularning 75 foizdan ortig'ini to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Bu borada qarz mablag'lari uzoq muddatli asosda faqat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy moliyaviy institutlarning kredit liniyalarini mamlakatimiz tijorat banklari orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etiladi.

XI BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING ISTIQBOLLI RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALAR VA ULARNI PROGNOZLASH

11.1. Real sektor iqtisodiyotining istiqbolli dasturlarini tuzishda innovatsiyalar

Bugungi kunda ilg'or innovatsion iqtisodiyotga ega bo'lmay turib, barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Modomiki, tayyor mahsulot jahon bozorida «birlamchi-sektor» tovarlariga (gaz, paxta, neft va boshqalar) nisbatan ancha yuqori qiymatga ega ekan, mahsulotga ishlov berish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, demak, u yoki bu davlatning raqobatbardoshligi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Shuningdek, iqtisodiyotning innovatsionlik darajasi uning inqiroz oqibatlarini yengib o'tishga qodirligini ham belgilab beradi, buni bizga 2008-yildagi voqealar namoyon etdi. Mamlakat budjeti deyarli butkul xomashyo eksportiga qaram ekan, bozor konyunkturasi va davlat budjeti hajmi ham ushbu xomashyoning bozordagi narxlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunda, dunyoning qator mamlakatlari jahon moliyaviy inqirozidan chiqayotgan bir vaqtda, konyunkturaning katta sikllari nazariyasi muallifi N.D. Kondratevning ilmiy tadqiqotlari yana dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan depressiyaga uchragan davrida iqtisodiyotning innovatsiyalarga moyilligi kuchayadi. Depressiya «tirik qolish» uchun imkoniyatlar izlashga majbur qiladi, innovatsiya jarayonlari esa ularni barataraf eta oladi. Shunday qilib, yangiliklar diffuziyasi Kondratev siklining ko'tariluvchi bosqichi bilan to'liq tarzda muvofiq keladi va siklning eng yuqori cho'qqisida o'z maromiga yetadi. Bundan esa quyidagicha muhim amaliy xulosa chiqarish mumkin: davlatning innovatsiya siyosati muvaffaqiyati depressiya va jonlanish davrida hukumat rahbarlarining innovatsiya jarayonlarini kuchaytirish sinergetik samara bera oladigan vaqtni oldindan ko'ra olishi va uni faol qo'llab-

quvatlashga imkoniyatlariga to'la-to'kis bog'liq bo'ladi. Aksincha, agar hukumat yordami kechiktirilsa, innovatsiyalar samardorligi sezilarli ravishda pasayib ketadi.

Hozirgi davrgacha jahon texnikaviy-iqtisodiy rivojlanishida (Angliyadagi sanoat inqilobidan boshlab) texnologik ukladlarning ketma-ket bir-biriga joy bo'shatib beradigan beshta hayotiy siklini ajratish mumkin. Bunda zamonaviy iqtisodiyotda yetakchi bo'lgan axborot texnologiyalar ukladlari ham hisobga olinadi.

Ayni vaqtda, uzoq muddatli texnikaviy-iqtisodiy taraqqiyotning qaror topgan sur'atlari shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur texnologik uklad o'sishning oxirgi pog'onalariga juda yaqin ekan energiya manbalari narxlarining ko'tarilishi va tushib ketishi, jahon moliyaviy inqirozibularning barchasi yetakchilik qilayotgan texnologik ukladning hayot sikli tugab borayotgani va navbatdakisining asosida iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishlar davri boshlanganidan dalolat beradi. Bugungi kunda yangi, oltinchi texnologik ukladning takror ishlab chiqarish tizimi shakllanmoqda, uning qaror topishi va rivojlanishi kelgusi yigirma-o'ttiz yildagi global iqtisodiy taraqqiyotni belgilab beradi.

Bugungi kunda yetakchilik qilayotgan va yangidan yuzaga kelayotgan texnologik ukladlar o'rtasida ma'lum izchillik mavjud. Yetuk texnologik uklad-yangisi uchun dastlabki aqliy, moddiy va moliyaviy resurslarning (boshlang'ich kapitalning) manbayi hisoblanadi. Uning doirasida yangi texnologik ukladning asosiy texnologiyalari, shu bilan bir qatorda ularning mahsulotlariga talab ham qaror topadi. Yangi texnologik ukladning ilk shakli o'tgan ukladning texnologik zanjirlari ustidagi qurilma sifatida shakllanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga bog'liq ravishda, Kondratev siklining depressiya fazasida (qolaversa, o'zga iqtisodiy sikllarning depressiya fazalarida ham) moliyaviy tizim, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eng asosiy texnologik innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha keng miqyosli va samarali chora-tadbirlar talab etiladi.

Shunday qilib, depressiya davri, ya'ni davlatning tartibga solib turuvchi roli kuchaygan davrda, iqtisodiy rivojlanish taqdirini hal qiluvchi-qudratli davlat tomonidan strategiyalarni amalga oshirish uchun eng qulay vaqt hisoblanadi.

Innovatsiyalar asosan rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqilib, ularni taraqqiyotning yanada yuqoriroq pog'onalariga ko'taradi. Biroq,

rivojlangan mamlakatlarda mavjud innovatsiyalardan foydalangan holda, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar ham texnologiyalashuvning yanada yuqoriroq pog'onalarini egallaydilar va rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarga o'z mahsulotlarini eksport qila boshlaydilar.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, taxminan 20 yillar muqaddam mamlakatlar va mintaqalarning raqobatbardoshligi to'g'risidagi masala umuman kun tartibiga qo'yilmas edi, bunga sabab dunyoning yuqori darajada rivojlangan mamlaktlarining rivojlanayotgan mamlakatlardan ustunligi hech bir shubha tug'dirmagan. Xitoy, Braziliya, Meksika va Hindiston kabi yirik mamlakatlarning jahon bozorini faol tarzda egallashi, «yangi industrial mamlakatlar» degan nom ostida butun bir guruhning, shuningdek, bir qator sobiq sotsialistik mamlakatlarning jahon maydoniga kirib kelishi bilan bog'liq ravishda hammasi tubdan o'zgardi.

Yangi raqobat ustunliklariga ega yangi mamlakatlarning jahon xo'jaligiga kirib borishi, G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarishning transmilliylashish jarayoni bu mamlakatlarda mutaxassislarni raqobatbardoshlik masalalari bilan shug'ullanishga majbur etdi. Jahon iqtisodiyotidagi kuchli o'zgarishlar G'arbiy Yevropaning kichikroq yuqori rivojlangan va o'rtacha rivojlangan mamlakatlariga, ayniqsa, kuchli ta'sir ko'rsatdi, ular o'zining ochiqlik darajasiga bog'liq holda ilmiy paradigmalarni almashtirish zaruriyatini his etdilar. Garchi bugungi kunda ko'plab raqobatbardoshlik nazariyalari butun dunyoda barcha tipdagi davlatlarga nisbatan qo'llansa-da, o'zining dastlabki ko'rinishida u birinchi navbatda, rivojlangan mamlakatlar uchun mo'ljallangan edi.

Fan va yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirishda ommaviy ilmiy kashfiyotlar hamda tovar va xizmatlarning yangi istiqbolli bozorlarini yaratish bilan cheklanib qolmay, balki birinchi navbatda, iqtisodiyotda bevosita taraqqiy etishning yangi mexanizmi sifatidagi, uning doirasida muntazam va to'xtovsiz ravishda iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli yangiliklar klasterlari yuzaga keladigan va faoliyat yuritadigan milliy innovatsiya tizimlarini (MIT) yaratish eng samarali natija bo'lib hisoblanadi.

Bunday tizimlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun nafaqat kuchli ilm-fan va ta'lim tizimi, balki institutsional sharoitlarning butun bir majmuyi talab etiladi.

11.2. O'zbekistonda innovatsiya tizimini shakllantirishda davlatning roli

Hozirgi vaqtda respublikaning iqtisodiy siyosati iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga, yuqori samarali ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan. Prezident I.A. Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi: mamlakatda 2009-2012-yillar uchun qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish; iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va diversifikatsiya qilish; aholining turmush darajasini tubdan o'zgartirish, mulkdorlarning o'rta tabaqasini yaratish; mamlakatni modernizatsiya qilish va bandlikni oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy tuzilmani rivojlantirish; bank ishini takomillashtirish. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz texnologik ukladlarning o'rin almashinuvi bilan uzviy bog'liq, milliy iqtisodiyotning muvaffaqiyat bilan uzoq muddatli rivojlantirishda yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarining yangi texnologik ukladlar negizini, birinchi navbatda, nanotexnologiyalarni jadal o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ularning kelgusida rivojlanishi global miqyoslarda intellektual rentaga ega bo'lish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, uni takror ishlab chiqarish chegarasining tugal emasligi va bo'lg'usi texnologik rivojlanish yo'nalishining noaniqligi juda katta investitsiya xatarlari va uzoq muddatli bashoratlash ishlarida qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ularni bartaraf etish uchun yangi texnologik uklad tuzilmasini to'g'ri aniqlash juda muhim, chunki ushbu uklad rivojlanishi asrimizning o'rtalarigacha bo'lgan davrda global va milliy iqtisodiyotning o'sishini belgilab beradi.

Bu qadar ko'lamli muammolarni yumshatish uchun yetakchi davlatlar budjet imkoniyatlaridan bir necha barobar ortiq bo'lgan qo'shimcha resurs manbalari talab etiladi.

Tahlillar hozirgi vaqtda ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va beshinchi texnologik ukladning navbatdagisi bilan o'rin almashinish jarayoni o'rtasida bevosita bir bog'liqlik borligini tasdiqlamoqda. Bu esa tizimli deb atalmish hozirgi global inqirozning barcha murakkabliklariga qaramay, undan chiqib ketish uchun yangi texnologik ukladning shakllanishini taqozo etmoqda. Uning kengayishi jahon xo'jaligi

iqtisodiy o'sishining yangi davomli to'liqini uchun moddiy asos yaratadi va qadrsizlanishdan so'ng qolgan kapitalga. shuningdek, to'xtab yotgan ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish hisobiga rivojlantirish va taraqqiyot makonini kengaytirish uchun bunyodkorlik kuchini baxsh etadi.

Bugungi kunda texnologik ukldning asosini mikroelektronika sanoati, dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, asbobsozlik, radiotexnika sanoati, aloqa vositalari sanoati, lazer texnikasi tashkil etadi. Texnik-iqtisodiy rivojlanishning bugungi kunda qaror topib bo'lgan uzoq muddatli sur'atlari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirda yetakchi bo'lgan zamonaviy texnologik ukldning barqaror o'sish chegarasi juda yaqinlashib qoldi.

Hozirda shakllanib borayotgan oltinchi texnologik ukld bazaviy texnologiyalarni, xususan, biotexnologiyalarni, nanotexnologiya, materiallar texnologiyasi va axborot texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Bu qatorda nanotexnologiyalarning tutgan o'rni juda yuqori, sababi tubdan yangi, ya'ni informatika, molekulyar biologiya, tibbiyot kabi sohalarning yuqori marralarga ko'tarilishi aynan mana shular bilan bog'liq. Hozirda mazkur texnologik ukld rivojlanishning kurtaklik davridan o'sish davriga qadam qo'ymoqda. Uning kengayishiga zarur texnologiyalarning ozligi va yetarli darajada qaror topmaganligi yo'l bermayapti, shu bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy muhitning ulardan keng ko'lamlarda foydalaiishga tayyor emasligi ham ma'lum darajada ularga to'sqinlik qiladi. Garchi eng yangi texnologiyalarni o'zlashtirish xarajatlari va ulardan foydalanish ko'lamlari o'sib borayotgan bo'lsada, biroq zamonaviy iqtisodiyot tuzilmasidagi texnologik ukldning umumiy xajmi juda ozligicha qolmoqda.

Dunyoning yetakchi iqtisodiyotlarining tubdan tarkibiy o'zgarishi tugab va kelgusi o'n yillik o'rtalariga kutilayotgan yangi texnologik ukldning o'sish davriga qadam bosish bilan sifat jihatdan sakrash yuz beradi. AQSH ilmiy jam-g'armasi bashoratlari ko'ra, 2015-yilga kelib nanotexnologiyalar bozorining yillik aylanmasi 1-1,5 trln dollarni tashkil etadi.¹

Yuqorida qayd etilgan tarmoqlardan tashqari uning yuksalishi uchun tayanch bo'lgan tarmoqlar: sanoatning elektrotexnika, aviatsiya, raketa-kosmos, atom sohalari, asbobsozlik, stanoksozlik, ta'lim, aloqada

¹ O'zbekiston jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish O'zFA, Iqtisodiyot instituti, A.F.Rasulevning tahriri ostida — T. KONSAUDITINFORM-NASHR, 2011

ham kuzatiladi. Ular bilan bir qatorda yangi texnologik ukladning tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan: sog'liqni saqlash (genetik kelib chiqqan kasalliklarda hujayra texnologiyalari va tashxis metodlarini qo'llash tufayli samaradorligi bir necha barobar ortib ketadigan) va qishloq xo'jaligi (molekulyar biologiya va gen muhandisligi yutuqlaridan foydalanish tufayli), shuningdek, oldindan belgilab beriladigan xususiyatlarga ega yangi materiallarni yaratish kabi tarmoqlarda ham inqilob ro'y berishi kutilmoqda. Nanomateriallarning yuzaga kelishi bilan bog'liq ravishda, yangi texnologik ukladning poydevor tarmoqlari qatoridan kimyo-metallurgiya majmuyi, qurilish, kemasozlik va avtomobilsozlik tarmoqlari ham o'rin egallaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi bir qator muammolar bilan bog'liq. Iqtisodiyotning jadal o'sishini ta'minlab beruvchi innovatsion-texnologik iqtisodiyotning universal modeli mavjud emas. Taraqqiyotning innovatsion yo'liga o'tishga sharoit yaratuvchi omillarni aniqlab olish murakkab jarayon, sababi ushbu yo'nalishda fundamental tadqiqotlar va shakllangan nazariyalar juda oz, shunga qaramay, mamlakat yangi, xususan, nanotexnologiyalar sohasi bo'yicha texnologiyalarni tadqiq qilish va joriy etishga mablag' sarflashga qodir bo'lsa, jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallay olishi aniq.

Shundan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish yetarli darajada uzoq davom etadigan va ko'p xarajat talab qiladigan jarayon, shunday ekan har bir rivojlangan mamlakat bu yo'lda individual yondashuvni izlaydi. O'zbekiston hukumati oldida turgan ustuvor vazifalardan biri xomashyoga ixtisoslashgan iqtisodiyotdan yaqin istiqbolda innovatsion iqtisodiyotga o'tishni ta'minlashdan iborat. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida maxsus idoralar doirasida quyidagilarni tashkil etish lozim:

1) tabiiy, texnogen, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida inqirozli holatlarni prognozlash va oldini olish, davlat qarorlarini ekspertiza qilish;

2) innovatsion iqtisodiyotga o'tish stsenariylari va yo'llarini tahlil qilish.

Agar mamlakat mustaqil davlat bo'lishga va o'z aholisi uchun me'yoriy hayot darajalarini ta'minlab berishga intilar ekan, demak, innovatsion iqtisodiyotga o'tish hayotiy zaruriyatga aylanadi. Bu holatning ijobiy tomoni shundaki, O'zbekiston qator geografik va geoiqtisodiy sabablar tufayli uzoq vaqt jahon bozoriga faqat xomashyo

yetkazib beruvchi rolini bajara olmaydi. Shu sababli respublika jahon bozoriga qo'shilgan qiymat ulushi katta bo'lgan va bu yerda mavjud «inson kapitalidan» yuqori darajalarda foydalaniladigan noyob tovarlari bilan chiqishi lozim. Bular esa innovatsiyalarni rivojlantirish uchun yetarli darajadagi muntazam investitsiya oqimini talab etadi.

Innovatsiyalar to'g'risida so'z yuritilganda, faqat sanoat va qishloq xo'jaligi uchun emas, balki jamiyatni boshqarish, uni tashkil etish sohalariga ham innovatsiyalarni jalb etishni nazarda tutiladi. Strategik qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish, xususan, muvofiq qarorlar qabul qilinishi bilan bog'liq strategik xatarlarni baholash metodlari bo'yicha innovatsiyalar juda muhim. Sababi strategiyani tanlash davomida yo'l qo'yilgan xatolarni amalda boshqaruvning boshqa pog'onalarida deyarli tuzatib bo'lmaydi.

2009-2012-yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturida asosiy diqqat e'tibor respublika iqtisodiyotining xomashyo eksportiga ixtisoslashuvidan innovatsion taraqqiyot tipiga o'tishiga qaratiladi. Buning uchun innovatsion faollik ko'rsatkichlarini bir necha marotaba ko'tarish va iqtisodiyot samaradorligini 2-3 barobar oshirish ko'zda tutiladi. Albatta, vazifalarni to'g'ri aniqlash va ko'rsatkichlarni belgilab olish zarur, biroq oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun bularning o'zi yetarli emas. Iqtisodiy siyosat tadbirlarini to'g'ri prognozlash, resurslar-ni istiqbolli yo'nalishlarga o'z vaqtida yo'naltirish, ulardan samarali foydalanishga erishish ham juda muhim.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda davlatning yetakchilik rolini bajarishi tabiiy, sababi yuqori texnologik tarmoqlarga innovatsiyalarni tatbiq etish qimmat va xatarli ish. Bu jihatdan bunday tarmoqlarga investitsiyalar kiritishni alohida bir firma tomonidan (agar bu yirik bir korporatsiya bo'lmasa) amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday vaziyatda xatar juda yuqori, mana shuning uchun ham innovatsiya loyihalarni moliyalashtirish davlat tomonidan, yoki venchur kompaniyalar, yoki korxonalarning yirik birlashmasi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Davlatning moliyalashtirish rolidan tashqari yana bir qator vazifalari ham mavjud bo'lib, ularning amalga oshirilishi boshqa masalalar yechimini topishga yordam beradi, xususan:

- innovatsion sohadagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash;
- strategik rejalashtirish va davlat buyurtmasi predmeti – tovar va xizmatlar ro'yxatini belgilab olish;

- innovatsiya sohasining tashkiliy mexanizmlarini yaratish, innovatsiya loyihalarida yirik kapitalning qatnashuvini ragʻbatlantirish boʻyicha ishlar;

- innovatsion loyihalarni ekspertiza va tahlil qilish.

Ekspertiza oʻtkazishda davlatning tutgan oʻrni, albatta, juda muhim, sababi tavsiya etilayotgan barcha investitsiya loyihalari innovatsion tavsifga ega boʻla olmaydi. Oʻzbekistonda ham innovatsion loyihalar ekspertizasining samarali tizimini yaratish lozim. Bunda ekspert komissiyasining mustaqilligi va idoralararo boʻlishi uning tashkil topishida bosh tamoyil boʻlishi kerak. Bunda ekspert komissiyasining moliyalashtirilishi bilan u tomonidan tanlab olingan innovatsiya loyihalari muvaffaqiyati oʻrtasida toʻgʻridan toʻgʻri aloqa oʻrnatish juda muhim.

Modomiki, innovatsion faollikni qoʻllab-quvvatlash uchun innovatsiya loyihalari tanlovini konkretlashtirish qatʼiy talab etilar ekan, mamlakatdagi rivojlangan axborot infratuzilmasi va aniq tashkil etilgan monitoring – bu innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun eng zarur shart hisoblanadi.

XII BOB. REAL SEKTORDA BANDLIK VA UNI PROGNOZLASH

12.1. Real sektor iqtisodiyotida bandlik, uning tarkibi va turlari

Aholi bandligi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Bandlik insonlar va ularning mehnat faoliyati bilan, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, o'zlashtirish ya'ni iste'mol qilish bilan chambarchas bog'liq. Bandlik darajasi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichni o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, bandlik sof iqtisodiy hodisa emas. U demografik jarayonlar bilan belgilanadi, ijtimoiy siyosatning bir qismi sifatida yuzaga chiqadi, ya'ni demografik va ijtimoiy mazmunga ega.

Bandlik iqtisodiy tushuncha sifatida aholining mehnat faoliyatida ishtirok etishi yuzasidan boradigan munosabatlar majmuyini ifodalaydi, uning mehnatga kirishish o'lchovini, ishchilarga bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qondirish darajasini, haqi to'lanadigan ishchi o'rinlaridan, daromad olishdan manfaatdorli ifodalaydi.

Ijtimoiy foydali mehnat bilan yollanib ishlovchilar; mehnatga layoqatsizlik, ta'til, malaka oshirish, ish tashlash yoki boshqa sabablarga ko'ra, kelib chiqqan ishlab chiqarishning to'xtatilishi bilan bog'liq vaqtinchalik ishida yo'qlar, o'zini vaqtincha ish bilan ta'minlovchilar; haqi to'lanadigan lavozimga tayinlangan va saylanganlar banddirlar. Bundan tashqari, harbiy xizmatda bo'lganlar; umumta'lim maktablarida, kasbiy-texnika o'quv yurtlarida o'quvchilar hamda oliy, o'rta maxsus va boshqa o'quv yurtlarida o'quv kurslarini o'tayotgan mehnatga layoqatli aholi esa iqtisodiy nafaol aholini tashkil etadi.

Bandlik maqomi Xalqaro klassifikatoriga (BMHK-93) muvofiq band aholining 6 ta guruhi ajratiladi:

- 1) yollanma ishchilar;
- 2) ish beruvchilar;
- 3) o'z hisobidan ishlovchi shaxslar;
- 4) ishlab chiqarish kooperativlari a'zolari;

5) oilaning yordam beruvchi a'zolari;

6) maqomi bo'yicha turkumlanmaydigan ishchilar

Iqtisodiyot va inson ehtiyojlariga mos kelishi darajasi bo'yicha bandlikni unumli, ratsional, samarali va optimal shakllarga ajratiladi.

Unumli bandlik – bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuklarini joriy etish, mehnat unumdorligini o'stirish manfaatlariga javob beradigan, yuqori malakali, yaxshi ta'lim ko'rgan va harakatchan ishchilarning sog'lom avlodini takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratadigan bandlikdir. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ning ta'riflashicha, unumli bandlik – bu mehnat mahsuli jamiyat tomonidan qabul qilinadigan va haqi to'lanadigan kishilarning bandligidir.

Ratsional bandlikning mazmuni bir qancha guruhlarni qamrab oladi, ularning bozorda mavjudligi yoki yo'qligiga qarab, ratsional bandlikmi yoki yo'qmi, aniqlash mumkin. Bu birinchidan, jamiyat, ijtimoiy guruhlar va alohida individning manfaatlarini hisobga olish; ikkinchidan, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasini ta'minlash, uchinchidan, jamiyat ishlab chiqarish kuchlaridagi o'zgarishlarga hech moslasha olish qobiliyatidir. Unumli bandlarning iqtisodiy faol aholi umumiy sonidagi hissasi ratsional bandlikni tavsiflaydi.

Mehnat bozorining rivojlanish sharoitlarida bu olimlarning ratsional bandlik – mehnatga qobiliyatli aholining doimiy ish joylariga talabini to'liq qondiradi, degan fikrlariga qo'shilish qiyin. Mehnat bozori yoppasiga bandlikni ta'minlamaydi va raqobat asosida soni o'zgarib turgan «doimiy» ish joylarini kafolatlamaydi.

Respublikamizda aholining ratsional bandligi shakllanishiga hali to'la erishilgani yo'q. Bunga quyidagilar asosiy to'siq bo'lmoqda: iqtisodiyotda tubdan tarkibiy islohotlar va ishlovchilar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ozod bo'lishining sekinligi; ish haqi mehnatning yakuniy natijalaridan uzilib qolishi; ish joylarining past sifatli moddiy – texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, ko'p bolali ayollar, pensionerlar va nogironlar faoliyatining yetarlicha rag'batlantirilmaganligi; ishchi kuchi taklifining o'sha bo'lgan talabga nisbatan ko'proq o'sayotganligi; bo'sh ish joylari haqida ishonchli axborotlarning kamligi va mehnat bozorini samarali tartibga solish mexanizmining takomillashmaganligi.

Samarali bandlik jamiyat taraqqiyotining mazkur bosqichidagi turmush tarzi mezonlari bilan belgilanadigan ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini takror ishlab chiqarishni ko'zda tutadi. Bandlikning samarali xarakteri daromad keltiradigan ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishni va ishchi o'rinlarining iqtisodiy va ijtimoiy maqsadga muvofiqligini ko'zda tutadi. Samarali bandlik yana iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikning jami aniqlangan mezonlari ko'plab variantlaridan eng yaxshisini tanlab olishni ham ko'zda tutadi.

Optimal bandlik – bu insonning davlat tomonidai choimiy ishlashga kafolatlar mavjud bo'lmagan sharoitda moddiy va ma'paviy ne'matlarni yaratish maqsadida alohida hak to'lash sharti bilan jamiyatda tegishli mavqe bilan ta'minlaydigan mehnat jarayopida katnashishidir.

Mehnatga layoqatli aholini qamrab olishiga ko'ra. bandlik to'liq va to'liqsiz (qisman) bo'lishi mumkin. To'liq va samarali bandlikka erishish davlat ijtimoiy – iqtisodiy siyosatining tub vazifalaridan biri, iqtisodiyot fanining muhim muammosi hisoblanadi.

«To'liq bandlik» tushunchasi bir xil talqin kilinmaydi. Uning tavsiflari asosiga qo'yilgan mezonlardan kelib chiqib, har xil talqin qilinadi. Masalan, Sovet davrida umumiy bandlik, butun mehnatga layoqatli aholini ishchi o'rinlari bilan ta'minlash fap gaa amaliyot uchun bunday mezon bo'lib xizmat kilgan. Jamiyat yuqori darajada cheklangan mehnat resurslari balansiga erishishga iitilgan.

G'arb iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida to'liq bandlik (ko'proq «optimal bandlik» tushunchasi qo'llaniladi), deganda iqtisodiyotning shunday holati tushuniladiki, bunda real ish haqining mavjud darajasida barcha ishlashni xohlovchilar ishga ega bo'ladilar.

Malakali (haqi to'lanadigan) mehnatga jalb qilishning qanday darajasida to'liq bandlikka erishish mumkin? degan savol tug'iladi. Ko'rinishidan ishchi o'rinlari ularga bo'lgan aholi ehtiyojlariga muvofiq kelganda. Biroq har qanday ishchi o'rni ham unga bo'lgan ehtiyojlarni qondiravermaydi. Ishsizlik mavjud bo'lishi bilan bir vaqtda vakant (band bo'lmagan) ishchi o'rinlarining mavjudligi bundan dalolat beradi. Shu sababli taqdim etiladigan iqtisodiy maqsadga muvofiq ishchi o'rinlari nazarda tutilishi kerak.

Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ishchi o'rinlari, deganda insonga o'zining shaxsiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, fan va texnika yutuqlaridan foydalaniib, yuqori mehnat unumdorligiga erishish hamda ishchi va uning oilasining me'yorida takror ishlab chiqarilishini

kafolatlaydigan yetarli ish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan ishchi o'rinlari tushuniladi. Ko'rsatilgan talablarga javob beradigan ishchi o'rnidan 2-3 smenada foydalanish mumkin, bunda 2-3 o'rin iqtisodiy maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'liq bandlik mavjud ishchi o'rinlarining ishlovchilar kasb-malaka tarkibi, ta'lim darajasiga nomuvofiqligi sharoitida iqtisodiy maqsadga muvofiqlik maqomidan bir muncha og'ishida ham ko'rinadi. Bunda ishchilar ham, davlat ham yo'qotishlarga ega bo'ladi.

Shu sababli bandlik samaradorligi yoki samarali bandlik muammosi vujudga keladi. Samarali bandlikning bunday ta'rifini to'la-to'kis qabul qilish mumkin, u insonni har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutadi. Biroq bunday keng ta'rifdan foydalanib, samarali bandlikni bitta ko'rsatkich yordamida o'lchash mumkin emas, balki ko'rsatkichlar tizimi orqali to'liq miqdoriy tavsifini berish mumkin.

Mazkur tizimdagi birinchi ko'rsatkichni aholining malakali mehnat bilan bandligi darajasi, deb atash mumkin. Aholini malakali mehnat bilan bandligi koeffitsiyentini malakali mehnat bilan bandlarni umumiy aholi soniga bo'lish orqali (foizlarda) aniqlash mumkin. Bu koeffitsiyent bandlikning demografik omillarga, ya'ni tug'ilish, o'lim va aholi o'simi koeffitsiyentlariga bog'liqligini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent jamiyat farovonligi tavsiflaridan birini beradi.

Agar O'zbekistonning ishlovchi aholisi kasb-malaka tarkibini AQSH ning shu singari tarkibi bilan taqqoslansa, O'zbekistoi Respublikasida jismoniy mehnatda bandlarning, unda esa malakasiz ishlarning ulushi yuqoriligini ko'rish mumkin. O'zbekistonning oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar orasida texnik ixtisoslikdagi kadrlar ustunlik qiladi hamda gumanitar va tabiiy mutaxassisliklar bo'yicha esa kam salmoqni tashkil etadi. AQSH da bunday mutaxassislarning ulushi O'zbekistondagiga qaraganda yuqori.

• Bandlik samaradorligi to'g'risida ishsizlik me'yori ko'rsatkichiga qarab ham fikr yuritish mumkin. Hozirgi vaqtda g'arb iqtisodiy adabiyotlarida to'liq va samarali bandlikka ishsizlikning tabiiy darajasi mavjud bo'lgan sharoitda erishiladi, degan nuqtayi nazar ommaviylashgan. Ishsizlikning tabiiy me'yori – bu uning shunday darajasidirki (talab va taklifning mavjud tarkibida), u real ish haqi va narxlar darajasini mehnat unumdorligining nolinchi o'sishi sharoitida o'zgarishsiz darajada to'liqsiz (qisman) bandlik to'liqsiz ish vaqtining miqdoriy tavsiflariga ko'ra quyidagi shakllarga bo'linadi:

- to'liqsiz ish vaqtida (qisqartirilgan ish kuni) beshdlik. Bu ish vaqtining inkirozli qisqarishi natijasidir. Bunday tartib korxonalarga

- malakali va tajribali xodimlarni saqlash hamda ishsizlikning oldini olish imkonini beradi;

- tig'izlashgan to'liqsiz ish haftasi. Tig'iz ish haftasi ish kuni kam sonlariga taqsimlangan (to'rt yarim, to'rt, uch) ish haftasining me'yoriy davomiyligini o'zida mujassamlashtiradi. Bu ish kunining uzayishiga olib keladi. Uch va undan kamroq ish kunida ishlangan 30-34 soat uzunligidagi tig'iz ish haftasi uning o'ziga xos tartibi hisoblanadi. Bandlik nuqtayi nazaridan bu tartib bir hafta davomidagi har kunlik ishda bo'lishi mumkin bo'lgan ishchi o'rinlari sonini ikki marta oshirish imkoniyatini beradi. Kuzatuvlar bunday tartibda ishlovchi ishchilar sonining o'sishini ko'rsatmoqda. Masalan, AQSH da o'n yil ichida (1982-yildan 1992-yilgacha) bunday ishchilar soni 1.5 marta oshdi.

- ishchi o'rinlarini bo'lish. Bu ham ish vaqtining inqirozli qisqarishi tartibi bo'lib, bir ishchi o'rnini ikki ishchi tomonidan bo'lib olinadi. Kishilar ish soatlarini, ish haqini, dam olish kunlarini, ijtimoiy imtiyozlarni bo'lishib oladilar. Bu bandlik siyosatini egiluvchanligini ta'minlash va malakali ishchi kadrlarni saqlab qolishga yordam beradi. Masalan, Buyuk Britaniyada ishchi o'rinlarini bo'lishning maxsus dasturi mavjud bo'lib, u bo'yicha davlat korxonalarga har bir bo'shagan ishchi o'rnini uchun 750 f.st. dan haq beradi:

- ish vaqtining muqobil tartibi Bu kamdan kam qo'llaniladigan ikkita ishchidan to'liqsiz bandlik sharoitida foydalanish tartibidir. U ham ishchi o'rinlarini bo'lishni o'zida mujassamlashtiradi, biroq bunda ikki kishi bir ishchi o'rnida almashib ishlaydi (masalan, hafta oralab).

Bandlikning har xil turlari orasida ikkilamchi bandlik alohida o'rin tutadi. Ko'p hollarda ikkilamchi bandlik mehnatkashlarga qo'shimcha daromad keltiradi. Fuqarolarni qo'shimcha ish izlashga majbur qiladigan qator sabablarni ajratish mumkin:

- 1) daromadlar darajasini ko'tarishga bo'lgan intilish. Ishchilarda bunday intilish asosiy ishchi o'rnidagi ish haqi darajasi uning asosiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini kondirish imkoniyatini bermagan, ammo u yoki bu sabablarga ko'ra, ishchi ishdan bo'shashni ham, yashashni ham xohlamagan hollarda vujudga keladi.

- 2) Hozirgi paytda mehnat bozorida o'zining raqobatbardoshligini oshirishga bo'lgan intilish. U ko'pincha yashirin ishsizlik bilan qamrab olingan bo'lib, xalq xo'jaligida rasman band bo'lgan kishilarda yuzaga

keladi. Biroq korxonaning inqirozli holati bilan bog'liq ravishda ular istalgan vaqtda real ishsizga aylanishi mumkin.

Ko'p hollarda ikkilamchi bandlik mehnat bozorini tartibga solish sohasidagi davlat siyosati doirasida bo'ladi. Biroq ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasiga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatishning u yoki bu tadbirlari ikkilamchi bandlik ko'lamlarining o'sishi yoki qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bunda qonuniy asosda o'rnatiladigan eng kam ish haqi hajmi alohida rol o'ynaydi. Aynan eng kam ish haqi aniq korxonalar va tashkilotlarda mehnatga haq to'lash tizimini yaratishda o'ziga xos hisob nuqtasi hisoblanib, mehnat bahosining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, mehnatning bahosi uning taklifining ko'lamlariga ta'sir ko'rsatadi. O'ziga xos ortiqcha mehnat taklifi aynan past mehnat bahosi va bir ish haqiga arziqli turmush darajasini ushlab turish imkoni yo'qligi bilan yuzaga keladi. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish tajribasi ko'rsatishicha, u yoki bu hodisalarning iqtisodiy sabablarini bartaraf qilmay turib, ma'muriy tavsifdagi choralarni qo'llash (o'rindoshlikni taqiqlash, fuqarolar yalpi daromadini cheklash, professiv soliqqa tortish va hokazo) yomon oqibatlariga olib keladi, ikkilamchi bandlik holatida esa uning yashirin bandlikka aylanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Egiluvchan mehnat bozori ishga joylashtirish va ishchi kuchidan foydalanishning har xil shakllarini talab qiladi. Mehnat bozorida yollanma ishchining egiluvchanligi, uning kasbiy, malakaviy va ijtimoiy harakatchanligi, o'zgarib borayotgan ijtimoiy-mehnat munosabatlarida o'z o'rini topish ko'nikmalari raqobatbardoshlik darajasini so'zsiz oshiradi va hatto iqtisodiy inqirozlar sharoitida ham bandlikni kafolatlaydi.

Ishga joylashtirishning legitimligi bo'yicha bandlik rasmiy va norasmiyga ajratilishi mumkin. Rasmiy bandlik – bu rasmiy iqtisodiyotda ro'yxatga olingan bandlik bo'lsa, norasmiy bandlik – rasmiy iqtisodiyotda ro'yxatga olinmagan bandlikdir. Bandlik sohasidagi ishchi o'rinlarining muhim manbayi sifatida iqtisodiyotning norasmiy sektorini va uning alohida turlarini tan olish kerak. Shu bilan bog'liq raqamlarda XMT maxsus 169-Konvensiyani qabul qildi. Unga ko'ra, rasmiy va norasmiy sektorlar o'rtasida qo'shimcha aloqalar o'rnatishga va norasmiy sektorning milliy iqtisodiyotga muntazam qo'shilib borishi uchun sharoit yaratishga ko'maklashish zarur.

Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda uy ishlab chiqarishi tizimi kam ahamiyatga ega emas. Shunga qaramay, uy ishlab chiqarishi tizimining mazmuni shundan iboratki, ular tovarlar va xizmatlarni xarid qiladi, mehnatni to'ldiradi va xarid qilingan mahsulot tayyorlangunga qadar uy xo'jaligida pirovard iste'molga o'tadi. Mazkur (faoliyat «o'z-o'zini ta'minlash» nomini olgan. Bu mehnat yollanma ishchilarning mehnatidan farqlanadi, chunki unga mehnat bozoriga chiqishga to'g'ri kelmaydi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar tegishli bozorlarda sotilishi talab qilinmaydi.

Bozor xo'jaligida uy xo'jaliklarining moddiy ne'matlarga bo'lgan talab subyekti sifatidagi va resurslarining sotuvchisi sifatidagi roli juda katta. Uy xo'jaliklarining muhim ishlab chiqarish resurslari mehnat va pul mablag'lari taklifining subyekti sifatidagi roli ham katta ahamiyatga ega. Biroq rasmiy iqtisodiyot sohasidagi mehnat munosabatlari oila iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Dehqon xo'jaliklaridagi (SHTX) bandlik qishloq aholisi hayotida alohida ahamiyatga ega. Dehqon xo'jaliklari – bu bir oila doirasida chegaralangan xo'jalik. U kichik ko'lamlarda yuritiladi, unda asosan, oddiy takror ishlab chiqarish amalga oshiriladi. SHTXda ko'proq mehnat qurollari va qo'l mehnatidan foydalaniladi. Oxirgi paytlarda bozorda qishloq ishlab chiqaruvchilarining mehnatini yengillatish imkoniyatini beradigan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari paydo bo'ldi.

Istiqbolda bozor munosabatlari to'g'ri rivojlangan sharoitda shaxsiy tomorqa xo'jaligining tarkibi, shakllari, yuritish usullari o'zgarishi mumkin bo'lsada, ular amal qiladi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanadigan kishilarga soliq va kredit imtiyozlari berish kerak, dehqon xo'jaliklaridagi ish mehnat stajiga kiritilishi zarur. Buning uchun dehqon xo'jaliklari yuridik shaxs maqomini olishlari lozim.

Keyingi yillarda mustaqil bandlikning yangi turlari paydo bo'ldi: gazeta e'lonlari bo'yicha ro'yxatga olinmagan bandlik (barcha mumkin bo'lgan xizmat turlarini qamrab oladigan) va ko'cha savdosi va buyum bozoridagi savdolar («iqtisodiy turizm», «chelnoki»), transportdagi gazeta va jumallar savdosi bilan bog'liq shakllari paydo bo'ldi. Aholi o'z-o'zicha bandligining ko'rib chiqilgan turlari rasman qayd etilmaganligi bilan rasmiy bandlikdan farqlanadi.

Tashkil qilish shakllari bo'yicha bandlik standart va nostandart turlarga bo'linadi. Bunday bo'lishning asosida mehnat jarayonini tashkil qilishning o'ziga xosligi yotadi hamda turli shakllarga kiradi. Standart

(me'yoridagi) bandlik – bu 8 soatlik ish kuni va 40 soatlik ish haftasi sharoitida doimiy ishlashni ko'zda tutadigan bandlikdir.

Bozor qonunlari va talablariga muvofiq, iqtisodiyotda kechayotgan o'zgarishlar bandlik konsepsiyalarining o'zgarishini ham keltirib chiqardi. Mulkchilik munosabatlari birlamchi, ular bandlik munosabatlarini belgilaydi, bu munosabatlar esa ikkilamchi bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu qoidani bandlikning hozirgi zamon konsepsiyasini shakllantirishda dastlabki bo'g'in, deb hisoblash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 6-moddasida aytilishicha, davlat «barcha fuqarolarga jinsidan, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy va mansab holatidan, dinga munosabati, e'tiqodi, jamoa birlashmalariga mansubligi hamda ishchilar va ular mehnatining natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa holatlardan qat'iy nazar, mehnat va bandlikni erkin tanlash huquqini ro'yobga chiqarishda teng imkoniyatlarni ta'minlash» siyosatini olib boradi.

12.2. Real sektorda bandlikning o'zgarish sabablari va oqibatlari

Real sektorda bandlik tarkibidagi o'zgarishlar bevosita iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar jarayonlari bilan uzviy bog'liq ravishda kelib chiqadi. Shu jihatdan bu o'zgarishlarning sabablari iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi sabablar bilan belgilanadi.

Bandlikda yuz berayotgan u yoki bu tarkibiy siljishlarning sabablarini shartli ravishda ichki va tashqi sabablar bo'yicha ajratish mumkin. Ko'pincha ularning aralashib ketishi ham kuzatiladi, bu esa oxirigacha ilmiy tahlil qilish imkoniyatini bermaydi. Tizimli yondashuv va ijtimoiy tizimlarning ochiqqligi to'g'risidagi qoida nuqtayi nazaridan u yoki bu sabab bandlik tizimidagi tarkibiy siljishlarning holatidan kelib chiqib, ichki yoki tashqi sifatida o'rganiladi. Chunki yuqoriroq iqtisodiy darajalardagi siljishlar avvalgi iqtisodiy darajalar tarkibidagi siljishlarni o'z ichiga oladi. Ilmiy – texnika taraqqiyoti jamiyatning moddiy – texnika bazasini, texnika va texnologiyasini o'zgartirgan holda iqtisodiyot va bandlik tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Nazariy jihatdan shuni ta'kidlash muhimki, ishlab chiqarishning texnologik tarkibidagi siljishlar ilmiy bilimlarni moddiylashtirishning birlamchi sohasi hisoblanadi, sifat ko'rsatkichlari va mehnat resurslari tarkibining

o'zgarishi bilan tavsiflanadi, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish jarayonining zaruriy holatini tashkil etadi. Iqtisodiy tarkibning texnologik jihatida tashkiliy tarkib bilan uzviy bog'liq. Agar texnologik tarkib ishlab chiqaruvchi kuchlar alohida unsurlarining tarkibi va nisbati bilan tavsiflansa, u holda tashkiliy tarkib – iqtisodiyot xo'jalik bo'g'inlarining tarkibi va nisbati bilan, ya'ni ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning ijtimoiy shakli bilan bog'langan. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro ta'siri aynan tashkiliy – iqtisodiy tarkib orqali boradi.

Iqtisodiy tarkibning texnologik jihatida tashkiliy tarkib bilan uzviy bog'liq. Agar texnologik tarkib ishlab chiqaruvchi kuchlar alohida unsurlarining tarkibi va nisbati bilan tavsiflansa, u holda tashkiliy tarkib – iqtisodiyot xo'jalik bo'g'inlarining tarkibi va nisbati bilan, ya'ni ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning ijtimoiy shakli bilan bog'langan. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro ta'siri aynan tashkiliy – iqtisodiy tarkib orqali ifodlanadi.


Iqtisodiyotning texnologik va tashkiliy tuzilmalari o'rtasida to'g'ri va teskari aloqadorlik mavjud. Texnika va texnologiyadagi siljishlar ishlab chiqarishni tashkil qilish va uni boshqarish tarkibidagi siljishlarni keltirib chiqaradi. Ayni vaqtda ilmiy bilimlarni moddiylashtirish va texnik yangiliklarni tarqatish tezligi ko'p darajada mavjud tashkiliy tuzilmaning ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT) talablari va o'zgarib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq tez tuzila olish layoqatiga bog'liq.

ITT ning bandlik tarmoq tarkibidagi siljishlarga ta'siri mehnat resurslarini, shu bilan bir qatorda, turli tarmoq va faoliyat sohalari o'rtasidagi ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflarini ham qayta taqsimlash ko'rinishida boradi. Bandlik tarmoq nisbatlari o'zgarishning asosini bir tomondan, texnologiyadagi siljishlar, boshqa tomonidan, ijtimoiy ehtiyojlarning murakkablashuvi tashkil etadi.

Bandlikdagi tarkibiy siljishlarning yana bir sababi – mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va yanada ixtisoslashishi bo'lib, jamiyat xo'jalik hayotining stratifikatsiyasi jarayoni unga asoslanadi. Mehnat taqsimoti tushunchasi nafaqat texnik, balki bandlikni tarkiblarining iqtisodiy asosini ham tavsiflaydi. Iqtisodiyotdagi turli – tuman siklik jarayonlar bandlikdagi tarkibiy siljishlarning yana bir sababi hisoblanadi.

Bandlikdagi tarkibiy siljishlarga davlatning iqtisodiy siyosati hamda ayni paytda mamlakatda mavjud xo'jalik-huquqiy me'yorlar kam ta'sir ko'rsatmaydi. Iqtisodiy siyosat xo'jalik qonunchiligida ham, ijtimoiy

ishlab chiqarish ishtirokchilarining unga mos harakatlari yoki harakatsizligida ham qamrab olinadi. Agar tarkibiy siyosat obyektiv qonunlarga tayansa, u holda ilg'or tarkibiy siljishlarni jadallashtiradi; agar u obyektiv iqtisodiy rivojlanishning borishiga qarshi yo'naltirilgan bo'lsa, ularning to'xtatuvchisi sifatida o'zini halokatga ham uchratadi.



12.2.1-chizma. Real sektor iqtisodiyotida bandlik tarkibidagi siljishlarning asosiy sabablari

Tarkib biror unurning kichik o'zgarishlari unish qarama-qarshisi bilan o'sha paytning o'zida muvozanatlashadi va asosiy tizimli sifatlarining o'zgarishiga olib kelmaydi. Shunday qilib, rivojlanishning asta-sekinlik bilan evolutsiyon kechish jarayoni yuz beradi. Davlatga qarashli bo'lmagan sektorni qo'llab-quvvatlash uchun respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tashkil etildi. Turli mulkchilik shakllarida ish yurituvchilar mehnat bozorida xaridor sifatida chiqib, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi kuchga aylanib bormoqda. Makon xususiyatiga ko'ra, mehnat bozori 3 guruhga bo'linadi:

- 1) jahon mehnat bozori;
- 2) xalqaro mehnat bozori;
- 3) hududiy mehnat bozori.

Jahon mehnat bozori deyilganda, umumjahon xo'jaligida amalga oshadigan va ishchi kuchi oldi – sotdisi bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar majmuyi tushuniladi. Jahon mehnat bozori murakkab jarayon bo'lib, xalqaro va hududiy mehnat bozorlari uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisod fanida jahon mehnat bozori juda kam o'rganilgan bo'lib, uning sifat va miqdor o'lchamlari, nazariy asoslari to'g'risida keng miqyosli va yirik izlanishlar amalga oshirilmagan.

Mehnat bozorining nisbatan chuqur o'rganilgan qismlaridan biri xalqaro mehnat bozori hisoblanadi. Aksariyat tadqiqotchilar jahon va xalqaro mehnat bozorlarini bir-biri bilan adashtirib yuboradilar. Aslida jahon mehnat bozorini dunyo mamlakatlari mehnat bozorlari va ular orasida ishchi kuchini ayirboshlash bo'yicha amalga oshadigan xalqaro munosabatlarning yig'indisi, deb tushunish kerak. Xalqaro mehnat bozori, deyilganda qit'alar, jahonning muayyan hududlari, davlatlar orasidagi migratsiya natijasida ishchi kuchini yollash va yollanishga aloqador xalqaro ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar tushuniladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyotining shakllanishi bandlarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishi bilan boradi. Eng avvalo, nodavlat sektoridagi bandlik salmog'i va sonining sezilarli oshishi sharoitida davlat sektoridagi bandlik salmog'i va sonining kamayishini qayd etish joiz. Ularning asosiy qismi (69,1 %) xususiy mulkchilik korxonalarida, shu jumladan, fermer xo'jaliklarida – 10,4 %, dehqon xo'jaliklarida – 13,9 %, yakka mehnat faoliyatida – 42,9 %i mehnat qilmoqdalar.

12.2.1-jadval

O'zbekiston iqtisodiyoti real sektor tarmoqlarida bandlar sonining 2030-yilgacha dinamikasi prognozi

Ko'rsatkichlar	1990	2000	2005	2010	Istiqbol			
					2015	2020	2025	2030
Jami bandlar:	7941	8983	10196	11628,4	13198	15006	17228	19779
Shu jumladan	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Sanoat	15,1	12,7	13,2	13,4	14,0	14,9	16,6	17,1
Qishloq xo'jaligi	39,3	34,4	29,1	24,7	19,7	15,2	11,8	9,2
Qurilish	8,9	7,5	8,3	9,1	9,2	9,7	10,3	11,2

Transport va aloqa	5,1	4,3	4,8	5,1	5,5	6,1	6,5	6,9
Savdo va umumiy ovqatlanish	5,8	8,4	8,9	10,7	13,5	15,1	16,5	16,9
Uy-joy kommunal xo'jaligi	2,4	2,8	3,1	3,4	3,3	3,4	3,6	3,8
Sog'liqni saqlash	5,9	6,5	7,2	7,6	7,6	7,8	8,2	8,7
Ta'lim, madaniyat	13,9	12,8	13,6	13,9	13,9	14,2	15,2	16,0
Moliya, kredit, sug'urta	0,3	0,6	0,5	0,6	0,5	0,5	0,5	0,5
Boshqalar	3,3	10,0	11,3	11,5	12,8	13,1	10,8	9,7

Bizning prognozlarga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida bandlar soni 2030-yilga borib, 2010-yilga nisbatan 70,1 %ga o'sadi. Bunga migratsiyadagi o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish soha va tarmoqlari o'rtasida oqilona qayta taqsimlash zarur. Bandlikning tarmoq tarkibi va unish mumkin bo'lgan o'zgarishlari 13.2.1-jadvalda aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da bayon etilgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlari mamlakatimiz iqtisodiyotida bandlikni ta'minlashning yaqin yillar ichidagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uni yanada diversifikatsiya qilish sanoatning ish bilan bandlikdagi ulushini 2010-yildagi 13,4 % dan 2015-yilda 14,0 % ga, 2020-yilda 14,9 % ga, 2025-yilda 16,6 % ga 2030-yilda 17,1 % gacha oshirish imkonini beradi. Natijada 2011-2030-yilga qadar qishloq xo'jaligidagi bandlar soni 63,3 % ga kamaygani holda, uning jami bandlardagi ulushi 24,7 % dan 9,2 % ga qadar tushadi.

Prognozlarimizga ko'ra, infratuzilma sohasi, ayniqsa, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish sohasining ulushi o'sadi. Bunga elektron savdo va boshqaruvning axborotlashgan jarayonlari hamda savdo vositachilari soni va narxlar o'sishini cheklash bo'yicha iqtisodiy tadbirlar, yirik byurokratik apparatni qisqartirish bo'yicha ma'muriy tadbirlar cheklovchi ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy islohotlarning asosiy vazifasi kishilar turmushi sifatini yanada yaxshilashdan iborat. Agar bu o'z vaqtida hal qilinmasa, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy sohada uni isloh qilish yo'nalishida muhim qarorlarni qabul qilishdan oldin jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy muammolarini puxta aniqlash, kelajak harakat

ustuvorliklarini belgilash zarur bo'ladi. Hal qilish usullari nuqtayi nazaridan uch guruh muammolar mavjud:

- Birinchisi aholining holati, uni takror iib chiqarishning miqdoriy va sifat jihatlari. shu jumladan, mitsran.ion harakatlanish masalalari bilan bog'liq.

- Ikkinchisi fuqarolarning turmush sifatiga, uning moddiy ta'minotiga tegishli va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf qilish vazifasi bilan uzviy birga boradi.

- Uchinchi guruh muammolar ijtimoiy soha barcha tarmoqlarining (sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy kommunal xo'jaligi va ijtimoiy xizmat ko'rsatish, madaniyat va sportni rivojlantirish) islohoti bilan bog'liqdir.

13.2.2-jadvalda yaqin 20-yil ichida sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

12.2.2-jadval

O'zbekiston sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotning 2030-yilgacha dinamikasi prognozi

Ko'rsatkichlar	1990	2000	2005	2010	Istiqbol			
					2015	2020	2025	2030
O'rtacha bandlar soni	468	587	736	888,8	1003,0	1170,5	1412,7	1720,8
Iqtisodiyotda jami bandlarga nisbatan foiz hisobida	5,9	6,5	7,2	7,6	7,6	7,8	8,2	8,7
Investitsiyalar, jami asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmiga nisbatan, % da		2,4	2,4	2,1	2,5	2,4	2,3	2,3
Yalpi qo'shulgan qiymat, YalM ga nisbatan % da	7,4	6,2	5,9	7,9	8,1	8,1	8,3	8,5

Mazkur sohadagi vaziyat, birinchi navbatda, ijtimoiy tavsifdagi milliy loyihalarni amalga oshirish uchun tarmoqqa investitsiyalar hajmlarini oshirish hisobiga ancha o'zgaradi.

Prognozlarga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasiga milliy loyihani joriy etish natijasida barcha uch ko'rsatkich bo'yicha tarmoklar hisssasi 2015-yilga kelib, bir muncha oshadi. Ijobiy natijaga erishish uchun sog'liqni saqlashga jiddiy qo'yilmalar qilish zarur

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 1998-yilda qabul qilingan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi mamlakatimizda butun tibbiyot tizimini qayta qurish, ko'p sarf-xarajat talab etadigan va hamma vaqt ham samarali bo'shagan statsionar tibbiy yordamdan ambulator-poliklinika va profilaktika tibbiyotiga ustuvor ahamiyat berishga o'tishda muhim omil bo'ldi.

Xususan, 2011-2015-yillarda 700 dan ortiq (o'tgan 5-yildagiga nisbatan 1,8 barobar ko'p) sog'liqni saqlash muassasalari kurish, rekonstruksiya qilish va ularni jihozlash ko'zda tutilgan.

Bu tadbirlar natijasida sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotning YaIM dagi, ish bilan bandlardagi salmog'i oshadi. Mazkur sohadagi bandlar soni 2010-yildagiga nisbatan 2030-yilda deyarli 2 barobarga yaqin ortgani holda, jami bandlardagi ulushi 2010-yildagi 7,6% dan 2030-yildagi 8,7% ga ko'payadi. Hukumatning aholi nisbatan keng qatlamlarini o'ziga jalb qiladigan hokimiyatning har bir harakati amalga oshishdan oldin albatta, kishilar turmush sifatiga bevosita yoki bilvosita qandan ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan baholanishi zarur.

12.3. Real sektorda aholi daromadlari va iste'molini prognozlash masalalari

Aholi daromadlari va iste'molini prognozlashning muhim vositalari bo'lib aholining pullik daromadlari va xarajatlari balansi hisoblanadi (PDXB). Quyidagi 13.3.1-Jadvalda aholining pullik daromadlari va xarajatlari balansi keltirilgan bo'lib, unda balans tarkibiga kiritilgan barcha elementlarni prognozlash hisob-kitobida foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

12.3.1-jadval

N _o	Pullik daromad va xarajatlar turlari	Ko'rsatkich nomlanishi
1.	Daromadlar	D
2.	Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad	D ₁
3.	Ish haqi	W
4.	Ish haqidan tashqari ishchi xodimlarning korxonalar va tashkilotlardan topgan daromadi	WO
5.	Ijtimoiy to'lovlar	TS
	Shu jumladan, pensiyalar	TS ₁
	nafaqalar	TS ₂
	Stipendiyalar	TS ₃
	Sug'urta to'lovlari	TS ₄
	Lotareyadan olingan yutuqlar	TS ₅

6	Mulkdan olingan daromadlar	DP
	Jumladan, dividendlar	DP ₁
	Omonatlardan olingan foizlar	DP ₂
	Qimmatli qog'ozlardan olingan daromaddan to'lovlar	DP ₃
	Boshqalar	DP _n
7	Xorij valutasini sotishdan oladigan aholi daromadlari	DCUR
8	Boshqa daromadlar	DOT
9	Jamg'arma va xarajatlar	E
10	Tovarlarni sotib olish va xizmat ko'rsatishga to'lovlar	C
	Shu jumladan, tovarlarni sotib olish	C ₁
	Xizmat ko'rsatishga to'lovlar va boshqa xarajatlar	C ₂
11	Majburiy to'lovlar va turli xil badallar	TN
	Shu jumladan, soliqlar va yig'imlar	TN ₁
	Sug'urta to'lovlari	TN ₂
	Jamiyat va kooperativ tashkilotlari badallari	TN ₃
	Kreditlarga foiz to'lovlari	TN ₄
	Boshqalar	TN ₅
12	Qimmatli qog'ozlar va omonatlardagi jamg'armalar	S
	Shu jumladan, Jamg'arma banklaridagi muassasalar tomonidan qo'yilgan omonatlarning o'sishi	S ₁
	Jamg'arma banklardan tashqari kredit uyushmalaridagi omonatlarning o'sishi	S ₂
	Qimmatli qog'ozlardan olinadigan mablag'lar	S ₃
	Jismoniy shaxslarning banklarga qo'ygan omonatlarining o'sishi	S ₄
13.	Mulk sotib olishga qilingan sarf-xarajatlar	S ₅
14	Xorij valutasini sotib olishga qilingan aholi xarajatlari	CUR
15.	Kreditlar bo'yicha qarzdorlikning o'zgarishi	S ₆
16	Yakka tadbirkorlik faoliyati hisobiga mablag'larning o'sishi	S ₇
17	Pul o'tkazmalariga qilingan xarajatlar	EQ
18.	Aholi qo'lidagi naqd pullarning o'sishi	M
19	Balans	

Real sektor iqtisodiyotida aholi daromadlari va iste'molini prognozlashning muhim vositalari bo'lib aholining pullik daromadlari va xarajatlari balansi (PDXB)dan bunday tarkibda foydalanish orqali ular har bir daromad va sarf-xarajatlarning tarkibiy qism bandleri bo'yicha tahlil qilish hamda istiqbolida ularda kutilayotgan daromad yoki xarajatlarning prognozlash imkonini beradi. Albatta, bunday tarzda yondashish milliy iqtisodiyot real sektor tarmoqlarida band bo'lgan aholining yuqorida keltirilgan PXDBdan foydalanish ko'p ham to'g'ri kelavermaydi. Chunki, mulkchilikning turli shakllarining o'zgarishi asosida tashkil etilayotgan turli korxona va muassasalarda band bo'lgan aholi yuqorida keltirilgan daromad va xarajatlarga ega bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan balans modelidagi ko'rsatkichlardan iqtisodiyotning real sektor tarmoqlaridagi ishlab chiqarishning makroiqtisodiy

ko'rsatkichlar tizimiga va YaIMdan foydalanish darajasiga bog'langan holda tahlillar qilinadi. Misol uchun YaIMda aholi daromadlarining ulushi, aholi yillik sarf-xarajatlarning o'zgarishi, aholidan olinadigan soliq va yig'imlar, aholi jamg'armalari, aholi qo'lidagi naqd pullarning o'sishi va boshqalar. Bular bevosita iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq. Aynan shunday tahliliy ishlarning samarali yo'lga qo'yilishi va yuqorida keltirilgan balans modelining mavjud ko'rsatkichlaridan unumli foydalanish bevosita davlat istiqbolli dasturlarini tuzishda qo'l keladi.

XIII BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA UNI PROGNOZLASH

13.1. Real sektor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda prognozlashning ahamiyati

Iqtisodiyotning samarali faoliyati avvalo iqtisodiyotning real va moliyaviy sektor o'rtalaridagi iqtisodiy mutanosibliklar ta'minlashi zarur bo'ladi. Albatta, bunday mutanosibliklarning ta'minlashida davlat asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Real amaliy hayotda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning bozor mexanizmlaridan foydalanishning o'zi kifoya qilmaydi. Holbuki, o'zining aniqligi va samaradorlikka egaligiga qaramay, iqtisodiyotdagi bozor mexanizmi dastak, vositalarining amal qilishida ma'lum muammolarga duch kelishi mumkin, ularni faqatgina davlat tomonidan tartiblash mexanizmlaridan oqilona foydalanish orqaligina bartaraf etish mumkin. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov «O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz. eng avvalo, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik».¹


Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ikki yo'nalishda kechadi. Birinchidan, iqtisodiyotning davlat sektorini hosil etuvchi korxona va tashkilotlar milliy iqtisodiyotning bir bo'lagi sifatida tovar va xizmatlar yaratib bozor munosabatlarida ishtirok etadi. Ikkinchidan, davlat umumiy manfaatlarni ifodalovchi kuch sifatida milliy iqtisodiyotni, xususan real va moliyaviy sektor mutanosibliklari o'rtasidagi o'zaro aloqa va jarayonlarni tartiblashda ishtirok etadi.

Davlatning turli idora va tashkilotlari iste'molchi sifatida bozordan resurslar va iste'mol tovarlarni sotib olganda xaridor sifatida bozor

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari – T O'zbekiston, 2009 – B

aloqalarida ishtirok etadi. Davlat firmalari bozorga o'z tovar va xizmatlarini taklif etadi va bozordagi resurslarga talab bildiradi. Har ikki holatda davlat iqtisodiyotning subyekti vazifasini o'taydi. Biroq, davlat bozorga nisbatan tashqi kuch sifatida ham maydonga chiqib butun iqtisodiyotni tartiblashda ishtirok etadi. Bunda davlat jamiyat nomidan ish ko'radi. Davlat firmalar va xonadonlar o'rtasidagi subyekt sifatida ularning aloqalarini tartibga soladi (1.1-rasm)

Davlatning iste'moli uning buyurtmalari orqali talabni oshirib, firmalar uchun qo'shimcha talab yaratib beradi.



13.1.1-rasm. Davlatning bozor aloqalari ta'siri.

Davlatning xonadonlarga beradigan pul transfertlari ularning xarid qobiliyatini oshiradi bu esa, o'z navbatida, talabni oshirib firmalar bozorini kengaytiradi. Davlat sektorining korxonalari o'z tovar va xizmatlarini bozorga chiqarib u yerdagi taklifni oshiradi. Davlat sektori hamma uchun zarur, lekin rentabelligi pastligidan firmalar qo'l urmaydigan tovar va xizmatlarni yaratadi. Aksariyat hollarda davlat sektori ishlab chiqarish infratuzilmasi, chunonchi, yoqilg'i-energetika, transport, yo'l xo'jaligi, suv xo'jaligi, aloqa kabi sohalarini qamrab oladi. Ularning tovar va xizmatlari esa milliy iqtisodiyotning rivoji uchun zarur, shu sababli ushbu sohalar xarajatini davlat o'z zimmasiga olib, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Davlat ham iqtisodiyot subyekti, lekin bu oddiy subyekt emas, balki butun iqtisodiyotni tartiblab turuvchi subyektdir. Milliy iqtisodiyotni tartiblab turishda faqat bozor kuchlari emas, balki davlat ham qatnashadi. Boshqa subyektlar, masalan, firmalar, faqat o'z faoliyatini tor doirada, ya'ni korxona doirasida tartiblay oladilar. Makroiqtisodiy

darajada turli subyektlar faoliyatini bozor mexanizmi bir-biriga muvofiqlashtirib tursada u vaqti-vaqti bilan layoqatsiz bo'lib turadi. Shu sababli iqtisodiyotni tartiblashda davlat faol ishtirok etadi, lekin bu bozor qonun-qoidalari doirasida yuz beradi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotini davlat tartiblab turishini faqat bozorning layoqatsiz bo'lib qolishi bilangina izohlash mumkin emas, chunki iqtisodiy aloqalar g'oyat keng miqyosli va murakkab bo'lib, bozor kuchlari hatto mukammal ishlagan taqdirda ham ularni to'la-to'kis tartibga sola olmaydi. Hozirgi ishlab chiqarish chuqur ixtisoslashgan bo'lib tovar va xizmatlar ko'pchilik turdagi mehnatining mahsuliga aylanadi, ularning turlari ko'payadi. Iste'molga tayyor tovarlarni yaratishda keng qamrovli iqtisodiy aloqalar talab qilinadi, korxonalar bir-biriga resurslar, butlovchi qismlar va hatto detallar yetkazib beradi. Ishlab chiqarishda texnikaviy murakkab tovarlar hissasining ortib borishi qayd qilingan aloqalarning muntazam bo'lishini talab qiladiki, bu iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida yanada kuchayadi. Korxonalarning tashqi iqtisodiy aloqalari ahamiyati g'oyat oshadi va bularni o'rnatishda davlatning ishtiroki talab qilinadi.

Iqtisodiy aloqalarning globalizatsiya darajasiga chiqishi davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirsa, korxonalarda bozorga qarab o'z faoliyatini o'zi tartiblashga intilishi bu rolini cheklaydi.

Fan-texnika taraqqiyotda korxonalarni mikrodarajada boshqarishning eng mukammal vositalarini yaratdi. Bunga misol qilib boshqarishning kompyuterlashuvini, korxonalarning global axborotlar tarmog'iga chiqishini olish mumkin. Buning natijasida korxonalar bozor haqida atroflicha axborotga ega bo'ladilar, bundan foydalanib bozorni prognoz qiladilar, o'z faoliyatini bozor talabiga o'z vaqtida moslashtira oladilar. Natijada o'z faoliyatini o'zi tartiblash imkoni kengayib boradi.

Xullas, davlatning rolini jiddiy omillar belgilaydi. Iqtisodiy aloqalarning global tus olishi davlatning rolini kuchaytirsa, o'zini-o'zi tartiblash imkoni bu rolni cheklab turadi. Shu sababli davlatning iqtisodiyotga aralashuvi me'yorida bo'lishi talab qilinadi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuv me'yori shundan iboratki, uning faoliyati bozor mexanizmining ishlashiga halaqit bermasligi, aksincha bunga sharoit yaratib berishi kerak, zarur bo'lganda bu mexanizm ishini to'ldirib turishi ham talab qilinadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida tartiblashning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmi birgalikda amal qiladi. Biroq, ularning nisbati sharoitga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, Italiya, Avstriya, Fransiya,

Shvetsiyada davlatning roli kuchli bo'lsa, AQSH, Yaponiya va Germaniyada bu nisbatan kuchsiz.

Davlatning tartiblovchi rolini iqtisodiyotning umumiy holati ham belgilaydi. Iqtisodiyot o'sayotgan paytlarda bozor kuchlari ishlab turganidan davlat iqtisodiyotga kamroq aralashadi. Aksincha, iqtisodiyotda fluktuatsiya kechganda davlat iqtisodiyotni o'nglash uchun unga faol aralashadi.

Davlat iqtisodiyotga o'z siyosati bilan ta'sir etadi.

Davlatning siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir.

Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi. Siyosatda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy kon'yunkturaning milliy iqtisodiyotga nechog'liq ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi. Davlat siyosati davlat rahbarlarining erk-irodasi va qat'iyatligiga va qilingan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YaIM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash, uni chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Bu iqtisodiy oqimlarning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul qadr-qiymatini, uning barqarorligini ta'minlash, mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholi turmush farovonligini muttasil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiyligini to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

6. Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsion jarayonlar va globalizatsiyada faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o'z o'mini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

7. Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta'minlash, ya'ni uni uzoq istiqbolda o'sib borishiga sharoit hozirlash. Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning qisqa vaqtdagi taktik, ya'ni juz'iy maqsadlari ham bor. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsiyalarni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Juz'iy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

Davlat iqtisodiy siyosati belgilagan maqsadlarga quyidagi vositalar bilan erishiladi. Birinchisi, iqtisodiy vositalar bo'lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, hisob stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiyalar (jazolash vositalari) kabilar kiradi. Ikkinchisi, yuridik vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag'batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarni ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi. Uchinchisi, siyosiy-ma'muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo'lganidan o'z siyosatiga rioya etilishini o'z organlari kuchi bilan ta'minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari va buyruqlariga hamma itoat etishi kerak bo'ladi. Ma'muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini bir qator omillar zarur qilib qo'yadi. Bular quyidagilar:

- milliy iqtisodiyotda bozor vositasida bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali bajarib bo'lmaydigan vazifalarni hal qilish (mudofaani ta'minlash, ichki tartibni saqlash, aholini ijtimoiy himoyalash);

- ishlab chiqarish va iste'mol oqibatida vujudga keladigan ijobiy samara va salbiy oqibatlarni bartaraf qilish (tozalash qurilmalari va uskunalarini o'rnatish, atrof-muhitni muhofaza qilish);

- foydali iste'molni kengaytirish va sog'liq uchun zarar keltiruvchi tovarlar iste'molini cheklash;

- bozorning salbiy oqibatlarini yengillashtirish, ijtimoiy adolatsizlik, taqsimotdagi tengsizlik.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish maqsadi – bu ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitlarga moslashtirish hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning vazifalari quyidagilar:

- bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asosni yaratish va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

- raqobatni himoya qilish;

- daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;

- resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash;

- iqtisodiyotni barqarorlashtirishni va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Ijtimoiy muhitni ta'minlash vazifalari quyidagilarni ko'zda tutadi:

- milliy pul tizimini muomalaga kiritish;

- ichki tartibni saqlash;

- mahsulot sifati va og'irligiga andozalar belgilash;

- bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;

- muassasaviy o'zgarishlarni amalga oshirish va h.k.

Raqobatni himoya qilish vazifalari quyidagilar:

- monopol faoliyatini cheklash va ular ustidan nazorat o'rnatish;

- monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qilish;

- texnologik va iqtisodiy sharoitlar tufayli monopol mavqega ega bo'lgan korxonalar narxlarini tartibga solish;

- monopol korxonalar ishlab chiqaradigan tovarlar va xizmatlar turini aniqlash hamda ularga andozalar o'rnatish;

- tovarlar bozorida raqobatni rivojlantirish;

- iste'molchilar huquqi va tadbirkorlar manfaatini himoyalash.

Daromad (boylik)larni qayta taqsimlash vazifasi quyidagilar yordamida amalga oshiriladi:

- transport to'lovlari yordamida (muhtojlar, nogironlar, bironing qaramog'idagilar va ishsizlar nafaqalar bilan ta'minlanadi);

- ijtimoiy ta'minot dasturlari orqali (qariya va pensionerlarga, jamiyatning kam daromadli yoki daromadga ega bo'lmagan a'zolariga moliyaviy yordam ko'rsatiladi);

- bozorni tartibga solish, ya'ni talab va taklif ta'sirida o'matiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan;

- imtiyozli narxlarni va ish haqining eng kam (minimal) darajasini belgilash hamda o'zgartirish orqali;

- soliq imtiyozlarini belgilash yordamida.

Resurslarni taqsimlash (qayta taqsimlash) vazifasi orqali davlat:

- iste'molchilarning tovar va xizmatlar aniq turini xarid qilish layoqatini oshirish orqali talabni kengaytiradi va ular foydasiga resurslar qayta taqsimlanadi;

- davlat ayrim tovarlar taklifini ko'paytirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalaydi va shu orqali ularga resurslar oqimini ta'minlaydi;

- davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarning ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqib, budjet mablag'lari hisobiga resurslarni xususiy sohada qo'llashdan bo'shatadi.

Raqobatli bozor tizimining resurslarni qayta taqsimlashga layoqatsizligini ko'rsatuvchi holatlar quyidagilar:

- bozor tizimi ayrim tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi;

- ishlab chiqarishi o'zini oqlagan tovarlar va xizmatlarga resurslar ajratish holatida bo'lmaydi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi quyidagilarga qaratiladi:

- iqtisodiyotda to'liq bandlikni ta'minlash (davlat investitsiyalarini ko'paytirish, xususiy sektor sarflarini rag'batlantirish orqali);

- soliqlarni kamaytirish yoki soliq stavkalarini pasaytirish;


- dotatsiya va subsidiyalar berish;

- transfert to'lovlarini ko'paytirish.

13.2. O'zbekistonda iqtisodiyotning real sektorini davlat tomonidan isloh qilish strategiyasi va uni prognozlash

Yuqorida bayon qilingan real sektor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning umumiy vazifalaridan kelib chiqib, bundan tashqari hokimiyat organlari oldida turgan aniq vazifalar ham bor. Ularga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish;
- to'liq va samarali bandlik;
- iqtisodiy samaradorlikka erishishni ko'zlash;
- narxning barqaror darajasi;
- iqtisodiy erkinlik;
- daromadlarning odilona taqsimlanishi;
- mamlakat tashqi savdo balansining mutanosibligi.¹



13.2.1-chizma. Davlat boshqaruv organlarining milliy iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha vazifalari²

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida o'zaro bog'liq maqsadlarni ishlab chiqish va asoslash hukumatning mamlakatni boshqarish san'ati hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining murakkabligi va


¹ Государственное регулирование рыночной экономики -М. Пут России "Экономическая литература 2002 С 26-27

² Mualliflar tomonidan tuzilgan

oʻzaro bogʻliqligining qarama-qarshiligi, ularning ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tartibga soluvchi davlat organlarining oʻz maqsadlarini alohida holda emas, balki birgalikda, ularning oʻzaro bogʻliqligini inobatga olgan holda ishlab chiqishga majbur qiladi.

Iqtisodiyotga davlat tomonidan taʼsir etish obyekti boʻlib, bozor mexanizmi taʼminlay olmaydigan yoki qoniqarsiz darajada taʼminlaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish sohasida yuz beradigan jarayonlar, munosabatlar, sharoitlar hisoblanadi. Davlat taʼsir etadigan va tartiblaydigan obyektlarga ularning darajalari nuqtayi nazaridan quyidagilar kiradi:

- umumxoʻjalik jarayonlari, yaʼni iqtisodiy sikl, pul muomalasi, ish bilan bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba, konstruktorlik ishlari (ITTKI), narxlar;
- iqtisodiyotning yirik sohalari, yaʼni sanoat, qishloq xoʻjaligi, qurilish, infrastrukturalar, moliya sohasi;
- tarmoqlar va korporatsiyalar;
- yirik xoʻjalik komplekslari sifatidagi hududlar.




13.2.2-chizma. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari.¹

¹ Mualliflar tomonidan tuzilgan

Bulardan tashqari, davlat tartibga soladigan obyektga tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish ham kiradi. Davlat tashqi savdo sharoitlarini, kapital va ishchi kuchi harakatini, valuta munosabatlarini, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishni tartibga soladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektiga ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, ish beruvchilar bilan yollanma ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlar, kichik va o'rta tadbirkorlik, shuningdek, sotsial ta'minot sohalari ham kiradi.

Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va ta'sir etish predmeti uzoq muddatli istiqbolida milliy boylik va milliy mulkning o'sishi, o'rta muddatda iqtisodiy sikl, qisqa muddatli davrda – xo'jalik kon'yunkturasi hisoblanadi. Ushbu maqsadlarda xususiy kapital uchun qo'shimcha moliyaviy rag'batlar yaratiladi, davlat xarajatlari ko'paytiriladi, foiz stavkalari tartibga solinadi (13.2.3-chizma)



13.2.3-chizma. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining predmetlari.¹


Iqtisodiy siklni tartibga solishning umumiy vazifalari doirasiga iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishini, kapital jamg'arish, aholi ish bilan bandligi, to'lov balansining ahvoli, inflatsiya, narx va boshqalar ham kiradi (13.2.4-chizma).

Iqtisodiyot va ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini tartibga solish moliyaviy rag'batlar, davlat kapital qo'yilmalari vositasida amalga oshiriladi.

Shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan yangi tarmoq va ishlab chiqarishlar hamda iqtisodiyotdagi va tarmoq ichidagi progressiv tarkibiy o'zgarishlar, uning samaradorligini va raqobatbar-

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

doshligini oshirish ragʻbatlantiriladi. Shu bilan birga, ayrim joylarda ishlab chiqarishning haddan tashqari konsentratsiyalashuvi va markazlashuvining oldini olish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.



13.2.4-chizma. Davlat tomonidan iqtisodiy siklni tartiblash

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim unsurlaridan biri kapital jamgʻarish hisoblanadi. Maʼlumki, foyda olishga intilish, uni oʻzlashtirish hamda kapitalga aylantirish bozor iqtisodiyotida xoʻjalik yuritishning bosh maqsadi boʻladi. Shuning uchun ham davlatning iqtisodiy siyosati jamgʻarishni ragʻbatlantirishga qaratiladi. Bu esa xoʻjalik subyektlarining manfaatlariga mos keladi. Davlat boshqaruv organlari iqtisodiy sikl va iqtisodiyot tarkibiy tuzilmalariga taʼsir etish uchun barcha investorlar va ularning ayrim guruhlari uchun turli davrlarda qoʻshimcha imtiyozlar hamda imkoniyatlar yaratadi.

Aholining ish bilan bandligini tartibga solish ishchi kuchiga boʻlgan talab bilan taklif oʻrtasida bozor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan normal nisbat va ularning muvozanatini qoʻllab-quvvatlashni anglatadi. Bu nisbat iqtisodiyotning malakali va intizomli ishlovchilarga boʻlgan ehtiyojini qondirishi lozim. Ularning ish haqlari yetarli mehnat motivatsiyasini vujudga keltirishi kerak. Ammo ishchi kuchiga boʻlgan talab bilan uning taklifi oʻrtasidagi nisbat ish haqining haddan tashqari oʻsib ketishiga olib kelmasligi kerak. Aks holda, bu hol milliy raqobatbardoshlikka salbiy taʼsir etadi. Shuningdek, aholi ish bilan bandligi ham keskin pasayib ketishiga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Chunki buning oqibatida ishsizlar soni oʻsib, isteʼmol talabi va soliq tushumlari kamayib ketadi, davlat tomonidan nafaqalar uchun xarajatlar oʻsadi. Eng

yomoni, bu hol ijtimoiy larzalarga, xavfli ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.¹

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim obyektlaridan biri pul muomalasi hisoblanadi. Pul muomalasini tartibga solishning asosiy yoʻnalishi inflatsiyaga qarshi kurash hisoblanadi. Pul muomalasini tartibga solish orqali davlat bilvosita jamgʻarish sharoitlariga, narxlar va ijtimoiy munosabatlarga taʼsir etadi.

Toʻlov balansining holati va uning ijobiy saldosi ga erishish ham davlatning iqtisodiyotini tartibga solishga bogʻliqdir. Chunki toʻlov balansini holati mamlakat iqtisodiy ahvolining qay holatda ekanligini koʻrsatadigan koʻrsatkich hisoblanadi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotiga ega boʻlgan barcha mamlakatlarda davlat toʻlov balansini operativ va strategik tartibga solish bilan shugʻullanadi. Bunda davlat eksport va importga, kapital harakatiga, milliy valuta kursining koʻtarilishi va tushishiga taʼsir etish hamda savdo-shartnoma siyosati va xalqaro iqtisodiy integratsiyalar, tashkilotlarda ishtirok etish orqali mamlakat toʻlov balansini tartibga soladi.

Davlat narxlarni toʻgʻridan toʻgʻri va bilvosita tartibga soladi. Narxlarni toʻgʻridan toʻgʻri tartibga solishda u yoki bu tarmoq mahsulotlariga, ayniqsa, tabiiy monopoliya mahsulotlariga yuqori narx chegarasini belgilaydi. Narxlarni bilvosita tartibga solishda davlat ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar hamda aksiz yigʻimlari orqali tartiblaydi. Bulardan tashqari, davlat xususiy korxonalarni ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga, tovarlarni, kapitalni, toʻplangan bilim va tajribalarni chetga eksport qilishga ragʻbatlantiradi.

Iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda davlat jahon amaliyotida toʻplangan chora-tadbirlardan, yaʼni dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklar quyidagilardan iborat:


- iqtisodiy prognozlash, yaʼni iqtisodiyot va uning tarkibiy sohalarining istiqboldagi ahvolini, holatini oldindan koʻra bilish, ularning istiqbolini belgilash;
- mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining indikativ rejasini tuzish;
- davlat organlari boʻyicha manzilli rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

¹ Государственное регулирование рыночной экономики Учебное пособие для вузов /Т.Г.Морозова и др. под ред. Т.Г.Морозова –М. ЮНИТИ-ДАНА, 2001 С 8-9

- xo'jalik obyektlariga bilvosita, ya'ni iqtisodiy dastaklar orqali ta'sir etish dastak(rihag)larini qo'llash;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal etish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

Davlat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishda ma'lum hujjatlar ishlab chiqadi. Ularning asosini iqtisodiy prognozlar tashkil etadi. Iqtisodiy prognozlar mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish maqsadlarini belgilash, uni amalga oshirish strategiyasini va taktikasini ishlab chiqish hamda indikativ rejalar tuzishning asosi hisoblanadi.



13.2.5-chizma. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat tomonidan qo'llaniladigan dastaklar (chora-tadbirlar)


Iqtisodiyotni tartiblashning muhim hujjatlaridan biri iqtisodiy rivojlanishni dasturlashdir. Iqtisodiy dasturlar bozor munosabatlari amal qilayotgan sharoitda davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlariga to'g'ridan to'g'ri faol aralashuvining asosiy dastaklari hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanishni dasturlash butun iqtisodiyotni yoki uning alohida sohalariga bo'lgan tarmoqlar, hududlar, ko'ptarmoqli komplekslar rivojlanishi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni anglatadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi o'z ichiga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etish vositalarini oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- cheklangan ishlab chiqarish resurslarini boshqarish;
- iqtisodiyotni soliqlar orqali tartiblash;


- iqtisodiyot tizimiga monetaristik usullar orqali ta'sir ko'rsatish.

Cheklangan ishlab chiqarish resurslarini boshqarish deganda davlat o'ziga qarashli tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, kapital, investitsion resurslarni to'g'ridan to'g'ri taqsimlash orqali iqtisodiy tizimdagi muvozanatni saqlashga, yangi nisbatlarni va mutanosibliklarni vujudga keltirishga intiladi. Ammo ba'zi hollarda cheklangan iqtisodiy resurslarning davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri taqsimlanishi iqtisodiy tizimdagi muvozanatning va mutanosiblikning buzulishiga ham olib keladi.



13.2.6-chizma. Mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tartiblash bo'yicha hujjatlar tizimi¹

¹ Государственное регулирование рыночной экономики –М Путь России Экономическая литература, 2002



13.2.7-chizma. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalari.

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish xo'jalik subyektlarini mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltiradigan, rag'batlantiradigan soliq stavkalari va tariflarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Soliqqa tortish obyektlarini, soliq stavkalarini belgilash bilan bir qatorda imtiyozlar tizimi ham joriy etiladi. Soliq imtiyozlarini joriy etish davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish vositalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotga monetaristik usullar orqali ta'sir etish foiz stavkalari, budjet qarzlari, davlat qarz majburiyatlari ochiq bozoridagi operatsiyalar, muomaladagi pul massasi, valuta kursi kabi moliyaviy regulyatorlarni o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlat iqtisodiyotini tartibga solish obyektlarini, predmetlarini, vosita va usullarini aniq belgilashni va qo'llash mexanizmini shakllantirishi lozim bo'ladi.

MUNDARIJA

Kirish

3

I BOB. IQTISODIYOTNING REAL SEKTORI VA UNI PROGNOZLASHNING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1 1	Real sektor iqtisodiyoti tushunchasi va uning mohiyati	6
1 2	Real sektor iqtisodiyotini o'rganishning ahamiyati, maqsadi va vazifalari	8
1 3	Makroiqtisodiy jarayonlarni rejalashtirish va prognozlashning nazariy-metodologik asoslari Prognozlash va rejalashtirish usullari	10
1 4	Real sektor iqtisodiyotini o'rganish metodologiyasi	12

II BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

2 1	Real sektor iqtisodiyotining makroiqtisodiy o'lchamlari	15
2 2	Makroiqtisodiy prognoz – tahliliy ko'rsatkichlar tizimi	18
2 3	Real sektor makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining milliy hisoblar tizimi (MXT)da aks etishi	21
2 4	Makroiqtisodiy darajada real sektorni prognozlash modellari	22

III BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINI PROGNOZLASH XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

3 1	Real sektor iqtisodiyotini prognozlash usullari va uning turkumlanishi	24
3 2	Tarmoqlararo dinamik balans modeli	26
3 3	Prognozlashning ekspert usullari	27
3 4	Matematik modelashtirish usullari	29

IV BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTIDA ISHLAB CHIQUARISH SALOHIYATIDAN FOYDALANISH VA UNI PROGNOZLASH

4 1	Real sektorda ishlab chiqarish jarayoni va uni prognozlash	31
4 2	Real sektorda ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi	34
4 3	Real sektorda ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari	38
4 4	Real sektor ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari	41
4 5	Real sektorda ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini prognozlashning bosqichlari va ko'rsatkichlari	45
4 6	Tejamkorlikka erishishning istiqbol dasturlarini tuzishda prognozlashning o'rni	46

V BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING TARKIBIY TUZILISHI

5.1	Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishining mazmun-mohiyati	54
5.2	Iqtisodiyotning real sektorini diversifikatsiyalashning ilmiy asoslari	59
5.3.	Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishining huquqiy-me'yoriy masalalari	64
5.4	Sanoat tarmog'ini prognozlash modellari	73
5.5	Agrosanoat majmuasi iqtisodiy salohiyati	76

VI BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING MULKIY TUZILISHI VA UNI PROGNOZLASH

6.1	Real sektor iqtisodiyotining mulkiy ko'lam va uning istiqbolini belgilash	78
6.2	Real sektorda mulkchilikning turli shakllari nisbati va ularning o'zgarishi	80
6.3	O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning real sektor tarmoqlaridagi xususiyatlari ..	83
6.4.	Erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda mulkchilik munosabatlarining istiqbolini belgilash	86

VII BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING HUDUDIY TARKIBI VA UNI PROGNOZLASH

7.1.	Real sektor iqtisodiyotiniNG hududiy tarkibi.	95
7.2	Real sektor iqtisodiyoti hududiy tarkibining prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash.....	100
7.3.	Hududlar real sektori iqtisodiyotini modernizatsiyalash va istiqbolini belgilash masalalari	107

VIII BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK – REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING MUHIM BO'G'INI

8.1	Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'rni va ahamiyati	117
8.2	Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari	121
8.3	Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari	123
8.4	Iqtisodiyotning real sektorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiyot istiqbollari bashoratlash ...	126

IX BOB. IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIDA ELEKTR ENERGIYASI TA'MINOTI SOHASI VA TO'LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

9 1	Respublika energetikasining hozirgi davrdagi ahvoli va istiqboldagi rivojlanishi	130
9 2	Elektr energetika sohasidagi tarif siyosati	133
9 3	Elektr energiyasidan foydalanish xarajatlarini tejash siyosati	134

X BOB. REAL SEKTORGA INVESTITSİYALAR VA ULARNI PROGNOZLASH

10.1	Real sektorga investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar	136
10.2	Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinish holati tahlili	140
10 3	Mamlakatda investitsiya siyosati bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan prognozlar	147

XI BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINING ISTIQBOLLI RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALAR VA ULARNI PROGNOZLASH

11.1	Real sektor iqtisodiyotining istiqbolli dasturlarini tuzishda innovatsiyalar	150
11 2	O'zbekistonda innovatsiya tizimini shakllantirishda davlatning roli	153

XII BOB. REAL SEKTORDA BANDLIK VA UNI PROGNOZLASH

12.1	Real sektor iqtisodiyotida bandlik, uning tarkibi va turlari	158
12 2	Real sektorda bandlikning o'zgarish sabablari va oqibatlarini	165
12 3	Real sektorda aholi daromadlari va iste'molini prognozlash masalalari	171

XIII BOB. REAL SEKTOR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA UNI PROGNOZLASH

13.1	Real sektor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda prognozlashning ahamiyati	174
13 2	O'zbekistonda iqtisodiyotning real sektorini davlat tomonidan isloh qilish strategiyasi va uni prognozlash	181
Mundarija		189

**R. Xasanov, X. Asatullayev,
A. Suvonqulov, X. Xakimov**

**REAL SEKTOR IQTISODIYOTI VA
UNI PROGNOZLASH**

O'quv qo'llanma

Muharrir: N. Rustamova
Badiiy muharrir: M. Odilov
Kompyuterda sahifalovchi: U. Raxmatov

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 13.03.2013-y.da berildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozi №2. «Times» garnituras.
Shartli b.t. 12,0. Nashr hisob t. 12,0. Adadi 100 dona.
9-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi
100084. Toshkent. Kichik halqa yo'li, 7-uy

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi
100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy

